

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
IXTISOSLASHTIRILGAN TA`LIM MUASSASALARI AGENTLIGI  
IS‘HOQXON IBRAT NOMIDAGI  
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
NEMIS VA FARN SUZ TILLARI KAFEDRASI



70230101–Lingvistika(nemis tili) mutaxassisligi uchun

## BADIIY MATNLAR TARJIMASI

fani bo‘yicha

I-kurs magistratura talabalari uchun

## O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 200000 - San‘at va gumanitar fanlar  
Ta‘lim sohasi: 230000 - Tillar  
Ta‘lim darajasi: 70230101–Lingvistika(nemis tili)

Namangan - 2025

**Tuzuvchi:**



**f.f.n., dotsent A.Abdullayev**

Fanning o`quv - uslubiy maymuasi Nemis va fransuz tillari kafedrasining 2025 yil 28 avgustdagi 1 - sonli yig`ilishida muhokamadan o`tgan va fakul'tet Kengashiga ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**



**A.Tursunov**

O`quv - uslubiy maymua Filologiya fakul'tetining 2025 yil 29 avgustdagi 1 - sonli Kengashida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**Fakul'tet dekani:**



**E.Isomiddinov**

# ANNOTATSIYA

## I. O`UM quyidagi bo`limlardan tashkil topgan:

1. Titul varag`i.
2. Mundariya. O`UMning asosiy bo`limlari.
3. O`quv materiallar
- a) Birinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq ma`ruzalar mavzulari yoritib berilgan.

Har bir mavzu bo`yicha:

- Reja
- tayanch so`z va iboralar
- asosiy matn.

Ma`ruza o`quv materiallari bo`limi yakunida umumiy xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro`yxati keltirilgan.

b) Ikkinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq amaliy mashg`ulotlari mavzulari bo`yicha yoritib berilgan.

Amaliy mashg`ulotlarning har bir mavzu bo`yicha:

- asosiy matn;
- topshiriqlar variantlari;
- keyslar to`plami;
- xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro`yxati;

**4. Mustaqil ta`lim mashg`ulotlari.** Fan bo`yicha mustaqil ta`lim mashg`ulotlar mavzulari va ularni o`zlashtirish bo`yicha zarur uslubiy ko`rsatmalar berilgan.

**5. Kurs ishlari va kurs loyihasi** Rejalashtirilmagan.

6. Glossariy. Fanga oid termin va iboralarning qisqa talqini bo`yicha o`zbek, rus va ingliz tillarida berilgan.

**7. Ilovalar:**

- ishchi fan dasturi

## MUNDARIYA

So`z boshi.....	5
Fanni o`qitishda qo`llaniladigan interfaol metodlar .....	6
Pedagogik texnologiyalar.....	9
O`qitishning interfaol usullari.....	9
Qabul qilish vositalari (kanallari).....	10
Yumaloqlangan qor.....	14
Taqdimot.....	17
Misollar asosida ta`lim berish .....	18
O`quv materiallari .....	21
Badiiy matnlar tarjimasi fanining ob`ekti, maqsadi va vazifalari .....	21
Tarjima turlari. Tarjimaning tilshunoslik bilan bog`liq jihatlari.....	31
Tarjimaning metodik aspektlari. Tarjima birliklari va darajalari.....	36
Tarjimaning leksik-semantik muammolari.....	39
Terminlar tarjimasi. Qisqartma otlar tarjimasi.....	46
Tarjimaning grammatik muammolari. Grammatik ma`no turlarini tarjimada ifodalash.....	55
Tarjimada grammatik transformatsiyalar.....	64
Tarjimaning stilistik muammolari.....	69
Tarjimaning pragmatik masalalari.....	74
Milliy realiyalar tarjimasi.....	85
Og`zaki tarjima. Avtomatlashtirilgan tarjima.....	89
Ilova.....	97
O`quv dasturi.....	97

## SO`Z BOSHI

Mazkur o`quv-uslubiy maymua **Badiiy matnlar tarjimasini** fanidan 70230101–Lingvistika(nemis tili) yo`nalishi uchun mo`lyallangan. O`quv uslubiy maymuasini yaratishda yetakchi xoriyiy OTMlari o`quv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro`yxatiga kiritilgan - Gerhard Neuner und Hans Hunfeld "Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts" Berlin, Muenchen. Langenscheidt 2012, - Karin Kleppin "Fehler und Fehlerkorrektur" Berlin Munchen. Langenscheidt 2012, Pool -Lifdu "Heute hier, Morgen dort. Lieder, Chansons und Rockmusik Deutschunterricht" Berlin Munchen. Langenscheidt, 2015 va boshqa adabiyotlardan foylalanildi.

Semestr davomida o`quv kursining obekti, predmeti, tadqiqot metodlari, shu tilda muloqot qila olish nazarda tutiladi. Bu esa tildagi og`zaki nutqni tinglab tushunish va o`z fikrini og`zaki bayon qila olishni taqozo etadi. Bundan tashqari yozma matn o`qish va fikrni yozma ravishda bayon qila olish ham til bilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu amallarning hammasi tillar haqidagi bilimlarni, yani ularning tovushlar tizimi, grammatikasi, so`z boyligi hamda ular amal qiladigan qonuniyatlarni egallab olishni taqozo qiladi. Bundan tashqari magistrilar yahon tillari, ularning o`rni, strukturasi, qonuniyatlari va boshqa masalalar haqida fikr bildira olishlari, muhokama qilish va bahslasha olish ko`nikmalari va malakalarini egallashlari ham talab etiladi.

Tillar va ularni o`rganish haqidagi nazariy masalalrni va ularning amaliyotdagi tadbiqini Tillar o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyalari fani o`rganadi va shu fan orqali o`rgatiladi.

I. O`UM quyidagi bo`limlardan tashkil topgan:

1. Titul varaqi                      2. Mundariya.                      3. O`quv materiallar.

a) Birinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq ma`ruzalar mavzulari yoritib berilgan.

Har bir mavzu bo`yicha:

- Reja
- tayanch so`z va iboralar
- asosiy matn

b) Ikkinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq amaliy mashqulotlar mavzulari bo`yicha yoritib berilgan.

Amaliy mashqulotlarning qar bir mavzu bo`yicha:

- asosiy matn;
- topshiriklar variantlari;
- nashqlar;
- keyslar to`plami;
- xoriyiy va maxalliy adabiyotlar ro`yxati;

4. Mustaqil ta`lim mashqulotlari. Fan bo`yicha mustaqil ta`lim mashqulotlar mavzulari va ularni o`zlashtirish bo`yicha zarur uslubiy ko`rsatmalar berilgan.

Mustaqil vazifalarini bajarishga qaratilgan boshqa ma`lumotlar keltiriladi.

5. Kurs ishlari va kurs loyihasi ko`zda tutilmagan.

6. Glossariy. Fanga oid termin va iboralarning qisqa talqini bo`yicha o`zbek, rus va ingliz tillarida berilgan.

7. Ilovalar:

- fan dasturi;
- ishchi fan dasturi;
- tarqatma materiallar;
- testlar;
- ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo`llash bo`yicha

uslubiy ko`rsatmalar.

## **FANNI O`QITISHDA QO`LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR**

### **Ba`zi interfaol usul va innovatsion texnologiyalarning qisqacha ta`riflari**

- **Intervyu** - talaba (yoki o`quvchi) ni savolni to`gri tuzish, savol bera olish, savolga to`gri yavob berish, boshqalarni tinglay olish madaniyatiga o`rgatishga qaratilgan.
- **Iyerarxiya** -oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o`tish usullarini qo`llash orqali talaba (yoki o`quvchi) larni mantiqiy, tanqidiy va iyodiy fikrlashga o`rgatishga qaratilgan.

- **Talaba** - talaba (yoki o'quvchi) lar bilan yakkama-yakka holda ishlash o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.
- **O'qituvchi shaxsi** – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi “O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar“ mavzusidagi mustaqil fikrlashga qaratilgan.
- **Muloqot** - talaba (yoki o'quvchi) larni dars yarayonida diqqatini o'ziga yalb qilish, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.
- **Boshqaruv** - O'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda talaba (yoki o'quvchi) larni ish yarayonida boshqarish usullari bilan tanishtirish va shunga o'rgatishga qaratilgan.
- **Tanishuv** - talaba (yoki o'quvchi) larni bir-biri bilan tanishtirish, do'stona munosabat va iyodiy muhit yuzaga keltirish, ularning iyodiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini ochish, yamoda ishlash uchun qulay sharoit vuyudga keltirish va talaba (yoki o'quvchi)lar o'rtasida psixologik to'siqlarni yengishga yo'naltirilgan.
- **Murabbiy va yamo**a – murabbiy va yamo
- **KBI** (kuzatish, bahslashish, ishontirish) – faol hayotiy holatni, sardorlik sifatlarini, yamoda ishlash ko'nikmalarini hamda o'zgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash, munozara olib borish mahoratini, murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.
- **IMAK** (ishontirish maktabi) –ishontirish (murosa yo'llarini toppish, uni asoslab berish), tashkilotchilik qobiliyatini, noan'anaviy vaziyatlarda o'zini va yamoani boshqara olish hamda mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, ularni hal qilish yo'llarini izlab topish mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan.

- **Uchlik** (SAN –samarali, axloqiy, nazokatli) – bezak ishlari, iyodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, iyodiy tasavvurni rivoylantirish, tashkilotchilik qobiliyatlarini, turli badiiy eskizlarni tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.
- **Senariy** (sahna) –iyodiy fikrlashni rivoylantirish, tadbirning Reja senariysini tuzish ko'nimasi hamda sahna, aktyorlik asoslari, madaniyat, reyissura, tadbirni tashkil etish, notiqlik mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan.
- **AYIL** (amaliyotda yamoaviy iyodiy ishlar) – yamoaviy, iyodiy ishni tashkil qilish, tayyorlash va o'tkazish usullarini o'rganish hamda iyodiy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan.
- **Bahslashuv** –talaba (yoki o'quvchi)lar o'rtasida bahs, munozaralar o'tkazish va bahslashuv klublarini tashkil etish hamda ularni ba'zi yanglish fikrlar, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga qarshi kurashish, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida qarshilik ko'rastish yoki bildirilgan fikrni to'g'ri, noto'g'ri ekanligini aniqlab olish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olishga o'rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.
- **Tanqid qilishni o'rganing** – tanqid ko'rinishlarining tasnifi, ularni ishlatish yo'llari bilan tanishtirish, tanqidni to'g'ri qabul qilish ko'nikmasi va tanqid qilish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.
- **Kelishuv va ziddiyat** – mantiqiy va tanqidiy fikrlash, murosaga kelish mahoratini shakllantirish hamda asosli bahslashish qoidalari bilan tanishtirish, ziddiyatlarni yechishda har kimning o'z usullarini topa olishlariga ko'maklashishga yo'naltirilgan.
- **Iyerarxiya texnikasi** – murabbiylarning shaxsuy va kasbiy fazilatlari hamda murabbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarni aniqlash va ularni tarbiyalshga yo'naltirilgan.
- **Loyiha** – talaba (yoki o'quvchi) larni mustaqil fikrlash, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslash, ularni yozma bayon etish, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatishga yo'naltirilgan.

## Pedagogik texnologiyalar

Ushbu ilovada hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlarda hamda "Pedagogik texnologiyalar" kursida qo'llanadigan taqdimot materiallarini keltiramiz. Taqdimot materiallari 36 ta kadrda iborat bo'lib, unda pedagogik yarayonning samarali va natijali o'tishini ta'minlaydigan interfaol usullar keltirilgan.

Yumladan, aqliy huyum, klaster, zigzag, bahs-munozara, muz yorar, IMEN (ARIZ), yumaloqlangan qor, 6x6x6, kungaboqar, yadvallar, akvarium, olmos, taqdimot, keys-stadi, misollar asosida ta'lim berish, haqiqiy vaziyatlarni o'yin qilib ko'rsatish, Suqrot suhbat, germeneytik suhbat kabi usullar, guruh bo'lib ishlash, guruhlarni tashkil etish va guruh bo'lib ishlash modellari keltirilgan.

### **Pedagogik yarayonining samarali bo'lishini taminlaydigan interfaol usullar**

- „*Interfaol*„ -ingillizcha so'z bo'lib, „*interact*„: „*inter*“ – „o'zaro„, va „*act*“ – „harakat qilmoq„, ularni umumlashtirganda esa, „interfaol„- „o'zaro harakat qilmoq„, ma'nosini anglatadi.
- *Ineraction* - hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi.

*O'zaro harakat turlari*; o'qituvchi-talaba (yoki o'quvchi); talaba (yoki o'quvchi): talaba (yoki o'quvchi); o'qituvchi-talaba (yoki o'quvchi) lar; talaba (yoki o'quvchi) –talaba (yoki o'quvchi)lar; talaba(yoki o'quvchi)lar-o'qituvchi.

### **O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI**

**1. Kognitiv** (cognito-lotinchacha so'z bo'lib „bilim“, „bilish“ ma'nosini anglatadi)- eng avvalo, talaba(yoki o'quvchi)larning tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u yoki bu shaklda yamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan usuldir .

**2. Eksperimental** talaba (yoki o'quvchi)larning "yonli", shaxsiy tayriba orttirishlariga yo'naltirilgan

**3. Rolli o'yinlar, Modellashtirish** hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni iyro etish orqali ularni sinab ko'rishga yo'naltirilgan (usul yamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi)

**4. Fasilitasiya** (inglizcha facilitate - osonlashtirish) –guruh ishini tashkil etish, ko'pincha aniq, haqiqiy, amaliy topshiriqlar bilan bog'liq aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama faoliyatning haqiqiy Rejasini ishlab chiqish, Haqiqiy, moyarolarni manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'lyallangan.

### **Qabul qilish vositalari (kanallari)**

- Qabul qilishning eng muhim filtrlaridan biri
- Ko'rish, eshitish, xis-tuyg'udir.

**Vizual** - ko'rish orqali qabul qilinadigan axborot (obrazlar, rasm, film).

**Auditiv** - eshitish orqali qabul qilinadigan axborot (nutq, shamolning xushtagi, tomchilayotgan suv, oxang, tembr, ovoz balandligi).

**Kinestetik** (grekcha-kines-harakat) - xis qilish orqali qabul qilinadigan axborot (xid, tam).

### **Aqliy xuyum**

Bevosita yamoa bo'lib fikrlar xuyumini olib borish. Bu usuldan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talaba (yoki o'quvchi) larni ayni bir xil fikrlashdan xoli qilish, iyodiy vazifalarni yechish yarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

### **Breynstorming**

Bu atama inglizcha so'z bo'lib, ikki tushunchadan iborat: brain- miya, storming – xuyum, bo'ron, kattiq hayayon. Usulning "Miyani hayayonga solish" deb yuritilishi, uning asl mohiyatini ochib beradi, lekin bazida uni "Yamoaviy iyodiy fikrlash" deb ham tushunsa bo'ladi. Rus tilida usul "mozgovaya ataka", o'zbek tilida esa "Aqliy xuyum" yoki "Fikrlar xuyumi" deyilishi, uning asl mohiyatini saqlashga yordam beradi.

Bu usul 15 kishidan ortiq bo'lmagan guruhlarda o'tkaziladi. Asosiy tamoiyil: erkin muloqot-munozara yarayonida berilgan mavzu asosida yangi novatorlik g'oya, fikrlar to'planadi. Aytilgan g'oya, fikrlarning sifatiga emas ularning qanchalik ko'pligiga etibor qaratiladi.

Aytilgan g'oya, fikrlar muhokama ham, tanqid ham qilinmaydi. Munozara erkin va o'zaro samimiy munosabat xolatida o'tkaziladi. To'plangan g'oya, fikrlar asosida mavzu bo'yicha umumiy fikr shakllantiriladi. Aytilgan g'oya, fikrlarning sifati va ular asosida tuzilgan umumiy g'oya, fikrlarning qay darajada muximligi, muammo yoki mavzu bilan yaxshi tanish bo'lgan muaxassis-ekspertlar tomonidan baxolanadi.

Ushbu yarayonda o'qituvchining asosiy vazifasi- imkon boricha har bir aytilgan g'oya, fikrni to'plab borishdan.

### **Breynrayting**

Ushbu usulning qo'llanishi breynstorming usuliga o'xshash bo'lib, faqat unda barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa, o'z g'oya va fikrlarini og'aki bayon etishga uyaladigan yoki qiynaladigan ba'zi tinglovchilar uchun qulaylik yaratadi. Talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yozilgan fikrlar, g'oyalarning imloviy va usuliy xatolariga e'tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik hayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh yo'lar ham qoldiriladi.

Talaba (yoki o'quvchi)lar o'z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiradilar. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda, muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

### **„Tarmoqlar“ (Klaster) usuli**

**Fikrlashning tarmoqlanishi** –pedagogik strategiya bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)larning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'lagan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi.

#### **Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tarmoqlanadi:**

1. Hayolga kelgan har qanday fikr bir so'z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi.

2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizilib turiladi.
3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlik ketma-ketligini ko'paytirishga harakat qilinishi lozim.

### **SWOT- tahlil**

**S - strength - kuch**  
**W - weariness - oyizlik**  
**O - opportunity - imkoniyat**  
**T - thereat - tahdid**

**Kuchli tomonlari-** hal etilayotgan vazifaning afzalliklari;

**Kuchsiz tomonlari-** maqsadga erishishda ichki muhim omillarning ta'siri;

**Imkoniyat-** belgilangan vazifalarni hal etishdagi eng ma'qul holat;

**Tahdid-** faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchu tashqi muhit omillari.

**Bahs-munozara**(discussion method)- usulida guruh a'zolari biron muammoni yechish (yoki bilimlarini oshirish yoki mavzuni tushunish) maqsadida o'z g'oyalarini og'zaki taklif etadilar. Usuldan samarali foydalanish uchun ishtirokchilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tayribaga ega bo'lishlari lozim. Bu usul kattalar ta'limida ko'proq samara beradi.

### **„Muzyorar“ o'yini**

(qizdiruvchi, faoliyatga jalb qiluvchi mashq) – talaba (yoki o'quvchi)larning o'zaro tanishishi va ishchi muhit yaratish maqsadida qo'llanadigan mashq.

**Mashqning vazifasi** - talaba (yoki o'quvchi)larni muloqotga chorlash („muzni yorish“).

*Bu o'yin*-o'quv honasidagi ruhiy taranglikni yengish, guruhning shakllanish yarayonini tezlatish, muloqot va axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, shuningdek, samimiylik va hamkorlik muhitini yaratishga yordam berishdir.

„Muzyorar“ barcha ishtirokchilarni yarayonga muvaffaqiyatli jalb qiladi va treningni umumiy yo'nalishga iyobiy ta'sir ko'rsatadi.

IMEN (ARIZ) –IMEN (TRIZ) usuli

- IMEN (TRIZ) – ixtiro masalalarni yechish nazariyasi;
- IMEA (ARIZ) ixtiro masalalarni yechish algoritmi;
- ISHRN (TRTL) –iyodiy shaxsni rivoylantirish nazariyasi;
- ITR (RTV) – iyodiy tasavvurni rivoylantirish.

Ilmiy iyodkorlik texnologiyasini yaratish ustida 1946 yildan e'tiboran ish boshlangan. Bu yangi texnologiya TRIZ (teoriya resheniya izobretatelskix zadach) deb nomlangan. TRIZ haqidagi birinchi ma'lumot matbuotda 1956 yilda paydo bo'lgan.

1926 yili Toshkent shahrida tug'ilgan Genrix Saulovich Altshuller 1958 yili TRIZni o'rgatish bo'yicha birinchi o'quv seminarini o'tkazgan va ushbu o'quv seminarida G. Altshuller tomonidan ilk bor IOK (IKR –idealniy konechniy rezultat) tushunchasiga ta'rif berilgan.

**IMEN**-ishlab chiqarishni, yangi texnik fikrlarni aniq fanga aylantiradi, ixtiroli masalalarni yechishga yordam beradi. IMEN-talimda eskiliklardan voz kechishdi. IMEN elementlarni faqat texnik sohalarda emas, balki talim-tarbiya, shuningdek, boshqa sohalarda ham ishlatilishi mumkin.

Xayotdagi va tabiatdagi har bir predmet, har bir modda, hodisa, voqea, obyektida ikkilamchilik siri qarama-qarshilik mavjudligi talaba (yoki o'quvchi) larni har bir narsaning nimasidir yaxshi yo nimasidir yomon, bir tomondan foydali ikkinchi tomondan zararli, bir yihatdan halal bersa ikkinchi yihatdan zarur ekanligiga qiziqish uyg'otadi va uni topishga undaydi. Bu bilan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan ayrim materiallarni **IMEN** elementlari orqali osonlik bilan o'zlashtira olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**„Zigzag“** usuli 1980-1990 yillardan boshlab paydo bo'lgan. Bu usulning boshqa usullardan farqi shundaki, ishtirokchilar mayda guruhlarga ajratiladilar va talaba (yoki o'quvchi) lar raqamlanadilar, spiker (boshliq) saylanadi, so'ngra bir xil raqamlar bir-birini topshiriq „topadilar. Topshiriq beriladi va u o'zlashtirgach, tarqalishadilar. Har bir azo o'zi o'zlashtirgan materialni eski sheriklarga aytib beradi. Savol-yavobda esa guruh baholanadi. Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba (yoki o'quvchi) o'z guruhi

manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga maybur! Chunki, u o'z guruhiga qaytganda, o'rgangan mavzu bo'yicha savol-yavobda guruhi nomidan qatnashishi kerak. 4 ta guruh bo'lsa, 1,2,3,4 va 3 ta guruh bo'lsa 1,2,3 kabi va xokazo raqamlanadilar.

## YUMALOQLANGAN QOR

Bu usul har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq tarif topishga imkon beradi, talaba (yoki o'quvchi)larga guruhlarda ishlashni boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtayi nazarni ishlab chiqarishni o'rgatadi.

Bu usul bosqichma-bosqich hamda har bir bosqichga aniq vaqt belgilanishi bilan o'tkaziladi.

- **1-bosqich.** Har qatnashchi 2 daqiqa mustaqil ishlaydi .
- **2-bosqich.** Yuftliklarda ishlash-uchliklarda ishlash-5 daqiqa.
- **3-bosqich.** To'rtliklarda ishlash-oltiliklarda ishlash-5daqiqa.
- **4-bosqich.** Sakkizliklarda ishlash 5-daqiqa.
- **5-bosqich.** 5-daqiqa muhokama.

Guruhlardagi ish tugashiga ko'ra har bir guruh vakillari navbati bilan o'z plakatlarini hona xattaxtasiga ilib qo'yadilar va uni o'qiydilar. Agar savollar bo'lsa guruh yavob beradi. O'qituvchi barcha guruhlar ishtirokidagi umumiylikni topishga yordam beradi.

## 6x6x6

6x6x6 usulida o'qituvchi guruh 36 ta qatnashchisini qisqa vaqt mobaynida bironta masalani muhokama qilishga o'rgatish va ular ko'pchiligining fikrlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6 ta guruh (har birida olti kishidan) ishtirokchilarni o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammoni 6 daqiqa mobaynida muhokama qiladilar. Shundan keyin o'qituvchi 6 ta yangi guruhni shunday tuzadiki, unda oldingi munozara guruhda qatnashganlardan birortasi bo'ladi. Yangi guruh qatnashchilarini o'z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar.

**6x6x6** –guruhining barcha a’zolarini faollashtiruvchi usuldir. Qatnashchilardan har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham so’zlovchisi rovida bo’ladi.

Guruhlar bitta muammoni yoki bir muammoning turli yihatlarini muhokama qilishlari mumkin. **6x6x6** usuli o’qituvchi va guruhlarning faol ishtirokini talab qiladi.

### **YADVALLAR**

Har bir ishtirokchiga flomaster va qog’oz varag’i beriladi va uni to’rt qismga ajratib har biriga quyidagi axborotni yozishni iltimos qilinadi;

- Chap yuqori burchakda o’zinini bitta so’z bilan ifodalasin;
- O’ng yuqori burchakda o’zi sevgan va faxrlanadigan narsasini yozsin;
- Chap pastki burchakda o’zi to’g’risidagi bironta sirni oshkor qilsin (yiddiy sir bo’lishi shart emas, lekin atrofdagilardan hech kim bilmaydigan sir bo’lishi kerak);
- O’ng pastki burchakda o’zi yaxshi ko’radigan mashg’uloti (hobbysini) yozsin.

O’qituvchi ham o’z yadvalini talaba (yoki o’quvchi) lar bilan bir vaqtda to’ldiradi.

**DIQQAT!** Yadvalni ayrim kataklari mazmuni o’quv predmeti yoki mavzusiga ko’ra o’zlashtirilishi mumkin. Hamma ishtirokchilar o’zlari tayyorlagan yadvallarini o’rgata olib chiqib namoyish etadilar va devorga ilib qo’yadilar.

### **KUNGABOQAR**

Talaba (yoki o’quvchi)lar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo’linadi. O’qituvchi o’quv predmeti mavzusidan kelib chiqib o’rtaga bitta muammoni yoki asosiy muammodan kelib chiqib, har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab uning markaziga doira yoylashtirib, barglar yopishtiriladi. Mavzuga qarab doiraga yoki umumiy bitta muammo yoki har bir guruhning muammolari yozilib doskaga yopishtiriladi (yetarli miqdorda

qog'oz barglar oldindan tayyorlab qo'yilishi kerak. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib, umumiy yoki bir-birlarining muammolari bo'yicha fikr almashinmoqchi bo'lsalar, fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan gullarga yoylashtirib qo'yadilar va har bir guruhning „muammoli guli“ vaqt o'tishi bilan o'sib boraveradi. O'qtuvchi barcha guruhlar qatnashchilariga muammoning eng qulay yechish yo'llarini topishga yordam berib boradi. Bu usuldan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talaba (yoki o'quvchi)lar egallagan bilimlarini aniqlashda foydalanish mumkin. Usul, talaba (yoki o'quvchi)larga muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon qilishga o'rgatadi.

## **OLMOS**

Har bir yuftlikka 9 ta yumla (hikoya) bo'lgan convert beriladi va ularni olmos shaklida yoylashtirish topshiriladi.

Masalan:

Eng muhimi, ma'noli va qiziqarli yumla olmosning uchiga yoylashtiriladi. Keyingi 2 tasi bir hil 2-o'ringa yig'iladi. O'rtadagi uchtasi 4-keyingi uchtasi esa 7-daraja hisoblanadi. Olmosning pastiga qo'yilgan yumla, guruh tomonidan eng muhim ma'noli va qiziqarli bo'lmagan yumla deb hisoblanadi. Yuftliklar o'z mashqlarini tamomlaganlaridan so'ng ular 6 ta bo'lib guruhga bo'linadi. Guruhdagi har bir yuftlik qanday tanlanganini boshqa 2 ta guruh tushuntirib beradi. Shundan so'ng, umumiy 6 ta talaba (yoki o'quvchi), kelishuv asosida bir fikrga kelishadi. Fikrlarini navbatdagi guruhga aytib, shu tariqa suhbat davom etadi. Mashg'ulot ohirida yuftliklar bir-birlariga baho beradilar va o'qtuvchi fikrlarni umumlashtiradi.

Yumlalar o'rniga 9 ta turli rasmlar ishlatilishi mumkin. Bunday holatda mezonlar ham „o'ziga hos“, „chiroyli“, „kulgili“, „ayoyib“ yoki „o'zgacha“ liklari bilan baholanadi. Yoylashtirish piramida shaklida (6 ta yumla, rasm va sh.k) bo'lishi ham mumkin.

Talaba (yoki o'quvchi) lar yumla yoki rasmlarni katta formatli qog'ozga „Zina“ yoki „Narvon“ shaklidagi chizma ko'rinishida ham yoylashtirishlari mumkin.

## **AKVARIUM**

O'quv honasida stullardan iborat ikki doira tashkil qilinib, birida stullar tashqariga, ikkinchisida ichkariga qarab yoylashtiriladi. Talaba (yoki o'quvchi)lar teng ikki guruhga bo'linadilar: biri ichki stullar aylanasi boshqasi esa tashqi stullar aylanasi o'tiradilar. Bunda har kim o'z sherigiga qarab o'tiradi. Talaba (yoki o'quvchi) larga muhokama qilish uchun savol beriladi.

Yaxshilab o'ylab ko'rganlaridan so'ng talaba (yoki o'quvchi) larga sheriklari bilan savolni muhokama qilish uchun bir yoki ikki daqiqa vaqt beriladi.

Ma'lum signaldan so'ng tashqi aylanadagilar bir o'rin chapga surilishadi va ayni savolni yangi sheriklari bilan muhokama qilishadi. Tashqi aylanadagi talaba (yoki o'quvchilar) o'zlarining eng birinchi sheriklari surilib kelgunga qadar yoki yetarlicha yangi sheriklari bo'lungacha faoliyat davom ettiriladi.

Shu usulni tashqi doiradagilar tadqiqotchi sifatida ichki doiradagilar himoyachi sifatida „doiraviy rolli o'yin“ shaklidagi mashg'ulotlarda ham qo'llash mumkin.

## **TAQDIMOT**

**Taqdimot** –axborot, nazariya yoki tamoyillarni talaba (yoki o'quvchi) larga yetkazish maqsadida ekspert tomonidan o'tkazaladigan tadbir. U turli (ma'ruza, savol berish, munozara yurutish) shakllarda o'tkazilishi mumkin. Taqdimotning mazmuni usul sifatida o'qituvchiga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Uni o'tkazish tartibi:

1. Talaba (yoki o'quvchi) larni mavzu bilan tanishtirish –so'zlab bermoqchi bo'layotgan narsalar to'g'risida bayon etish.
2. Auditoriyadagi bor imkoniyatdan foydalanib, mavzu bilan tanishtirish (ko'rgazmali).
3. Bayarilgan ishga yakun yasash.
4. Talaba (yoki o'quvchi) larning savollariga javob berish.

## MISOLLAR ASOSIDA TA'LIM BERISH

**Misollar asosida ta'lim berish-** tahlil qilish va muhokama qilish uchun foydalaniladigan(gipotetik, taxminiy) vaziyatning yozma ravishdagi ta'rifidir.

### ***Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:***

1. Talaba (yoki o'quvchi) larni misol bilan tanishtirish.
2. Misol bilan tanishishlari uchun talaba (yoki o'quvchi)larga vaqt ajratish.
3. Munozara yuritish (yoki muammo hal etish) uchun savollar taqdim etish.
4. Muammoni hal etish uchun talaba (yoki o'quvchi) larga vaqt berish.
5. Muammini hal etish (yoki o'z yavoblari taqdimotini o'tkazishlari) uchun talaba (yoki o'quvchi)larga imkon berish
6. Barcha taxminiy yechimlarni yavoblarni muhokama qilish
7. Talaba (yoki o'quvchi)lardan misol bilan ishlash yarayonida nimalarni o'rganganliklarini aytib berishlarini so'rash
8. Mashg'ulot haqida fikr bildirish.

## „KEYS –STADI” USULI

„**Keys- stadi** “ inglizcha so'z bo'lib, (case-aniq vaziyat, hodisa, stadi-o'qitish).

Bu usul aniq vaziyat hodisaga asoslangan o'qitish usuli hisoblanadi.

„**Keys- stadi** “ usuli bo'yicha ishlash:

1. Yakka tartibda ishlash (umumiy vaqtning 30% i)
  - Vaziyat bilan tanishish (matn bo'yicha yoki so'zlab berish orqali);
  - Muammolarni aniqlash
  - Axborotlarni umumlashtirish
  - Axborot tahlili
2. Guruhda ishlash (umumiy vaqtning 50% i)
  - Muammolarni hamda ularning dolzarbligi bo'yicha ketma-ketligini (ierarxiyasini) aniqlash
  - Muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish
  - Har bir yechimning afzal va zaif jihatlarni belgilash

- Muqobil yechimlarini baholash
3. Yakka tartibda va guruhda ishlash (umumiy vaqtning 20%i)
- Muqobil variantlarni qo'llash immkoniyatlarini asoslash
  - Hisobot hamda natijalar taqdimotini tayyorlash

### **HAYOTIY VAZIYATLARNI O'YIN QILIB KO'RISH (SIMMULYATSIYA)**

**Hayotiy** vaziyatlarni o'yin qilib ko'rish – hayotiy vaziyatlarni o'yin shaklida ko'rsatishdan iboratdir.

Otkazish tartibi:

1. Talaba (yoki o'quvchi) larni o'yin davomida o'ziga hos rollarni bayarishlariga tayyorlash.
2. Talaba (yoki o'quvchi) larni bu o'yinning maqsadi, qoidalari va vaqt bilan belgilanadigan chegaralari bilan tanishish.
3. O'quv predmeti mavzusi bo'yicha yoki tanlangan muammo bo'yicha simmulyatsiyaviy sharoit yaratish
4. O'yinni o'tkazishga yordam berish
5. Talaba (yoki o'quvchi)lardan bu o'yin ularda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash
6. Yana qanday simmulyatsiyaviy sharoitlar bo'lishi haqida fikrlashish
7. Mashg'ulotni yakunlash

### **SUHBAT USULI**

**Suhbat usuli**-og'zaki bayon qilish usuli bo'lib, talaba (yoki o'quvchi)larning bilimlarini asta-sekin o'zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o'ylangan savollar tizimidir. Bu usul materiallarni mustahkamlash va yangi bilimlarni bayon qilishda qo'llanadi.

1. Evristik suhbat (evrestika yunoncha so'z bo'lib-heuruskeo izlayman, topaman, kashf etaman ma'nosini anglatadi.

**Maqsad** –o’qituvchining mohirona qo’ygan savollari yordamida hamda talaba (yoki o’quvchi) larni tirishqoqligi va mustahkam fikrlashlari tufayli ularni yangi bilimlarini yadal o’zlashtirishlarini ta’minlash.

Bu suhbatda o’qituvchining bitta savoliga talaba (yoki o’quvchi) larning ko’plab javoblarini kutish mumkin.

2. Katexizik suhbat(katehizic yunoncha so’z bo’lib *katechesis* „*nasihat,o’git*” ma’nosini anglatadi) –biron –bir ta’limot asoslarini savol javob tarzidagi qisqacha bayoni

**Maqsad** – talaba (yoki o’quvchi) larning bilimlarini tushunganlik va o’zlashtirganliklarini nazorat qilishdir. Bu usul, 1-o’rinda hotira va tafakkurning rivoylanishiga yordam beradi. Bu suhbatda o’qituvchining bitta savoliga talaba (yoki o’quvchi) lar bitta aniq to’g’ri javob berishlari kerak.

## **GERMENEVTIK SUHBAT**

**Germenevtik-(yunoncha so’z bo’lib, hermeneutikes-tushuntiruvchi, talqin qiluvchi ma’noni anglatadi).**-matnlarni sharhlash san’ati.

**Maqsad**-o’qilayotgan, o’rganilayotgan matnni tomosha qilinayotgan rasmni experiment va sayohat natijalarining asl ma’nosini mazmunini talaba (yoki o’quvchi) lar hamkorliklarida tushuntirish va izohlash.

Bu suhbat mobaynida o’rganilayotgan materialni to’g’ri tushunish va baho berish ko’nikmmalari hosil bo’ladi.

# O'QUV MATERIALLARI

## MAVZULAR

### **Badiiy matnlar tarjimasini fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari**

Reja:

1. Badiiy matnlar tarjimasini fanining tarixi.
2. Badiiy matnlar tarjimasini fanining rivojlanish bosqichlari.
3. Badiiy matnlar tarjimasini kursini ob'ekti, maqsadi va vazifasi.
4. Tarjimaning xususiy nazariyalari
5. Tarjimaning lingvistik nazariyasi

**Ta'limiy maqsad:** talabalarda tarjima nazariyasi fanining ob'ekti va predmeti, uning filologiya sohasida tutgan o'rni haqida nazariy bilimlarni, shuningdek, tarjima jarayonining mohiyati hamda bu jarayonda qo'llaniladigan metodlardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Tarjima, tarjimashunoslik, lingvistika, badiiyadabiyot, tamoyil, tillararo tafovut, asliyatg, «chevurish», «o'tkazish», «qaytarish», «ag'darish», «o'girish», she'r, dramatik va nasriy asar, tafsir, tabdil, sharh.

O'zbekistonda tarjimashunoslik fani jadal sur'at bilan rivojlanayotganligi sababi – bizda uning yaratilishi, katta istiqbol sari borishi uchun zarur adabiy-tarixiy an'ana, lisoniy-uslubiy zamin, material, sharoit mavjud. O'lkamizda tarjima nazariyasi bo'sh-taqir erda emas, balki ko'p asrlik tarjima amaliyoti qaror topib, madaniy hayotga tomir otgan turli tarjima maktablari to'plagan boy, rang-barang tajribalar asosida tug'ildi. Tarjimashunoslik fanining ildizlari uzoq tarixiy zamonlarga borib taqaladi. Tarjima qadimiy davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan tarjimaning bu og'zaki turi hozirda ham saqlangan.

Tarjimachilik san'ati qadimiy tarixga ega. VI asrdan boshlab sug'd, pahlaviy tilidan turkiy tilga tarjimalar bo'lgan. X-XI asrlarda yashagan adiblar, olimlar ijodida ham tarjima va adabiy-ilmiy aloqa keng rivojlangan. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamahshariy, Unsuriy, Abubakr

Xorazmiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib arab, hind, fors, yunon tilidagi kitoblardan keng foydalanganlar va bir qanchasini tarjima qilganlar. Masalan, birgina Abu Rayhon Beruniyning o‘zi o‘nta asarni arab tiliga va beshta asarni arab tilidan hind tiliga tarjima qilgan.

Samoniylar, qoraxoniylar, saljuqiylar, g‘aznaviylar davrida davom etgan tarjimonlik jarayoni XV asr – temuriylar zamonida yanada taraqqiy etdi. Ayniqsa, Qur‘on tafsirlari, hadislar tarjimasiga e‘tibor berildi. “Kalila va

Dimna”, “Ming bir kecha”, “Shohnoma” asarlari uch-to‘rt martadan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

O‘rta Osiyo ko‘hna madaniyat o‘choqlaridan biridir. Qadimgi davrlarda va o‘rta asrlarda Movarounnahrda o‘z davriga nisbatan yuksak taraqqiy etgan texnika va sug‘orish inshootlari, fan, madaniyat, adabiyot va san‘at yodgorliklari mavjud edi. VIII asrda O‘rta Osiyoni arablar zabt etgandan so‘ng, markazlashgan yagona davlat, xalifalik davrida arab tili umumiy davlat tili bo‘lib qoldi. Xalifalik tarkibiga kirgan barcha mintaqalarda ilm-fan asarlari ham arab tilida yoziladigan bo‘ldi. Bu davrlarda ikki taraflama va ko‘p taraflama beqiyos ko‘p tarjimalarning markazida ham arab tili mustahkam mavqeni ishg‘ol etgan edi.

Bag‘dod shahrida qaror topgan tarjima maktabi «Dorul hikma»ning faoliyati natijasida qadimgi zamon yunon klassik fanining juda ko‘p asarlari arab tiliga o‘girildi. Ana shu tarjimalar ba‘zi hollarda asl yunoncha nushalarida yo‘qolib ketgan nodir ilmiy asarlarning bizning davrimizgacha etib kelishiga sabab bo‘lgan. Ispaniyaning Toledo shahrida qaror topgan tarjima maktabi esa Bag‘dod tarjima maktabining olamshumul samaralarini G‘arbiy Evropaga uzatishda benihoya katta vositachilik rolini o‘ynadi. Buning natijasida o‘rta asrlarda arab tilida yaratilgan yoki arabchaga o‘girilgan ilmu-hikmat asarlari, yangi nazariy g‘oyalar, fundamental fanlarning natijalari Evropa zaminiga ko‘chib, u erda yanada chuqur tomir otdi.

Matematika, geometriya, mexanika, astronomiya, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix, san‘at nazariyasi, adabiyot sohalarida arab tilida yozilgan, u orqali dunyoning boshqa mamlakatlariga, jumladan, G‘arbiy Evropaga tarjima qilib tarqatilgan juda ko‘plab ishlar orasida o‘rta osiyolik mutafannin olimlar, mutafakkirlar Muhammad

al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abunasr Forobiy, Ulug‘bek va boshqalarning allaqancha asarlari ham bor.

Har bir xalq adabiyotining rivojlanishida tarjimachilikning ta’siri katta bo‘ladi, zero tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdosh. O‘zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Qoshg‘ariy, Rabg‘uziy, Kutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqalar ijodida tarjima katta o‘rin egallaydi.

Alisher Navoiyning «Muhokamatul lug‘atayn» nomli ajoyib lingvistik asarida turk (qadimiy o‘zbek) tilining xususiyatlari, uning rang-barang tasviriy vositalari, potentsial imkoniyatlari haqida boy faktik dalillar, ma’lumotlar keltirilgan, tilimizning boy lug‘aviy, uslubiy quvvati azamat adabiy til hisoblanmish zaboni forsiy bilan qiyosiy planda isbotlangan ekan, bular hammasi, shubhasiz, tarjima ilmi uchun ham muhim nazariy baza edi.

«Xamsa»da til bilan tafakkurning uzviy birligi, mazmun bilan shaklning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi haqidagi fikrlar tarjima dialektikasining ayni mag‘zini ifodalaydi, nazariyaning poydevorini yaratishga xizmat qiladi. Xullas, tarjimachilikda shu qadar boy, mazmunli tajriba azaldan mavjud edi.

1.2. O‘zbekistonda tarjima nazariyasi mustaqil fan sifatida XX asrning o‘rtalarida shakllana boshlagan bo‘lsa-da, tarjimachilik amaliyoti ming yillik tarixga ega. Bundan o‘zbek tarjimachiligi ming yillar davomida nazariyasiz rivojlanib kelgan degan xulosani chiqarib bo‘lmaydi. Avvalo, arab, fors, hind, turk, rus tillaridan juda ko‘p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, adabiy kitoblarni o‘zbekchalashtirgan bizning tarjimonlarimiz garchi yozilmagan, sistemalashtirilmagan, umumlashtirilmagan bo‘lsa-da, qabul etilgan, uqilgan, rioya qilingan ma’lum tarjimachilik aqidalariga asoslanib ish ko‘rganlar. Masalan: nazm-nasr bilan yoki goho, aksincha, proza – she’riy maqomga solinib o‘girilgan; hijjalab yoki erkin, qisqartirib yoki qo‘shib, lokalizatsiya yoki modernizatsiya yo‘li bilan tarjima qilingan va hokazo. Hatto ba’zan tarjimalarga yozilgan an’anaviy muqaddimalarda nima sababli u yoki bu tarjimachilik aqidasi, nazariy printsiplarga rioya qilinganligi tarjimonlar tomonidan asoslangan ham. Bu esa tarjima nazariyasining ibtidosi XX asrdan oldin tug‘ila boshlaganidan, qadim zamonlardayoq nazariya kurtaklari paydo bo‘la boshlaganidan dalolat beradi.

XIX asrda Xorazm va Toshkentda alohida-alohida tarjima markazlari shakllangan bo'lsa, XX asrni bema'lol tarjima asri deb aytsa bo'ladi. Chunki XX asr boshlariga qadar, asosan, Sharq xalqlari yaratgan ilmiy-adabiy meros durdonalari tarjima qilingan bo'lsa, XX asrdan boshlab Evropa halqlari adabiyoti, ayniqsa rus tilidan tarjima qilish avj olgan. Jadidlarning ma'rifatchilik harakati keng miqyosda ilmiy-madaniy va ma'naviy aloqalarni talab qilgan. Sho'ro davrida ham dunyo xalqlari adabiyotidan eng yaxshi asarlar tarjima qilindi. Jumladan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'ofur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Hamid Olimjon, Mirzakalon Ismoilov, Zulfiya, Abdulla Qahhor kabi mashhur adiblarimiz jahon mumtoz adabiyoti vakillari L.N.Tolstoy, V.Shekspir, A.S.Pushkin, M.Lermontov, Sh.Rustaveli, N.V.Gogol, J.Bayron, N.Hikmat, V.Mayakovskiy asarlarini zo'r mahorat bilan tarjima qildilar. "Faust" (Gyote), "Ilohiy komediya" (Dante), "Ramayana" kabi jahonshumul asarlar tilimizda yangradi.

Shu bilan birga, o'nlab professional tarjimonlar (Sh.Shomuhamedov, M.Osim, Y.Shamsharov, Q.Qahhorova, H.Ahrorova, Q.Mirmuhamedov, V.Ro'zimatov, T.Jalolov, O. Sharafiddinov, A.Rashidov, M.Mirzoitov, H.To'rabekov, I.G'afurov, M.Mahmudov, M.A'zam, A.Fayzullo va boshqalar) ning samarali ijodiy mehnati tufayli Firdavsiy, Umar Hayyom, J.Rumi, Hofiz Sheroziy, Bedil, Servantes, M.Dostoevskiy, I.Turgenov, Balzak, Mopassan, R.Tagor, E.Xeminguey, Premchand, M.Sholoxov, Ch.Aytmatov va boshqa ko'plab atoqli adiblarning dunyoga mashhur noyob asarlari o'zbek kitobxonlari kitob javonidan o'rin oladi.

Bizning respublikamizda S.Husayn, Roiq, S.E.Palastrov, M.A.Sale tarjima nazariyasi uchun poydevor yaratgan adiblar, birinchi tadqiqotchilar. XX asr o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, M.Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va boshqalar badiiy tarjima sohasida ham samarali ijod qilganlar. Badiiy tarjima sohasida M. Osim, N. Alimuhamedov, Sh.Shomuhamedov, K.Kahhorova, O.Sharopov, Sh.Tolipov, V.Ro'zimatov, Q. Mirmuhamedov, A. Rashidov, M. Hakimov, I.G'afurov, M.Mirzoidov, H. To'rabekov, T.Alimov va boshqalar professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimachiligida ham

katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R. Abdurahmonov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, Z. Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta. Cho‘lpon, Sanjar Siddiq kabi mohir tarjimonlar nafaqat bu davr tarjima adabiyotini, ayni paytda tarjimashunoslik ilmini ham boshlab berganlar, tarjima haqida maqola va risolalar bitganlar.

Badiiy tarjima umuminsoniyat madaniyati, tafakkuriy kashfiyotlarni o‘zlashtirish vositasidir. Shunisi ham borki, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Zahridin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi o‘zbek adabiyotining shoh asarlari jahon tillariga bir necha bor tarjima qilindi. Umummilliy adabiyotimizning tarkibiy qismi bo‘lgan ana shu tarjima adabiyotini o‘rganish, tarjimachilik san’ati, talab va qonuniyatlarini tahlil etish va shu asosda tarjima tanqidini yo‘lga qo‘yish muhim dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. O‘tgan asrning 50-yillarida badiiy tarjimani ilm sifatida tadqiq etish boshlandi. Bunda A.Muxtor, J.Sharipov, G‘.Salomov, N.Vladimirova, N.Komilov, K.Jo‘raev, T.Jo‘ra kabi olimlarning xizmati katta bo‘ldi. Va nihoyat, O‘zMUda tarjimashunoslik keng rivojlanib, o‘ziga hos ilmiy maktab yuzaga keldi.

Ayniqsa, filologiya fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, xalqaro Bobur mukofoti laureati, tarjimashunos olim, publitsist, professor G‘.Salomovning (taxallusi - G‘aybulla As-Salom ) bu sohadagi xizmatlari katta bo‘ldi. Olim o‘zining butun ilmiy faoliyatini O‘zbekistonda tarjimachilikni o‘rganishga bag‘ishlagan, uni alohida fan sifatida shakllantirishga muvaffaq bo‘lgan salohiyatli yirik olimdir.

O‘zbek tilining chuqur bilimdoni, uslubshunos va qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida salmoqli ishlar yaratgan ustoz G‘.Salomov tarjima nazariyasi, tarixi va tanqidini birgalikda olib rivojlantirdi, uning ishlari tufayli o‘tgan asrning oltmishinchi yillarida O‘zbekistonda o‘ziga xos tarjimashunoslik ilmiy maktabi shakllandi.

Ustoz G‘.Salomov asos solgan tarjimashunoslik ilmiy maktabi hozirgi kunda yanada rivojlanib bormoqda. Endilikda g‘arb va sharq tillaridan tarjimalar ko‘payib, iqtidorli yosh tarjimashunos olimlar ustoz G‘.Salomov ishlarini davom ettirmoqda.

1.3. Tarjima nazariyasi ko‘p sohali, ko‘p janrli, sertarmoq, murakkab umumfilologik fan. Tarjimashunoslikning bir qanoti-tilshunoslik bo‘lsa, ikkinchi qanoti-adabiyotshunoslikdir. Til va adabiyot tarixi bilan tarjima tarixi, adabiyot nazariyasi va tarjima nazariyasi, lingvistika hamda tarjimashunoslik bir-biri bilan uzviy bog‘liq, lekin hech qachon birinchisi ikkinchisining o‘rnini egallay olmaydi. Badiiy tarjima nazariyasida tarjimashunoslikning badiiy adabiyot, asosan adabiy jarayon, adabiy janrlar, ijodkor shaxsi va hokazo masalalari bilan bog‘liq tomonlar o‘rganiladi. Tilshunoslik sohasi esa tarjima nazariyasining hamma tomonlari, sohalari, turlari, janrlariga aloqador.

Tarjimashunoslik fani tarjima amaliyotini, uning o‘ziga xosliklarini, tarixini, tamoyillari, printsip va qonuniyatlarini o‘rganadi, tarjimonga o‘girish uchun asar tanlash, tillararo tafovutlar hamda asliyatga xos boshqa xususiyatlarni, milliy-adabiy an‘analarni hisobga olgan holda ish tutishga yordam beradi. Tarjimashunoslik fani uch qismdan iboratdir: 1). Tarjima tarixi. 2). Tarjima nazariyasiga kirish. 3). Umumiy tarjima nazariyasi asoslari.

Tarjima nazariyasining vazifasi – asl nusxa bilan tarjima o‘rtasidagi nisbatning qonuniyatlarini kuzatishdan, alohida xususiy xarakterdagi tarjima hodisalaridan tug‘ilgan xulosalarni ilmiy ma’lumotlar asosida umumlashtirishdan hamda tarjimachilik amaliyotiga bilvosita ta’sir o‘tkazish, uning sifatini yaxshilashdan iborat. Tarjima amaliyoti maqbul ifoda vositalarini topish hamda muayyan konkret tarjima masalalarini hal qilishda muqobil model, qoida, dalil va isbotlarni tarjima nazariyasidan oladi. Shunday qilib, asl nusxa bilan tarjima o‘rtasidagi munosabat hamda konkret hollarda yuz berib turadigan, izohlash, tushuntirish va umumlashtirishni talab etadigan farqlanuvchi, tafovut qiluvchi formalar tarjima nazariyasining asosiy predmeti hisoblanadi.

«Tarjima nazariyasi va amaliyoti» kursining vazifasi tarjima jarayoni va tarjimada muqobillik qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat. Kurs O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda tarjimashunoslik fanining tarixi va hozirgi ahvoli bilan tanishtiradi va tarjimada amaliy bilim va ko‘nikmalarning nazariy asoslarini yaratadi.

Tarjima – forscha «tarzabon» (chiroyli so‘zlovchi, notiq, tili burro kishi) so‘zidan arabiylashib o‘zgargan. Arab tiliga «tarjumon» shaklida qabul qilingan, undan

«tarjima» yoki «tarjuma» hosil boʻlgan. Oʻzbek adiblari bunday tushunchani «chevurish», «oʻtkazish», «qaytarish», «agʻdarish», «oʻgʻirish» singari atamalar bilan ifoda etganlar. Koʻp yillar davomida «tarjima» sharh, tafsir, bayon qilish, tushuntirish maʼnolarida ham qoʻllanib kelingan. XX asrda bu soʻz badiiy ijodning bir turini ifodalash maʼnosini kasb etdi va ilmiy-filologik terminga aylandi.

«Tarjima» hamma uchun tushunarlidek tuyulsada, bu terminni maʼnosi ochib berilishi lozim. Birinchidan, tarjima – bu bir tilda sodir boʻlgan asarni ikkinchi tilga faqat tarjima qilish yoʻli bilan etkazib berish jarayonidir. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: sheʼr, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qogʻozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda soʻzlashuvchi, «tilmochning» xizmatiga muhtoj boʻlgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar oʻgʻiriladi. Ikkinchidan, tarjima – bu shu jarayonning natijasi deb tushuniladi, yaʼni tarjima tilida yangi yaratilayotgan asardir.

Tarjima – xalqlar oʻrtasida oʻzaro iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalarning kengayishi manfaatlariga xizmat qiladi. U xalqlar doʻstligi, qardoshlik va internatsionalizm manfaatlariga xizmat qiluvchi eng muhim vositalardan biridir.

Tarjima – madaniyat va taraqqiyot, tinchlik va kishilarning bir-birlarini oʻzaro tushunib olishlari ishiga, gumanizmning oliy ideallariga xizmat qiladi.

Tarjima – milliy adabiyotlarning oʻzaro aloqasi va bir-biriga taʼsiri jarayonini tezlashtiradi; milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular, umuminsoniy gʻoyalar, rang-barang adabiy-estetik shakllarning tugʻilishiga sabab boʻladi.

Tarjima – milliy tillarning rivojlanish surʼatini tezlashtiradi, tillarning lugʻat boyligini yanada oshiradi, yangi-yangi grammatik vositalarni keltirib chiqaradi.

Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi.

Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim koʻrinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga koʻra tafsir, tabdil, sharh kabi koʻrinishlarga ham ega boʻlishi mumkin.

Tarjimaning maqsadi – xorijiy til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiali asosida qayta yaratishdan iboratdir. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nushani to‘la-to‘kis idrok etishi, so‘ngra uni o‘z tilida bekami-ko‘st qayta ifodalashi darkor.

Tarjimaning vazifasi – asliyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o‘rtasidagi uyg‘un va tafovutli jihatlarni puxta o‘zlashtirib olgan holda, asliyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir. Bu tamoyilga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning, to‘la-to‘kislikning, demakki, ifoda me‘yorining buzilishiga, harfxo‘rlikning sodir bo‘lishiga olib keladi. Asl nusha muallifidan voqelikni to‘g‘ri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nushani bekami-ko‘st talqin etish talab qilinadi.

A.V. Fedorov so‘zlari bilan aytganda “Tarjima qilish – bu bir til vositasi bilan ilgari ifoda etilgan narsalarni boshqa til vositasi bilan to‘g‘ri va to‘liq ifoda qilish deganidir”<sup>1</sup>. “Shunday qilib, tarjimaning asosiy vazifasiga nafaqat originalning tilida ifoda etilgan fikrlarni aniq bayon qilish emas, balki, tarjima tili vositasida xabarning uslub va shakllarining barcha xususiyatlarini qanday bo‘lsa shunday tasvirlab bermoq kiradi. Aynan mana shunday asl holida tiklash tarjimini boshqa tilda ifodalangan mazzmunni ifodalashning boshqa turlaridan: aytib berish, qisqacha muzmunini bayon qilishdan ajratib turadi”<sup>2</sup>.

Tarjimaning lingvistik nazariyasi – bu tarjima jarayonini tillararo transformatsiya (o‘tish) sifatida ilmiy aks ettirish, ya’ni bir tildagi matnni ikkinchi bir tildagi matnga muqobil sifatida o‘zgartirish. Boshqacha qilib aytganda, tarjimaning lingvistik nazariyasini asosiy vazifasi tarjima jarayonini modellashtirishdan iboratdir - tarjima jarayonining aniq modelini qurish, ya’ni ba’zi ilmiy sxemalarga asoslangan bu jarayonni mavjud tomonlarini u yoki bu jihatdan aks ettirish.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san’at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili – alohida

---

1. Fedorov A.V. Osnovi obshey teorii perevoda. – 4-e izd. M.: Vissh. Shk., 1983. – s.10.

2 Gak V.G., Grigorev B.B. Teoriya i praktika perevoda. Frantsucheskii yazik. M.: «Interdialekt», 2003, 9-bet.

«badiiy voqelik» unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli-ifodaviy tildagi badiiy ma’noni boshqa tilning obrazli-ifodaviy zaminiga o‘tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarni badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san’at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an’analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjima jarayonida tarjimon hamma vaqt o‘z ona tilida fikrlaydi, ona tili unga tahlil quroli, sinov mezon bo‘lib xizmat qiladi. Tarjima nusha ko‘chirish kabi bir ish bo‘lmay, ijodiy jarayondir, tarjimon esa boldan holva pishiruvchi mohir yozuvchi bo‘lishi kerak. Tarjimondan asarning umumiy mazmuni va g‘oyasini emas, yozuvchining o‘ziga xos tili va uslubini, uning badiiy mushohada formasini; kitobning tashqi va yuzaki jismi-yu, latofatini emas, balki uning asosiy bisoti: ichki harorati va badiiy xususiyatlarini to‘la-to‘kis aks ettirish talab qilinadi.

Filologiya fanlari doktori, keksa yozuvchi va mohir tarjimon Korney Chukovskiy o‘zining «Iskusstvo perevoda» nomli mashhur asarida quyidagi rus maqolini epigraf qilib olgan edi: «Tarjima xuddi xotinga o‘xshaydi: to‘g‘ri bo‘lsa – chiroyli emas, chiroyli bo‘lsa – to‘g‘ri emas». Bu maqol tarjima san’atining asosiy xususiyatini, uning zaminidagi mavjud ziddiyatni juda to‘g‘ri aks ettirgan. Zero, to‘g‘ri tarjima etishni maqsad qilib qo‘ygan kishi, ko‘proq, xijjalab tarjima qilishga, muddaosi chiroyli tarjima qilishdan iborat bo‘lgan kishi esa ko‘proq o‘zini avtorlashtirishga moyil bo‘ladi. Ham to‘g‘ri va ham chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san’at asari bo‘la oladi, bunday tarjima yaratishning o‘zi esa chinakam san’atdir. Bunday san’at tarjimondan to‘g‘ri tarjima qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va chiroyli tarjima etish doirasida to‘g‘ri tarjima qilish mahoratini egallashni talab etadi.

Tarjimonning vazifasi so‘z va gapning umumiy ma’nosini to‘g‘ri bera bilish emas, balki avtor uslubining ichki energiyasidan kelib chiqadigan eng nozik xususiyatlarni, chunonchi, badiiy ohang, harakat, so‘z va so‘zlar birikmasi zamirida yashirinib yotgan, «oddiy» ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan semantik

hodisani, har bir avtorning o'ziga xos yumor yaratish xususiyatini, uning so'z tanlash, so'z yaratish va so'z biriktirish borasidagi novatorligini, badiiy asarning eng muhim xossasi bo'lgan obrazlikni, har bir tovush, nuqta va vergulning badiiy funksiyasini bilib va to'g'ri aks ettirishdan iborat. Tarjimon uchun ikki tilni mukammal bilish, turmush tajribasi, badiiy mahorat hamda yozuvchining uslubini to'la egallash va buni tarjimada qayta tiklay olish juda zarur. Uslubi buzib tarjima qilingan asarda ham asl nushada mavjud hamma narsa muxayyo bo'ladi: so'zlar ham, gaplar ham, voqealar ham, syujet, kompozitsiya va obrazlar ham. Unda fakat «kichik» bir detal etishmaydi, xolos: u ham bo'lsa asarning bosh qahramoni – yozuvchining o'zi, uning siymosi, ovozi, yurak tepishi – ya'ni uning uslubini, mahorati va san'ati.

Tarjima jarayonida san'atkor son-sanoqsiz amaliy mushkulotlarga duch keladiki, bu hol, tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi tufayli, tarjimondan har bir muammoli holat echimiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Asl nusxaga ijodiy munosabatda bo'lishgina tarjimaning muallif maqsadiga muvofiq tarzda amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo to'la-to'kis adekvatlikka erishish uchun birgina mahorat va ist'edod bilan bo'g'liq ijodkorlikning o'zi kifoya qilmaydi. Ilm-fan tarmoqlarining hozirgi davrdagi rivojlanish darajasi tarjima amaliyoti muammolarining chuqur ilmiy mushohada ishtirokisiz ijobiy hal qilinishini taqozo etmaydi. Demak, asliyat ruhini imkon qadar to'g'ri va to'la aks ettiradigan tarjima matni yaratish uchun tarjimon ham talantli badiiy so'z ustasi, ham ist'edodli tarjimashunos- olim bo'lishi kerak.

### Xulosa

Tarjima – tillar orasidagi vositachilikka yo'naltirilgan o'ziga xos adabiy faoliyat, ya'ni tillarning rang-baranglik xususiyati asosida paydo bo'ladigan madaniyatlararo muloqot to'siqni engib o'tish jarayonidir. Tarjima faoliyati shu qadar serqirradi, usiz hayotimizning biron jabhasini ham tasavvur qila olmaymiz.

Tarjimonlik faoliyati o'zining boy tarixiga ega bo'lib, faqat XX asrga kelib fan sifatida olimlar tomonidan tan olindi va tadqiq qilina boshlandi.

Hozirgi paytda tarjima nazariyasi bir necha bo'limga bo'lib o'rganiladi.

Bunda yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodlardan o'rni bilan foydalaniladi.

## Munozara uchun savollar:

1. Tarjima so‘zining ma’nosi nimani anglatadi?
2. Tarjima nazariyasi nimani o‘rganadi?
3. Tarjima nazariyasining ob’ektini nima tashkil etadi?
4. Tarjima nazariyasining predmeti nima?
5. Tarjimashunoslik fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Qaysi jihatlar tarjimashunoslikni mustaqil fan sifatida tadqiq etishga imkon beradi?
6. Tarjimashunoslik fani qanday fanlar bilan o‘zaro aloqada?
8. Tarjima necha turga bo‘linadi?
9. Tarjima turlarining asosiy farqlarini izohlang.
10. Tarjimon faoliyatining asosini tashkil etuvchi qismlar nimalardan iborat?
11. Tarjima bilan shug‘ullanish uchun lingvistik bilimning o‘zi kifoya qiladimi?

### **Tarjima turlari. Tarjimaning tilshunoslik bilan bog‘liq jihatlari**

#### REJA:

1. Tarjimaning tilshunoslik bilan bog‘liq jihatlari.
2. Tarjima turlari.
3. Tarjimalarning turlanish parametrlari

Tarjima jarayoni, yuqorida bir necha marta qayd etilganidek, bir tildagi matnning ikkinchi bir tilga o‘girishidir. Demak, ana shu jarayonni tilshunoslik nuqtai nazaridan tarjima jarayoni deb atash mumkin. Shuningdek, tarjimani transformatsiyalarning o‘ziga xos bir turi deb atash ham mumkin. Boshqacha aytganda, tarjima nazariyasi tillararo transformatsiyalarga, ya’ni tarjima jarayoniga bo‘lgan ilmiy karashlarning o‘rganilishi, yoritilishi sanalsa, yaratilgan tarjima namunalari uning tadqiqot ob’ekti sifatida xizmat qiladi.

Tarjimashunoslikning 4 asosiy jabhasi (aspektlari) bor:

- 1) tarjimashunoslikka kirish;
- 2) tarjima tarixi;
- 3) tarjima nazariyasi;

4) tarjima tanqidi.

Bu aspektlar tarjimashunoslikning o'ziga xos yo'nalishlari bo'lib, har biri bugungi kunda alohida fan sifatida o'rganiladi. Tarjimashunoslik fan sifatida, L.S.Barxudarov fikriga ko'ra, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) qiyosiy metod (chunki tarjima ikki tilni qiyoslash asosida amalga oshiriladi);
- 2) tarkibiy qismlarga ajratish (componential method) yoki semalarga ajratib tahlil qilish metodi (componential method semes);
- 3) transformatsiya metodi (ikki til turlari va vositalariga xos xususiyatlarni aniqlab, natijalarni tahlil qiluvchi metod). Leksik, grammatik transformatsiyalar);
- 4) statistik tahlil metodi;
- 5) oppozitsiyali (qarama-qarshi qo'yib tahlil qilish) metod (boy-boys, came-did not come).

Ushbu metodlardan tashqari tarjima usullari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) ma'lumotlarni qisqa va lo'nda qilib yozib olish (kerakli joylarini qisqa qayd etish) va ularga tayanib o'g'irish usuli (masalan, og'zaki tarjimada);
- 2) tarjimada asl nusxa materialini ma'noli bo'laklarga ajratib o'g'irish usuli (barcha tarjima turlarida);
- 3) matnni leksik, grammatik transformatsiyalar orqali o'g'irish usullari:
  - a) og'zaki transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli;
  - b) yozma transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli;
  - v) og'zaki-yozma transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli;
  - g) antonimik vositalar orqali o'g'irish usuli;
  - d) sinonimik vositalar orqali o'g'irish usuli;
  - e) transkripsiya orqali o'g'irish usuli;
  - j) transliteratsiya orqali o'g'irish usuli;
  - z) kal'ka orqali o'g'irish usuli;
  - i) kompensatsiya usuli;
  - y) umumlashtirish usuli;
  - k) konkretlashtirish usuli;
  - l) ixchamlashtirish usuli;

Tarjimalarning turlanishi quyidagi parametrlar (o'lchovlar) asosida namoyon bo'ladi:

1. Tarjima qilinayotgan tilning va asl nusxaning o'zaro bog'liqligiga qarab.
2. Tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektning tarjima qilinayotgan matnni muallifiga munosabati va tarjima xarakteriga qarab.
3. Tarjima qilinayotgan matnni tarjimaviy parchalanishiga qarab.
4. Tarjima matni va original matnning taqdimot turiga qarab.
5. Tarjima xarakteri va sifatiga qarab.
6. Tarjima qilinayotgan materialning janriga qarab.
7. Tarjimaning to'liqligi va asl nusxaning ma'nosi uzatilishiga qarab.
8. Tarjimaning asosiy funktsiyalariga (vazifalariga) qarab.
9. Asl nusxaning birlamchiligiga qarab.

Tarjimaning yuqorida bayon etilgan turlarini alohida-alohida tarzda ko'rib chiqamiz.

- 1). Tarjima qilinayotgan tilning va asl nusxaning o'zaro bog'liqligiga qarab.

Tarjimaning bu turi o'z navbatida bir qator kichik guruhlariga ajralib ketadi. Bular quyidagilardan iborat.

Bir til ichidagi tarjima:

- diaxronik tarjima (eski tilda yozilgan tarixiy matnni zamonaviy tilga tarjimasi);
- transpozitsiya (bir janrda yoki funktsional uslubda yozilgan matnni boshqa janr yoki uslubdagi tarjimasi).

Tillararo tarjima:

- binar tarjima (bir jonli tildan boshqa jonli tilga tarjima qilish);
- intersemiotik tarjima (jonli tildan sun'iy tilga tarjima qilish );
- transmutatsiya (bir sun'iy tildan boshqa sun'iy tilga tarjima qilish).

- 2) Tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektning tarjima qilinayotgan matnni muallifiga munosabati va tarjima xarakteriga qarab.

Tarjimaning bu turini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- matn muallifi bo'lmagan kishi tomonidan qilingan tarjima;
- avtotarjima (muallifning o'zi qilgan tarjima);

- avtorlashtirilgan tarjima (muallif ma'qullagan tarjima);
- mashina tarjimasi (kompyuterda qilingan tarjima);
- aralash tarjima (qismi kompyuterda, qismi inson tomonidan qilingan tarjima).

3) Tarjima qilinayotgan matnni tarjimaviy parchalanishiga qarab.

Mazkur tarjima turi o'z navbatida quyidagi kichik guruhlariga ajraladi:

- morfemalar tarjimasi;
- so'zma - so'z tarjima;
- jumlama - jumla tarjima;
- abzatsma – abzats tarjima;
- butun matn tarjimasi.

4) Tarjima matni va original matnning taqdimot turiga qarab.

Tarjimaning bu turini quyidagi bo'limlarga ajratish mumkin:

Yozma tarjima:

- yozma matnning yozma tarjimasi;
- og'zaki matnning yozma tarjimasi.

Og'zaki tarjima:

. og'zaki matnning og'zaki tarjimasi:

- . sinxron tarjima;
- . ketma – ket tarjima;
- . bir tomonlama tarjima;
- . ikki tomonlama tarjima;
- . yozma matnning og'zaki tarjimasi.

5). Tarjima xarakteri va sifatiga qarab.

- . erkin tarjima;
- interpretatsiya;
- adekvat ( mos, to'laqonli ) tarjima;
- aniq tarjima;
- autentik tarjima;
- tasdiqlangan tarjima.

6) Tarjima qilinayotgan materialning janriga qarab.

- ilmiy-texnik tarjima;
  - ijtimoiy-siyosiy tarjima;
  - adabiy tarjima;
  - harbiy tarjima;
  - yuridik (huquqiy) tarjima.
- 7) Tarjimaning to‘liqligi va asl nusxaning ma’nosi uzatilishiga qarab.  
To‘liq tarjima. Noto‘la tarjima:
- qisqartirilgan tarjima;
  - fragmentar (parcha, qism) tarjima;
  - aspekt (nuqtai nazar) tarjima;
  - annotatsion (matnni qisqa mazmuni) tarjima;
  - referativ tarjima (asarning mavzusi, maqsadi, tadqiqot uslublari va olingan natijalar haqida qisqa ma’lumot).
- 8). Tarjimaning asosiy funktsiyalariga (vazifalariga) qarab.
- amaliy tarjima;
  - ishchi tarjima;
  - konsultativ tarjima;
  - nashr etilgan tarjima;
  - o‘quv tarjima;
  - eksperimental tarjima;
  - etalon tarjima.
- 9). Asl nusxaning birlamchiligiga qarab.
- to‘ppa-to‘g‘ri (bevosita) tarjima;
  - bivosita (egri) tarjima;
  - teskari tarjima.

#### Munozara uchun savollar:

1. Tarjimashunoslik fani qanday fanlar bilan o‘zaro aloqada?
2. Tarjima necha turga bo‘linadi?
3. Tarjima turlarining asosiy farqlarini izohlang.
4. Tarjimon faoliyatining asosini tashkil etuvchi qismlar nimalardan iborat?
5. Tarjima bilan shug‘ullanish uchun lingvistik bilimning o‘zi kifoya

qiladimi?

## **Tarjimaning metodik aspektlari. Tarjima birliklari va darajalari**

Reja:

1. Tarjimaning metodik aspektlari.
2. Tarjima birliklari va darajalari.
3. Tarjimada muvofiqlik tushunchasi.
  - 3.1. Shaklan muvofiqlik tushunchasi.
  - 3.2. Mazmunan muvofiqlik tushunchasi.
4. Mukammal (adekvat) tarjima tushunchasi.
5. Dinamik (funktSIONal) teng ma' nolilik tushunchasi

Tarjima to'g'risida asosiy kontseptsiyalar

Tarjima xususida gap borar ekan, bir tildan boshqa tilga alohida so'zlarni, so'z birikmalarini, butun bir asarni tarjima qilish nazarda tutiladi. Tarjima bir-biriga oilaviy jihatdan yaqin tillardan yoki tamoman boshqa- boshqa oilaga mansub bo'lgan tillardan amalga oshiriladi.

Tarjima teng ma' nolilik (muqobillik)ni taqozo qiladi, boshqacha qilib aytganda, amalga oshirilgan tarjima asliyatga mazmun jihatdan muvofiq bo'lishi lozim. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammosi bo'lib kelmoqda.

Hozirgi davrda tarjimaning teng ma' nolilik yoki asliyatga muvofiqlik tushunchasi haqida har xil qarashlar mavjud. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

Shaklan muvofiqlik tushunchasi.

Tarjima tarixi tarjimaning teng ma' nolikka asoslanganligini allaqachon tasdiqlagan. 60-yillargacha tarjimada teng ma' nolilik muammosi haqida bayon qilingan qarashlarni quyidagicha izohlash mumkin: Asliyatdagi hamma narsani so'zma-so'z, harfma-harf o'g'irish shart degan fikr hukmron edi. Iloji boricha asliyat matnini shaklan o'g'irish talab etilardi.

Asliyatning faqat to'g'ridan-to'g'ri qayta yaratib bo'lmaydigan joylarigina o'zgartirilar, almashtirilar yoki bo'lmasa matndan tushirib qoldirilar edi.

Diniy «muqqadas» kitoblarni tarjima qilishga to'g'ri kelganda, ularni

«ollohning soʻzlari» deb aniq va soʻzma-soʻz tarjima qilinadi. Soʻzma-soʻz tarjima kitobxonni tarjima asarini oʻqishdan bezdiradi va unda qiziqish uygʻotmaydi.

Mazmunan muvofiqlik tushunchasi.

Tarjimaning, ushbu yoʻnalishi «hijjalab», yaʼni soʻzma-soʻz tarjima qilish usuliga qarshi boʻlgan edi. Ushbu yoʻnalish tarafdorlari quyidagi ikki talabga rioya qilgan holda tarjimani amalga oshirganlar.

1. Asliyat matnining barcha muhim elementlarini tarjima qilish.
2. Tarjima qilinayotgan til normalariga amal qilgan holda oʻgirish.

Shu ikki holatga amal qilib tarjima qilinsa, mazmunga muvofiqlik, yaʼni tarjima matnining ikki muhim xususiyati – shakl va mazmun muvofiqlikka erishish mumkin, degan xulosa qilinadi.

Mazmunan muvofiqlik kontseptsiyasi tarjima tafakkuri taraqqiyotida olgʻa bosilgan qadam edi. Uning qoidalariga amal qilgan holda amalga oshirilgan tarjimalar ancha mazmunli boʻlib kitobxonlarni oʻziga jalb qilgan edi. Ammo mazmunan muvofiqlik tushunchasini nazariy jihatdan mukammal deb boʻlmaydi. Asl nusxaning mazmuni berilsa-yu, uning ekspressivligi va uslubiy oʻziga xosligi tarjima tilida oʻz aksini topmasa, uni mukammal tarjima deyish mumkinmi? Albatta, yoʻq.

Mukammal (adekvat) tarjima tushunchasi.

Adekvat tarjima tushunchasining mualliflari boʻlgan A.V.Fedorov va Ya.I.Retsker tarjimani aniq hikoya qilib berish deb tushunmaslikka daʼvat etadilar. Tarjima ham, hikoya qilib berish ham, agar ular yuqori saviyada amalga oshirilgan boʻlsa, tarjima qilingan til norma qoidalariga muvofiqdir.

A.V.Fedorov va Ya.I.Retskerning fikricha, mukammal tarjima deganda asl nusxani toʻliq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima – adekvat tarjimadir.

Misol tariqasida quyidagi maqollarning tarjimasiga eʼtibor beraylik: Oʻzbek tilida: - Koʻrpangga qarab oyoq uzat.

Frantsuz tilida: - Il faut tailler la robe selon le drap. Ingliz tilida: - Cut your coat according your cloth.

O‘zbek tilida: - Temirni qizig‘ida bos.

Ingliz tilida: - Strike the while it is hot. Ekv. (make hey white the sun shines)

Frantsuz tilida: - Il faut battre le fer pendant qu‘il est chaud.

O‘zbek tilida: - Baliq boshidan sasiydi. Rus tilida: - Riba tuxnet s golovi.

Ingliz tilida: - Fish begins to stink at the head.

Frantsuz tilida: - Le poisson commence toujours à sentir par la tête.

Dinamik (funktSIONAL) teng ma‘nolilik tushunchasi

Tarjimada funktsional teng ma‘nolilik tushunchasi amerikalik olim Yudnin Nayda tomonidan kiritilgan. Odatda tarjimada teng ma‘nolilik asliyat matnini tarjima bilan qiyoslash orqali aniqlanadi.

Nayda asl nusxa matnini o‘qigan kishi bilan tarjima matnini o‘qigan kishining nechog‘lik ta‘sirlanganini taqqoslashni taklif etadi. Agar o‘sha ta‘sirlanishlar o‘zlarining umumiy sifatlari bilan bir-biriga muqobil bo‘lsa, o‘shanda matn tarjimasi asliyatga muqobil sanaladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, ta‘sirlanishlar muqobilligi deganda etnolingvistik va milliy madaniy tafovutlar tufayli erishib bo‘lmaydigan aynanlik emas, balki o‘xshashlik nazarda tutiladi. Ushbu kontsepsiya tushunchasi tarjima muqobilligi haqidagi barcha nuqtai nazarlardan tubdan farq qiladi.

Tarjima muqobilligi boshqa barcha tushunchalar doirasida asl nusxa va tarjima matnini qiyoslash yo‘li bilan aniqlansa, (funktSIONAL) muqobillik o‘sha matnlarni qabul qiluvchilarning tildan tashqari ta‘sirlanishlarini taqqoslash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tarjima nazariyasi – amaliy fan bo‘lib, uning vazifasi amaliyotda tadbiiq etiladigan tarjima muqobilligining ayrim mezonlarini, unga erishish yo‘llarini ko‘rsatishdan iboratdir.

FunktSIONAL muqobillik tushunchasining afzalligi shundaki, u tarjima muqobilligini istagan o‘zaro fikr almashuv nuqtai nazaridan aniqlaydi.

Ma‘ruza matni bo‘yicha savollar.

1. «Kontsepsiya» nima?
2. Shaklan muvofiqlik tushunchasi to‘g‘risida fikringizni bayon eting.
3. Mazmunan muvofiqlik deganda nimani tushunasiz?

4. Mukammal (adekvat) tarjima deganda nimani tushunasiz?
5. Dinamik (funktSIONal) teng ma'noilik tushunchasi to'g'risida fikringizni bayon eting.

## **TARJIMANING LEKSIK-SEMANTIK MUAMMOLARI**

Reja:

1. Leksik birliklarni tarjima qilish muammolari.
2. Tarjima jarayonida leksik muvofiqlik turlari.
3. Leksik transformatsiya turlari.
4. Tarjimada transformatsiyaning struktural va leksik-semantik jihatdan shartlanishi

**Ta'limiy maqsad:** talabalarni tarjima jarayonidagi leksik birliklar va ularning muvofiq muqobillarini topish usullari bilan tanishtirish.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Leksikologiya, leksik birlik, leksik muvofiqlik, to'liq muvofiqlik, qisman muvofiqlik, umuman mos kelmaslik, antonim tarjima, sinonimik qator, leksik transformatsiya.

### **Asosiy ma'lumotlar**

Tilning semantik xususiyatlari, ularning qo'llanishi, bosh qa so'zlar bilan birika olish va bog'lanish imkoniyatlari, tilning leksik tizimida «joylashish» o'rni turli tillarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, doim ham mos kelavermaydi. Ikki til orasidagi semantik tafovutning hamma holatlarini birdek qamrab olish mumkin bo'lmaganligi sababli, biz uni tipik xususiyatlariga qarab o'rganamiz.

Frantsuz va o'zbek tillaridagi leksik muvofiqlik turlari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1. To'liq leksik muvofiqlik.
2. Qisman leksik muvofiqlik.
3. Umuman mos kelmaslik.
4. To'liq leksik muvofiqlik.

To'liqleksik muvofiqlik – frantsuz va o'zbek tillarida kamdan-kam uchraydigan holat. Odatda, ular quyidagi leksik guruhlariga tegishli bo'ladi:

- 1) atoqli ot va geografik joy nomlari;
- 2) ilmiy va texnik atamalar;
- 3) oy, hafta, kun va sonlar.

Qisman leksik muvofiqlik. Tarjima amaliyotida leksik birliklarning qisman mosligi ko'p kuzatiladi. Qisman moslik manba matndagi so'zning tarjima tilida bir qancha muvofiqliklari mavjud bo'lganda ro'y beradi. Uning sabablari quyidagilar:

1) tildagi ko'plab so'zlar polisemantik (ya'ni ko'p ma'noli) bo'lib, bir tildagi so'z ma'nosi bilan boshqa tildagi so'z ma'nosi bir-biriga to'lig'icha mos kelmaydi. Masalan: house (uy, boshpana, parlament va h. k), head (bosh, kalla, rahbar, boshliq va h. k). Shuning uchun so'zlarni tarjima qilish jarayonida ularning ma'nolari kontekst ichida ochib beriladi;

2) so'zlarning sinonimik qator bo'yicha tanlanishi va izohlanishi. Sinonimlardan foydalanganda ularning semantik belgilari mohiyatini aniqlash zarur. Shunday qilinganda sinonimik qator uzvlarining ma'nolari, leksik va stilistik ma'nolaridagi farqlar, sinonimik qatorlar ayrim komponentlarining birikish imkoniyatlari hisobga olinadi: dismiss, discharge – ishdan bo'shatmoq (kitobiy tilda); sack, are – haydamoq (og'zaki nutqda);

3) har bir so'z o'zining nominativ ma'nosiga ega. Turli tillarda nominativ birliklar bir xil ma'no anglatishi mumkin. Chunki har bir tilning nominativ birligida shu tilga xos «voqelikni turli qismlarga bo'lib ifodalashning turli tamoyillari» mavjud.

Belgilar turlicha bo'lishiga qaramay, tarjima qilinayotganda hisobga olinishi kerak bo'lgan miqdorni tashkil qiladigan ekvivalentlik aynan bir xil ma'noga ega emas: hot milk with skin on it – qaymoq tutgan issiq sut.

Umuman mos kelmaslik. Xos so'zlarni tarjima qilishda lug'aviy birlik larning o'zaro leksik muvofiq kelmasligi kuzatiladi.

Quyidagi guruhga kiruvchi so'zlarni leksik muqobili mavjud bo'lmagan turga kiritish mumkin: 1) kundalik hayotda ishlatiladigan xos so'zlar (do'ppi, chopon, beshik); 2) atoqli otlar va geografik joy nomlari; 3) tabrik va qutlovlar;

4) gazeta va jurnallar nomlari; 5) og'irlik va uzunlik o'lchov birliklari va sh. k.

Ilmiy adabiyotlarda bir millatga xos narsa, buyum, voqea-hodisalarning yoki, umuman, xorijiy soʻzlarning oʻzga tillarga koʻchib yurishi birgina adabiy aloqalarning, xususan, tarjimaning rivojlanishiga bogʻliq emas. Bu xalqaro aloqalarning, siyosiy-tarixiy, madaniy voqea-hodisalarning oʻzga xalqlar dunyoqarashiga taʼsiri bilan ham bogʻliq. Aynan shu tufayli, masalan, rus tili orqali oʻzbek tiliga siyosat, din, iqtisod va ilm-fanga oid koʻplab xorijiy soʻzlar singib ketgan. Bu oʻrinda xorijiy adabiyotlar tarjimasida orqali oʻzbek kitobxonlariga, koʻpincha, tushunarli boʻlmagan koʻplab tushunchalarni ifodalovchi xos soʻzlar kirib kelayotganini ham alohida taʼkidlash joiz.

Xos soʻzlar tarjimasida, odatda, ikki xil qiyinchilikka duch kelinadi: 1) asliyat tiliga xos soʻzlarga mos ekvivalentning mavjud emasligi; 2) asliyat tilidagi xos soʻzlar, mazkur xalqqa doir milliy, tarixiy koloritni tarjima qilinayotgan tilda toʻlaligicha ifodalashning murakkabligi.

Shu nuqtai nazardan, xos soʻzlar tarjimasida quyidagi holatlar koʻzga tashlanadi:

1) baynalminal xarakterdagi xos soʻzlar. Tarjimada ular oʻz shaklida birlashishi mumkin;

2) faqat maʼlum bir hudud yoki millatga xos voqea-hodisalar. Ular shu millat turmush tarziga xos tushunchalarnigina ifodalaydi. Agar tarjimon bunday oʻziga xoslikni tushunmay, uni boshqa maʼno ifodalovchi soʻz bilan oʻgirib qoʻysa, asarning milliy koloriti, soʻz ifodalagan maʼnoning oʻziga xosligiga putur etkazgan boʻladi. Bunday hollarda xos soʻzlar xorijiy tildagi shaklda berilib, izohi havola (snoska)da beriladi.

3. Ayrim xos soʻzlar matn ichida oʻzicha qoldirilib, kontekstning ichida izohi keltiriladi.

Shunday qilib, xos soʻzlarning tarjimasida quyidagi usullar koʻproq kuzatiladi:

- 1) transkripsiya;
- 2) transliteratsiya;
- 3) tarjima orqali yangi soʻz – neologizm hosil qilish;
- 4) soʻzma-soʻz (kalka) tarjima qilish;
- 5) maʼnosi yaqinlashtirilgan soʻz bilan oʻgirish;
- 6) xos soʻzni izohlab bayon qilish;

7) kontekstual muqobil bilan almashtirish.

4.4. Tarjimada transformatsiyaning struktural va leksik-semantik jihatdan shartlanishi.

Tarjima qilinayotgan tekst yoki nutqning qandayligidan qat'iy nazar, bir tildan boshqasiga o'girilayotgan har qanday ish, ya'ni har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi – asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni o'sha asar teksti (yoki og'zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to'la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish – muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to'la ifodalash demakdir. Tarjima - qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, nazira, tatabbu', taqlid, har xil «adaptatsiya»lardan o'zining xuddi ana shu aniqligi va to'laligi bilan farq qiladi. Adaptatsiya – soddalashtirish; qiyin tekstlarni soddalashtirib berish demakdir. Bu so'zga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da quyidagicha ta'rif beriladi: “Adaptatsiya” – chet tillarni o'rganuvchilar uchun asar tekstini soddalashtirib berish va shu tariqa soddalashtirilgan tekst.

Nazira –Sharq adabiyotidagi an'anaviy uslublardan biri; o'tgan yoki zamondosh adib asariga o'xshatma tariqasida yozilgan asar. Nazirani klassik shoirlar tatabbu' deb ham yuritishgan. Navoiy o'z “Xamsa”sini Nizomiy “Panj ganji”ga tatabbu' deb ataydi. Iste'dodli nazirago'y adiblar ma'lum bir asarga ijodiy yondoshib, shu asar mavzuini boyitish va rivojlantirish, yangi problema va g'oyaviy motivlarni ko'tarish, yangi obraz va xarakterlar yaratishni maqsad qilgan.

Tatabbu, nazira (arabcha taqlid qilib o'rganish) – o'tmish yoki zamondosh yozuvchi asariga o'xshatma javob tariqasida yozilgan original asar. Tatabbu bog'lash turkiy va forsiy adabiyotlar tarixida qadimiy an'anaga ega bo'lgan. O'zbek adabiyoti tarixida Xo'jandiyning “Latofatnoma” (14-asr oxiri), Amiriyning “Daxnoma”, Said Ahmad ibn Mironshohning “Taashshuqnoma” (15-asr) asarlari Xorazmiyning “Muhabbatnoma” siga tatabbu sifatida maydonga kelgan. Tatabbu bog'lashning etuk namunasi Navoiyning hamsanavislik faoliyatida namoyon bo'ldi.

Taqlid (arabcha ko'chirish, nusxa olish, o'xshatish, an'ana) (adabiyot tarixida)

– o'tmish feodal-saroy adabiyotida g'oyaviy qashshoqlik va shaklbozlikning asosiy ko'rinishi. Payravchilik, payrav adabiyoti deb ham yuritiladi. Saroy taqlidchi shoirlari o'z salafklarining yoki, ko'pincha, mansabdor martabali shoirlarning she'riyatiga ergashib, mazmun va badiiy tasvir vositalarini aynan takrorlab ijod etganlar. Saroy adabiyotiga xos taqlidchilik 19-asrning 1-yarmida Qo'qon xoni Amir Umarxon (Amiriy) saroyida, Xorazm xoni Muhammad Rahim II (Firuz) saroyida avj oldi.

Asarni o'z tiliga o'girish maqsadida qo'lga olgan tarjimonning asl nushani anglashi uch bosqichda sodir bo'ladi:

birinchi bosqichda matn so'zma-so'z, ya'ni filologik tarzda idrok qilinadi. Bu bosqichda bir qancha tarjima qusurlari ro'y berishi mumkin: boshqa tildagi bir so'zni xuddi shunday jaranglaydigan bo'lak so'z bilan qorishtirish; yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish; kontekstni noto'g'ri o'zlashtirish, ayrim xos so'zlarning ma'nosiga tushunib etmaslik; muallifning muddaosini anglamaslik; ikkinchi bosqichda – uslubiy omillarga e'tibor qilinadi. Tekstni to'g'ri o'qigan kitobxon lisoniy ifodaning uslubiy omillarini ham angelaydi, ya'ni kayfiyat, piching yoki fojaviy ma'no, oxangdorlik yoxud voqeani quruq bayon qilishga moyillik va hokazo. Rosmana kitobxon barcha bu sifatlarni anglab etishi shart emas, tarjimon esa avtor qanday qilib tegishli natijaga erishayotganini aniqlashi, tadqiq etishi lozim. Tarjima oddiy o'qishga nisbatan kitobga ancha yuqori talab bilan ongli munosabatda bo'lishi talab qilinadi;

uchinchi bosqich – ayrim til vositalarining uslubiy va ma'no-mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, avtorning g'oyaviy niyatini anglashga o'tadi. Tekstni anglashning bu yo'li ancha murakkab va og'ir – muallif yaratgan badiiy voqelikni to'laligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lmog'i darkor. Asl nushani to'laligicha qamrab olish, idrok etish uchun, aytaylik, rejissyorga qanday tassavvur quvvati talab etilsa, tarjimonda ham ana shunday tasavvur qobiliyati bo'lishi zarur.

San'atkor-tarjimon bilan noqobil, noshud tarjimon o'rtasidagi farq shundan iboratki, birinchisi asl nusxa bilan tarjima masofasi orasida tekst ortidagi xarakterlar, vaziyatlar, g'oyalarning ma'no-mazmunini chaqadi, ikkinchisi bo'lsa faqat kitob matnining o'zinigina ko'r-ko'rona qabul qiladi va fakat so'zlarni o'giradi, xolos.

Tarjima jarayonida ikki holat ro'y beradi. Birinchidan, tarjima qilish uchun dastavval o'girilayotgan narsani tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu esa ona tilida ro'y beradi. Boshqacha aytganda, bunda tarjima unsurlari sodir bo'ladi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topib asosiy sintaktik tuzilmani o'zgartirish lozim.

Asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalarini asosida o'zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish transformatsiya deyiladi (lot. *transformatio* – qayta tuzmoq). Tillararo (tarjimaviy) transformatsiyalar uch turdan iborat: leksik transformatsiyalar, grammatik transformatsiyalar, leksik-grammatik (sintaktik) transformatsiyalar.

Leksik transformatsiyalarga quyidagi tarjimaviy usullar kiradi: transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash va leksik-semantik o'zgartirishlar (konkretlashtirish, generalizatsiyalash).

Transkripsiya (lot. *transcriptio*–ko'chirib yozuv)-bu o'zga til so'zi tarkibidagi tovushni ona tili alifbosi asosida yozish.

Transliteratsiya (lot.*trans*-orqali + *litera*-harf) - bu bir til alifbosiga oid matnni boshqa bir til alifbosidan foydalanib, yozuvda aniq aks ettirish. Bunda o'z tilida talaffuz qilinmaydigan yoki o'zicha talaffuz qilinadigan tovushning harfi o'zicha saqlanadi.

Kalkalash – bu o'zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o'z til unsurlaridan foydalanib, yangi so'z yoki frazeologik birliklar hosil qilish.

Kalka (fran. *salque* – kopiya, taqlid) – o'zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z yoki boshqa bir til birligi. Kalkalar leksik, semantik, frazeologik bo'lishi mumkin. Leksik kalka – bu o'zga til

lug'aviy birligidan qismma - qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z; lug'aviy kalka. Masalan, "ko'rsatkich" so'zi rus tilidagi "ukazatel", qo'lyozma

so‘zi rus tilidagi “rukopis”, “temir yo‘l” so‘zi rus tilidagi “jeleznaya doroga”, “dunyoqarash” so‘zi rus tilidagi “mirovozzrenie”, “ishchi kuchi” so‘zi rus tilidagi “rabochaya sila” so‘zini kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan so‘zlardir. Semantik kalka – bu o‘zga tilga oid so‘z bildiradigan ma’noni o‘zlashtirish natijasida o‘z tildagi so‘zga shu ma’noning berilishi. Masalan, yo‘ldosh so‘zining Er yo‘ldoshi birikmasidagi ma’nosi, g‘ildirak so‘zining tarix g‘ildiragi birikmasidagi ma’nosi, oqim so‘zining siyosiy oqim birikuvidagi ma’nosi semantik kalka natijasida hosil bo‘lgan ma’nolardir. Frazologik kalka – bu o‘zga til frazeologik birligidan qisimma-qisim nusxa olish yo‘li bilan hosil qilingan frazeologik birlik. Masalan, barmoq orasidan qaramoq frazeologizmi ruscha smotret skvoz paltsi frazeologizmini kalkalash natijasida hosil bo‘lgan.

Generalizatsiya — bu tarjima Qilinayotgan birlikning ma’nosi tarjimada kengroq berilishi. Tarjima jarayonida ma’lum bir ma’noga mos keladigan ma’noni topish.

Grammatik transformatsiyalar-bu tarjimada tarjima qilinayotgan tilning normalariga mos tushgan holda gapning strukturasi o‘zgartirish. Grammatik transformatsiyalarga quyidagi tarjimaviy usullar kiradi: so‘zma-so‘z tarjima, gaplarning bo‘linishi, gaplarning qo‘shilishi, grammatik o‘zgartirishlar (so‘z tartibini o‘zgartirish, so‘z turkumlarini almashtirish).

Additsiya -sodda gap tarkibining uyushiq bo‘laklar bilan kengaytirilishi.

Ad’yunktsiya—sintaktik birlik tarkibiga shu tarkib mazmuniga muvofiq keladigan yangi so‘zning kiritilishi.

Nomlashish - predikativ sintagmaning nomlovchi sintagmaning nomlovchi sintagmaga aylantirilishi.

Permutatsiya – gap bo‘laklarining bir xil sintaktik tuzilishda o‘rin almashtirishi.

Substitutsiya - sintaktik tuzilma tarkibidagi bir so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirish.

Leksik-grammatik transformatsiyalarga quyidagi tarjimaviy usullar kiradi: antonimik tarjima, eksplikatsiya (tasviriy tarjima ), kompensatsiya.

Antonimik tarjima - bu asliyatdagi ma’noni qandaydir qarama- qarshi ma’noga ega bo‘lgan tushuncha bilan almashtirish hamda tarjimada ifodani ma’no mohiyatiga putur etkazmay ifodalash.

Tasviriy tarjima – bu ma’noni tasvirlash yo‘li bilan ochib berish.

Kompensatsiya (yo‘qotganni to‘ldirish) – bu asliyatdagi tarjima qilib bo‘lmaydigan elementni asliyatdagi g‘oyaviy-badiiy xarakterga mos ravishda elementlar bilan almashtirishdir.

### Xulosa

Tarjimaning leksik muammolarini o‘rganishning muhim jihati bo‘lajak tarjimonlarni puxta tayyorlash, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini bilish, ko‘nikmalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tarjima jarayonida vujudga keladigan leksik muammolar, ularning to‘liq, qisman va umuman mos kelmaslik darajalarini o‘rganib chiqish, to‘liq leksik muvofiqsizlikda qo‘llaniladigan metodlarni to‘g‘ri qo‘llay bilish tarjima sifatining oshishiga ko‘maklashadi. Bu borada muqobilsiz leksika, ya’ni xos so‘zlar tarjimasi masalasini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiq.

### Munozara uchun savollar:

1. Tarjima jarayonida paydo bo‘ladigan umumiy muammolar haqida so‘zlab bering.
2. Tarjima jarayonida qanday leksik muammolar kuzatiladi?
3. Nima sababdan aslyat va tarjima tillari orasida leksik muammolar paydo bo‘lishini izohlang.
4. Leksik transformatsiyaning turlari deganda nimani tushunasiz?
5. Qaysi tarjima turlarida leksik muammo ko‘p uchraydi?
6. Tarjimada mavjud bo‘lgan leksik muammolar qanday hal etiladi?

### **Terminlar tarjimasi. Qisqartma otlar tarjimasi**

#### Reja:

1. Termin tushunchasining ta’rifi.
2. Terminlardagi har xilliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari
3. Abbreviaturalarning qo‘llanishiga doir.
4. Abbreviaturalarni yuzaga keltiruvchi eng asosiy omillar.

Jamiyat rivojlanar ekan, til va nutq ham rivojlanib boradi. Jumladan, har bir jamiyatning taraqqiyotiga qarab, til tizimiga yangi soʻzlar, terminlar kirib keladi va muayyan tilning lugʻat tarkibini boyitadi.

Termin nima? Termin (lat. Terminus — chek, chegara, belgisi) fan texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ilatilishi doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasidir. Terminlar bir maʼnoda boʻlishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega boʻlmasligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: gap, ega, ot, son, tovush, geometriyaga oid terminlar: aylana, uchburchak...; fizikaga oid terminlar: jism, bosim, harakat, maydon; kimyoga oid terminlar: suv, kumush, oltin, tuzlar va boshqalar.

Maʼlumki, har bir davr lugʻaviy tarkibining oʻziga yarasha soʻz, atama, ibora va maʼlum maʼnoda terminlari boʻladi. Bu terminlar oʻz navbatida boshqa xalqlar tillariga kirib borishi mumkin. Masalan: a) morfologiya, sintaksis, fonetika, grammatika, leksikologiya, metonimiya, metafora, sinekdoxa, epitet, imperializm, feodalizm, sotsializm, fiziologiya, fonologiya, psixologiya va sh.k. kabi terminlar chet tillardan oʻzbek tiliga XX asr boshlarida kirib kelgan ilmiy terminlardir.

Shu bilan bir qatorda oʻzbek tiliga baʼzi terminlardan tashqari XX asrda yangi atamalar ham kirib keldi. Masalan: partiya, rayon, oblast, depo, tramvay, trolleybus, taksi, kafe, restoran, inspektor, bufet, sekretar, pedagogika, institut, fakultet, auditoriya, lektsiya, konsultatsiya, prof/essor, dotsent; ruchka, parta, student, laboratoriya, konstitutsiya, doktorantura, opera, direktor, brigada, dekan, buxgalteriya h.k.

Bu davrda bir vaqtda oʻzbek tilining oʻzida ham neologizmlar — yangi soʻzlar paydo boʻla boshladi. Masalan: rais, shoʻro, muoinn, tabelchi, mudir, muxbir, muxarririyat, muxarrir kabi bir nechta soʻzlarning kelib chiqishi sobiq shoʻrolar tuzumi davriga toʻgʻri keladi. Buni davr talabi bilan bogʻlashimiz kerak.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish yoʻlidan dadil bormokda. Endi biz sobiq shoʻrolar tuzumidan voz kechib, yangi jamiyat kurish islohotlarini amalga oshirmokdamiz.

Yuqorida aytilganidek, yangi jamiyat qurilar ekan, yangi soʻz, atama va terminlar kirib kelaveradi. Shu bilan birga, baʼzilari davr taqozosi bilan eskiradi. Atamalarning kirib kelishini jamiyat taraqqiyoti bilan boglash mumkin. Masalan: rayon, oblast, sovet, bilet, marshrut kabi bir nechta atamalar hozirgi davrda eskirgan soʻzlardir. Baʼzi atamalarning esa oʻzbek tilida muqobili maʼlum maqsadlarga koʻra ishlatilyapti. Masalan: inspektor-nazoratchi, sekretar-kotib(kotiba), leksiya-maʼruza, student-talaba, ministr-vazir, avtovokzal-shohbekat, komitet-koʻmita, tema-mavzu, profsoyuz-kasaba uyushma, buxgalter-hisobchi, kassir-xazinachi, dispetcher-taʼminotchi, shofyor-haydovchi kabilar. Bunday nomlanishni variantlashish deb aytish mumkin. Oʻz navbatida baʼzi atamalar aloqa vositasi sifatida, ogʻzaki va yozma nutqimizda oʻz holicha saqlanib qolishi ham mumkin. Masalan, restoran, bufet, partiya, institut, fakultet, auditoriya, konsultatsiya, professor, dotsent, laboratoriya, respublika, opera, direktor, dekan kabi koʻplab atamalar shular jumlasidandir. Chunki bu atamalar xalqaro atamalar boʻlib, ular boshqa atamalardan yashovchanligi bilan ajralib turadi.

Shu oʻrinda shuni takidlash lozimki, keyingi yillarda termin soʻzi oʻrnida koʻpincha atama soʻzi qoʻlanilyapti. Bunday qoʻllashni toʻgʻri deb boʻlmaydi. Chunki atama soʻzining maʼnosi nisbatan keng boʻlib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir sohada qoʻllanuvchi soʻzdir. Demak, termin tushunchasi atama tushunchasining tor doirasi boʻlib, maʼlum sohalargagina aloqadordir.

Morfologiya, leksikologiya, sintaksis, fonetika, grammatika, metonimiya, metafora, sinekdoxa, epitet, imperializm, feodalizm, sotsializm, fiziologiya, fonologiya, psixologiya kabi ilmiy terminlar ham huddi shunday hususiyatga ega.

Yuqorida koʻrsatilgan ilmiy terminlardan tashqari baʼzi lingvistik terminlar borki, ular sof oʻzbekona terminlarga aylandi: ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol, sifat, son, kelishik, olmosh, feʼl, ot kabilar.

Biz toʻxtalib oʻtgan yuqoridagi terminlar toʻgʻrisidagi taʼlimot tilshunoslikning terminologiya sohasida oʻrganiladi. Terminologiya bu lotincha termin + logos — soʻz, taʼlimot degan maʼnoni bildirib, biror ilm, kasb va boshqa sohaga oid

terminlar majmuidir. Masalan, grammatik terminologiya, san'at terminologiyasi va boshqalar.

Darhaqiqat, hozir resiublikamizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat qurish uchun yangi islohotlar o'rnatilayotgan bir davrda tilimizga yangi so'z va atamalar kirib kelishi tabiiy holdir. Ayniqsa hozirgi davrda chet davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy, sport, savdo-sotiq aloqalari rivojlanmoqda. Bu aloqalar natijasida quyidagi so'z, atama va terminlar kirib kela boshladi: magistr, bakalavr, biznes, fermer, reyting, test, makler, repetitor, menejment, departament, grant, marketing, servis, ofis, birja, firma, litsey, kollej, aktsioner, auksion kabi atamalar hozirgi kunda og'zaki va yozma nutqda qo'llanilib, lug'at boyligimizni oshirmoqda. Bularni sohalar bo'yicha o'rganish mumkin.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, davlatlar, xalqlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, savdo-sotiq aloqalari rivojlanar ekan, o'z navbatida bizning o'zbek tilimizdan ham boshqa tillarga yangi so'z va atamaning kirib borishi kuzatilmokda. Bugungi kunda o'zbek kurashi musabaqalari butun jahonda o'tkaziladigan sport musobaqalari turiga kiritilayotgan ekan, bu shuni ko'rsatayaptiki, o'zbekcha so'z va atamalarning boshqa xalqlar tillariga kirib borishi shubhasiz. Misol uchun: kurash, chala, yonbosh kabi so'zlar boshqa millatlarning lug'at boyligiga aylanadi. Shunga o'xshash mahalla, choyxona kabi so'zlarimiz ham boshqa tillarga to'g'ridan-to'g'ri tarjimasiz kirib borayotganligi sir emas (rus tili nazarda tutilmoqda). O'zbek tilida ba'zi atamalar tarjimasi, ya'ni to'liq kalkalash natijasida ham yangi so'zlarning paydo bo'layotganligi ko'rinmoqda. Misol uchun tadbirkor, ishrkat, hissador, mahkama, devonxona kabilar.

Biz yuqorida terminlarning ilmiyligiga to'xtalgan edik. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilib shuni aytmoqchimizki, terminlar sohalarga qarab atamalarga ham aylanishi mumkin. Misol uchun: tibbiyot terminlari: urolog, nevropatolog, terapiya, kardiologiya, travmatologiya, xirurgiya, ginekologiya kabilar xalq orasida bugungi kunda atama sifatida yashamoqda. Chunki ba'zi terminlar borki, ular atamalashish xususiyatiga ega. Qiyoslang: iqtisod terminlari: biznes, bank, moliya,

bozor, qimmatbaho qog'ozlar, birja, soliq, ulgurji narx, ko'tara savdo. Siyosiy terminlar: demokratiya, imperializm, diplomatiya, partiya, saylov, reforma kabi. Demak, terminning ba'zilari atamalashish xususiyatiga ega. Masalan: «Qo'rqqanidan yuragi tez-tez ura boshladi» (so'zlashuvdan) deganimizda, «yurak» so'zi oddiy kundalik hayotimizda ishlatiladigan so'zga aylanadi, ya'ni atamaga. «Yurak» so'ziga tibbiyot nuqtai nazaridan yondoshsak, u tibbiy termindir.

Qiyoslang: Ilmiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, daryo, suv so'zlari geografik termin hisoblanadi: Daryodagi suv loyqalanib oqar edi (Televideniedan). Gapdagi daryo, suv so'zlari esa atamalashmokka.

Yuqorida keltirilgan misollarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, atamalarning ba'zilari terminlashish xususiyatiga ega.

Xulosa qilib aytganda, har bir jamiyatning o'z termin, atama va so'zlari bo'lib, ular davr o'zgarishi, jamiyat o'zgarishi bilan yangilanib boradi, ba'zilari eskirishi mumkin, ba'zilarini yangi muqobillari bilan almashtirish ham mumkin. Nima bo'lganda ham tildagi bunday o'zgarishlar ma'lum bir tilning taraqqiyotini belgilaydi.

«Davlat tili haqida»gi qonunning qabul qilinishi, ayniqsa, 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan mustaqilligimiz o'zbek tilining mavqeini mustahkamlashga keng imkoniyatlar yaratdi. «Davlat tili haqida»gi qonunda o'zbek tilining muhim sohasi bo'lgan atamashunoslikka ham e'tibor qaratilgan.

Ushbu qonunning 7-moddasida shunday fikrlar mavjud:

“Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof etgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi”.

Bu bandning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega edi, chunki, terminlarni ko'rib chiqishga bo'lgan urinish, intilish so'nggi yillarda juda avj olgan edi. Bu urinishlar natijasida atamashunoslikda quyidagi holat vujudga keldi, ya'ni «ruslashtirish» siyosatiga qarshi kurash boshlandi. Natijada rus tilidan va bu til orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar shoshilinch ravishda o'zbekchalashtirila boshladi. Bu ish quyidagi ijobiy natijalarni berdi:

1. Ko‘plab o‘zbekcha so‘z va terminlar o‘z o‘rnida qo‘llanila boshladi. Masalan: soyuz — uyushma, sovet — kengash, upravlenie — boshqaruv, ideologiya — mafkura, plan — reja, tekst — matn, tema — mavzu va hokazo.

2. Mustaqillik davri atamaları yuzaga keldi. Masalan: Istiqlol, milliy mafkura, milliy dastur, istiqlool g‘oyasi, akademik litsey kabi va boshqalar.

Terminlarning shoshilinch ravishda tarjima qilinishi natijasida quyidagi noqulayliklar ham yuzaga keldi:

1. O‘z lug‘at boyligimizga aylanib ketgan o‘zlashma so‘zlar o‘rniga o‘zbekcha tarjimalar berildi. Masalan: oliygoh — universitet, laboratoriya — tajribaxona, preyskurant — narxnoma, posilka - jo‘natma, instruktor -yo‘riqchi.

2. Almashtirilayotgan so‘zlar o‘rniga yana chet tillardan so‘zlar olindi. Masalan: ofitser - zobit, ro‘znoma — gazeta, majalla — jurnal, tayyora — samolyot.

3. Bir tushuncha bir necha so‘z bilan ifodalana boshladi, natijada sinonim terminlar yuzaga keldi. Masalan: jurnal — majalla, jarida, oybitik, oynoma. Samolyot — uchoq, tayyora.

Bu shoshma-shosharlik natijasida o‘zbekchalashtirilgan so‘zlar ma’lum vaqt matbuotda ishlatilib turgan bo‘lsa-da, ular tilimizga singib ketmadi, xalq tiliga o‘zlashmadi. Natijada yana avvaldan qo‘llanib kelgan so‘zlarga qaytildi.

Bir tushunchani anglatayotgan termin «o‘zbekchalashtirilishi» natijasida qator chet so‘zlar bilan atala boshlaganiga misol tariqasida jurnal so‘zini olishimiz mumkin. Aslida lotincha bo‘lgan bu so‘z frantsuz tiliga o‘zlashib, undan rus tiliga o‘tgan. O‘zbek tiliga rus tili orqali o‘zlashgan bu so‘z hamma uchun tushunarli edi. Uning o‘rniga jarida, majalla kabi yana tilimizga yot so‘zlarniig qabul qilinishi yoki «oynoma», «oybitik» kabi jurnalning xususiyatini aks ettira olmaydigan so‘zlar bilan almashtirilishi hech qanday natija bermadi.

«Aeroport» so‘zining «taiyoragoh» deb o‘zgartirilishi aero — bilan boshlanuvchi 20 ga yaqin atamalarni qanday ahvolga solib qo‘yganini tasavvur qilish mumkin. Masalan: aerodinamika, aerostat va hokazo.

Amalda qo‘llanilayotgan terminlar o‘rniga o‘ylab topilgan yoki boshqa tildan zo‘raki kiritilgan muqobillarga amaliy-nutqiy ehtiyoj yo‘qligi tufayli ular yana

unutila boshladi. Ayrim soʻzlarning qabul qilingan muqobillari shu soʻzning tub mohiyatini toʻla ochib berolmaydi, baʼzan esa mutlaqo boshqa maʼnoni anglatadi. Masalan: protsedura — tartib, taomil deb olingan. Unda «vodnaya protsedura»ni nima deb tarjima qilamiz? Oborot — oʻram deb olinsa, «tovar oborot»ni nima deymiz? Bunday holatda sinonim, omonim terminlar koʻpaya boshlamaydimi?

Keyingi paytda ayrim terminlar turlicha qoʻllanilmoqda. Bu hol ayrim maktab darsliklariga ham kirib bordi. Masalan: sinonim, omonim, antonim soʻzlarining oʻrniga hozirda maʼnodosh, shakldosh, zid maʼnoli soʻzlari qoʻllanilmoqda. Bir tushunchaning turli darslikda turlicha atalishi oʻquvchilarni chalkashtirishdan boshqa hech kanday natija bermaydi. Shuningdek, «undosh soʻzlar», «ixcham gaplar» kabi yangi ixtiro qilingan soʻzlar ham yuqoridagi holatning takroridir.

Terminlarni qoʻllashdagi bunday noaniqliklar tilimizda chalkashlikni yuzaga keltiradi.

Aslida, termin soʻzning tub mohiyatini, leksik maʼnosini aks ettirishi kerak. Shunday ekan, ularni qoʻllashda, muqobilini tanlashda shu xususiyatni asos qilib olishimiz kerak.

Terminlardagi har xilliklar haqida soʻz yuritganda avvalo hozir parallel holda qoʻllanilayotgan «termin» va «atama» soʻzlariga eʼtiborni qaratish lozim.

«Atama» soʻzi barcha nomlarning (joy nomlari) atalishini bildiradi. «Termin» esa fan-texnika, kasb-hunarga oid, yaʼni maʼlum bir sohaga tegishli tushunchani ifodalashga xizmat qiladi. Fikrimizcha, bu ikki soʻzni sinonim tarzida parallel qoʻllashdan koʻra har ikkisini oʻz oʻrnida qoʻllash maʼqulroq.. Terminlarga munosabat bildirishda til oʻz ichki imkoniyatlari asosida hamda iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar tufayli chetdan soʻz oʻzlashtirish hisobiga ham rivojlanishini eʼtibordan chetda qoldirmaslik kerak. Barcha terminlarni oʻzbekchalashtirishning iloji yoʻqligini soʻnggi yillardagi behuda urinishlar koʻrsatdi. Tilga xohlagan soʻzni kiritaverish, yoqmay qolsa, chiqarib tashlab

boshqasini tanlash mumkin emas. Bunday harakat adabiy til meʼyorlarining shakllanishi va qoʻllanishi qonuniyatiga ziddir.

Terminlarni bir xillashtirishga tilning rivojlanish qonuniyatiga, uning oʻziga xos talab va ehtiyojiga qarab, ilmiy oʻlchovlarga amal qilgan holda yondashish kerak.

3. Abbreviaturalarning qo‘llanishiga doir Abbreviaturalar hozirgi kunda keng qo‘llanadigan birlikka aylanib bormoqda. Ular yordamida ijtimoiy va tabiiy, texnik fanlarning terminlari, sanoat sohalarining, qishloq xo‘jaligi, transport va aloqalari, korxonalarining nomlari, davlat muassasalari, o‘quv yurtlari, harbiy soha terminlari va nomlar o‘z ifodasini topmoqda.

Abbreviaturalarning yuzaga kelishi va tarqalishida xalqaro aloqalarning keng yo‘lga qo‘yilishi ham muhim omillardan sanaladi. Hozirgi kunda turli sohalarga doir xususiy qisqartmalarning qo‘llanishi ham ko‘payib bormoqda.

Abbreviaturalarni yuzaga keltiruvchi eng asosiy omillar quyidagilar:

1. Boshqa tillardan tayyor holdagi qisqartmalarni o‘zlashtirish. Masalan: FIFA — (frants. Fédération Internationale de Football Association), NATO, YuNESKO, YuNISEF, EKOSAN, EKOSOS kabi.

2. Kalka usulida va til imkoniyatlari asosida, Masalan: DAN — Davlat avtomobil nazorati, FA — Fanlar akademiyasi, BMT — Birlashgan Millatlar Tashkiloti, IIBB — Ichki ishlar bosh boshqarmasi, O‘TM — o‘rta ta‘lim muassasasi, OTB — Osiyo taraqqiyot banki.

Amalda qo‘llanilib kelayotgan abbreviaturalarni (qisqartmalarni) 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Leksik qisqartmalar.

2. Grafik qisqartmalar.

Leksik qisqartmalarga nom-atama birliklari, og‘zaki nutqda qo‘llanuvchi tushuncha anglatuvchi qisqartmalar, alifbodagi harflar asosidagi nomlanishlar kirsam, grafik qisqartmalarga esa tilning yozma shaklidagi turli qisqartmalar kiradi. Shu asosda o‘zbek tilida qo‘llanuvchi abbreviaturalarni strukturaviy tuzilish jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Faqat bosh harflardan tuzilgan abbreviaturalar: DTS — Davlat ta‘lim standartlari, DTM — Davlat test markazi, ETTB — Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, MDH — Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi kabi.

2. So‘zlarning bo‘g‘inlaridan tuzilgan qisqartmalar: Toshviltrans — Toshkent viloyat transporti kabi.

3. Aralash turdagi qorishiq qisqartmalar: O‘zMU — O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zXDP — O‘zbekistan Xalq demokratik partiyasi, O‘zDfantexin — O‘zbekiston Davlat fan texnika instituti kabi.

4. Qisman qisqartirilgan abbreviaturalar: O‘zdonmahsulot, O‘zdavnashr, O‘zneftgazqurilish, O‘zyog‘moytamakisanoat kabi.

5. Grafik qisqartmalar. Bu tur qisqartmalar faqat yozma nutqda qo‘llanishi bilan boshqa qisqartmalardan farqlanadi. Grafik qisqartmalar turli ko‘rinishlarda mavjud bo‘lib, har bir sohaning egalari uchun tushunarli bo‘ladi. Masalan: dots. — dotsent, akad. — akademik, f.f.n. — filologiya fanlari nomzodi, T. — Toshkent, kg — kilogramm, m - metr kabi.

Shuningdek, hamma uchun tushunarli bo‘lmagan xususiy qisqartmalar ham shu ko‘rinishda ko‘proq uchraydi. Yozma nutkda grafik qisqartmalarning so‘zning o‘zak qismidagina iborat bo‘lgan — yunon. — yunoncha, arab. — arabcha, fors. — forscha kabi hamda to‘liqsiz o‘zakdan iborat — ped.— pedagogika, med. — meditsina kabi ko‘rinishlari ham mavjud.

Tilning leksikasi nomlash asosida shakllanadi. Leksema predmet, belgi, harakat kabi tushunchalarning tildagi nomi bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda nomlash bilan atash tushunchalari farqlanadi. Bu ko‘proq ot turkumiga oid so‘zlarda uchraydi. Otlar asosan nomlovchi so‘zlardan, qisman atovchi so‘zlardan tarkib topgandir. Masalan: muhabbat — ma’lum bir his-tuyg‘uning nomi sifatida nomlovchi so‘z, atab qo‘yilgan ismni bildirganda esa atovchi so‘zga aylanadi.

Abbreviaturalar esa asosan atovchi birliklar sifatida izohlanadi. Atash abbreviaturalarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. U asosan terminologik sistemaga tegishlidir. Turli sohalarga oid atamalarning yuzaga kelishida abbreviaturalar xizmat qiladi. Masalan: 1 ) matbuot va axborotga oid atamalar: O‘zTV, TTV, Teleradiokompaniya; 2) sportga oid atamalar: FIFA, UEFA, MACK— Markaziy armiya sport klubi, O‘zMCh — O‘zbekistan Milliy chempionati kabi; 3) ilmiy va umummadaniy tashkilotlarni bildiruvchi atamalar: O‘zRFAFanlar Akademiyasi, YuNESKO, YuNISEF kabi; 4) siyosiy partiyalarning, davlat hokimiyati tashkilotlarining atamalari: O‘zXDP - O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, IIBB - ichki ishlar bosh boshqarmasi,

DAN - Davlat avtomobil nazorati; 5) iqtisodiyotga, ichki va tashqi savdoga oid atamalar: OTB - Osiyo taraqqiyot banki, O‘zMB - O‘zbekiston milliy banki, O‘zdonmahsulot, O‘zmevasabzavotuzum; 6) maorif, xalq ta’limi va san’atga oid atamalar: DTM - Davlat test markazi, DTS — Davlat ta’lim standartlari, OTM - Oliy ta’lim muassasasi, O‘zbeknavo kabi.

Abbreviaturalar asosida shakllangan atamalar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Bu shuni ko‘rsatadiki, abbreviaturalar tilda turlicha shakllanadigan faol birliklar sanaladi. Xususiylashtirish ham ko‘plab uchraydi. Bu holat tilda abbreviaturalardan foydalanishni bir muncha qiyinlashtirib qo‘ymokda. Noo‘xshov, o‘qish qiyin bo‘lgan abbreviaturalar ham uchrab turadi. Shuning uchun har bir soha atamalari kabi sohaga oid abbreviaturalar ham qo‘llanib turilishi kerak. O‘ta xususiylashtirish ketgan qisqartmalarga esa yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

## **Tarjimaning grammatik muammolari. Grammatik ma’no turlarini tarjimada ifodalash**

Reja:

1. Tarjima jarayonida grammatik muammolar va ularni bartaraf etish usullari.
2. Tarjimada morfologik muvofiqlik. 2.1.To‘liq muvofiqlik. 2.2.Qisman muvofiqlik. 2.3. Mos kelmaslik.
3. Tarjimada sintaktik muvofiqlik tushunchasi

Ta’limiy maqsad: talabalarni tarjima jarayonidagi grammatik birliklar va ularning muvofiq muqobillarini topish usullari bilan tanishtirish.

Tayanch so‘z va iboralar: qiyosiy grammatika, tarjimada grammatik muammolar, grammatik rod tarjimasi, grammatik muvofiqlik, olmoshlar tarjimasi, predloglar tarjimasi muammosi, morfologik muvofiqlik, sintaktik muvofiqlik, grammatik transformatsiya.

Frantsuz, o‘zbek, rus tillari tipologik va genetik jihatdan turli xil tillardir. Frantsuz va rus tillari hind –evropa tillar oilasining roman va slavyan guruhlariga kiradi .O‘zbek tili esa Oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga mansubdir .

Morfologik jihatdan frantsuz tili analitik, rus tili sintetik xususiyatga, o'zbek tili aglutinativ (grammatik shakl va yasama so'zlarning so'z o'zagi va negiziga affikslar qo'shilishi natijasida yasaladigan tildir.

Grammatik turlanish kategoriyasi rus va o'zbek tillariga xos. Frantsuz tilida gaplardagi so'z tartibi qat'iy .

S+P – Elle parle. Les enfants contents .

Agar kesim tranzitif fe'l bilan ifodalansa:

S – P – COD. – Le professeur explique la règle .

Les étudiants écrivent les exercices.

Gap bo'laklari tarkibidagi har qanday o'zgarish ma'noning buzilishiga olib keladi .

Grammatik muvofiqlikning 3 turi mavjud: 1. to'liq; 2. qisman; 3. nomuvofiqlik ;

Grammatik muvofiqlikni 2 qismga bo'lamiz: -Morfologik; Sintaktik ;

1. To'liq morfologik grammatik kategoriyalar bor bo'lganda kuzatiladi. Masalan: zamon kategoriyasi; son kategoriyasi; nisbat kategoriyasi;

Je parle –ya gavoryu – Men gapiryapman .

Nous parlons – mi govorim – Biz gapiryapmiz . Parlez! Govorite! Gapiring !

Les étudiants - studenti - talabalar .

1. Qisman morfologik muvofiqlik tillardagi grammatik kategoriyalar bir- biriga mos kelmagan hollarda kuztiladi .

Masalan: kelishik – rus tilida 6 ta – o'zbek tilada 6 ta – frantsuz tilida yo'q Bunday hollarda odatda tildagi boshqa vositalar bilan ifodalanadi .

Morfologik nomuvofiqlik tilda grammatik kategoriyalarning mos kelmasligida kuzatiladi. Masalan: o'zbek tilida egalik grammatik kategoriyasi mavjud. U affikslar orqali ifodalanadi, bu grammatik kategoriya frantsuz tilida ham rus tilida ham yo'q.

O`zbek	Rus	Fransuz
Kitobim -	moya kniga -	mon livre
Oilamiz -	nasha semya-	notre famille

Frantsuz tilida aniqlik va noaniqlik artikllar orqali ifodalanadi. O'zbek va rus tillarida esa bu grammatik kategoriya leksik va sintaktik vositalar orqali ifodalanadi.

Un soir je suis allé au cinéma Bir kuni kechqurun men kinoga bordim Odnajdi vecherom ya poshla v kino Un homme est entré dans la chambre Kakoy-to chelovek voshyol v komnatu Qandaydir bir kishi xonaga kirdi Sintaktik muvofiqlik 1. To'liq sintaktik muvofiqlik tuzilishidagi muvofiqlik bo'lib gaplardagi so'z tartibi .

Masalan: un stylo rouge – qizil ruchka –krasnaya ruchka Adj+N une large rue - shirokaya ulitsa – keng ko'cha Une belle maison – krasiviy dom – chiroyli uy Lekin frantsuz tili o'ziga xos, ko'p bo'g'inli sifatlarda, rang bildiruvchi sifatlarda otdan keyin qo'yiladi .

Une pomme rouge –krasivaya yabloka –qizil olma. Subject +verbe – Elle danse – ona tantsuet Elle marche –ona xodit – u yuryapti

Qisman sintaktik muvofiqlik –ma'noning muvofiqligi, lekin tuzilishidagi farq qiladigan jihatlari bo'ladi.

Masalan: Atlas ko'ylak –N+N Shoyi ro'mol – N+N

Steklyannaya chashka – ADJ+N . Shisha naycha –steklyannaya truba

Une montre en or – zolototie chasi –oltin soat

Qisman sintaktik muvofiqlikni gapda biz so'z tartibi, so'z tushib qoldirish, so'zlarning o'rini almashtirilganda bir–biriga to'g'ri kelmasligini tushunamiz.

Bu erda chekish mumkin emas ! Zdes ne kurit!

2. Sintaktik muvofiqlikning yo'qligi tarjima manba tilda ishlatiladigan, lekin tarjima qilinayotgan tilda ma'lum sintaktik tuzilishning bo'lmasligi tushuniladi .

Masalan: Il aime la ville où son enfance est passé.

On lyubit gorod, gde proshlo ego detstvo. U bolaligi o'tgan shaharni yaxshi ko'radi.

Grammatik mos bo'lmaslik deganda 1 ta yoki boshqa grammatik shakl , yoki konstruktsiya ishlatilishida moslik bo'lmasligi, so'zlarning birikishida farq bo'lishi bir xil ma'noga ega bo'lgan so'z turkumlarining bo'lmasligi tushuniladi.

Bir tilni boshqa tildan ajratib turuvchi belgilar tizimi mavjud. Shunday tillar jumlasiga ingliz va o'zbek tillari ham kiradi. Ularning grammatik tizimlari tipologik va genetik jihatdan farqlanadi. Ingliz tili hind-evropa tillar oilasining german tillar guruhiga, o'zbek tili esa oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga

kiradi. Frantsuz tili morfologik tuzilishiga ko'ra o'zgaruvchan analitik xarakterga va yozilish jihatidan sintetik xarakterga ega. O'zbek tili esa aglyutinativ til hisoblanadi.

Quyidagi misollarni qiyoslab o'rganish orqali tillar o'rtasidagi farqlarni kuzatish mumkin:

The hunter killed the wolf. – Ovchi bo'rini o'ldirdi. I go to school. – Men maktabga boraman.

Bu misollardan o'zbek tilida gap tuzilishi ingliz tilidagidan farq qilishini ko'ramiz. Frantsuz tilida so'z tartibi o'zgartirilsa, gap ma'nosi ham o'zgaradi.

Ingliz tilida darak gapda so'z tartibi Subject–Predicate (S–P) tartibida ifodalanadi. Bunda ingliz tilida ega (S) gapning boshida, kesim (P) esa egadan keyin keladi. Agar kesim o'timli fe'l bilan ifodalansa, kesimdan keyingi o'rinda to'ldiruvchi keladi: S–P (Vtr)–O.

Ammo o'zbek tilida so'z tartibi ingliz tilidagi so'z tartibidan tubdan farq qilib, quyidagicha ifodalanishi mumkin: S–O–P (Vtr).

Ingliz tilidagi so'z tartibini o'zbek tilidagi so'z tartibi bilan qiyoslash o'zbek tilida so'zlarning joylashish tartibini va to'ldiruvchining o'rnini o'zgartirib berish imkoniyati mavjudligini ko'ramiz.

Ovchi bo'rini o'ldirdi. Bo'rini ovchi o'ldirdi.

Ovchi bo'ri o'ldirdi. (So'zlashuv nutqida).

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, so'z tartibi ingliz va o'zbek tillarida umuman farq qiladi. Bulardan tashqari, o'zbek tilidagi tarjimada -ni kelishik qo'shimchasi gapga yanada aniqlik kiritib kelmoqda.

Ingliz va o'zbek tillari jumllarini grammatik-morfologik va sintaktik jihatdan moslashuviga ko'ra uch turga bo'lish mumkin:

1. To'liq moslashuv.
2. Qisman moslashuv.
3. Umuman mos kelmaslik.

To'liq morfologik muvofiqlik bir xil grammatik kategoriyali tillarda bir xil ma'no anglatganda kuzatiladi. Ingliz va o'zbek tillari grammatikasida ham son kategoriyasi bir-biriga juda yaqin.

Plural (Birlik) Singular (Ko'plik) book (kitob) books (kitoblar)

Qisman morfologik muvofiqlik grammatik kategoriyalar bir xil ma'noni berib, ma'nosi ma'lum darajada farqlanganda yuzaga keladi. Buni otlardagi kelishik kategoriyasida ham ko'rish mumkin.

Ikkala tilda ham kelishikning ma'nosi bir xil, lekin ular soni va ifodalayotgan ma'nolari nuqtai nazardan farqlanadi. Ingliz tilida ikkita, o'zbek tilida esa oltita kelishik bor. Umuman morfologik mos kelmaslik. Bu holatni grammatik kategoriyalarning umuman mos kelmasligida kuzatishimiz mumkin. Masalan, o'zbek tilida egalik kategoriyasi egalik qo'shimchalari orqali ifodalanadi.

O'zbek tilida       English Kitob-im   my book Kitob-ing       your book  
Kitob-i       his/her book

O'zbek tilidagi egalik kategoriyasi ingliz tilidagi egalik kategoriyasiga umuman to'g'ri kelmaydi. O'zbek tilida egalik kategoriyasini ifodalash uchun egalik qo'shimchasidan foydalanilsa, ingliz tilida olmoshlardan foydalaniladi.

Ingliz tilida otlarning aniq yoki noaniqligini ifodalash uchun muayyan artikldan foydalanamiz. Ammo ushbu grammatik vositaning o'zbek tilida mos varianti mavjud emas. Bu holda artikllar ma'nosi tilning leksik va sintaktik vositalari yordamida beriladi.

Endi ingliz va o'zbek tillaridagi grammatik muvofiqlikning sintaktik jihatdan moslashuvini ko'rib chiqamiz:

To'liq sintaktik muvofiqlik deganda, struktura mosligi, so'z birikmalari va gap bo'laklarining moslashuvi tushuniladi. O'zbek va ingliz tillarida to'liq sintaktik muvofiqlik kamdan-kam hollarda uchraydi. To'liq sintaktik muvofiqlikni Adjective + Noun qolipidagi so'z birikmasida kuzatishimiz mumkin: white ag – oq bayroq.

Xuddi shunday holatni sodda gaplarning kesimi o'timli fe'l bilan ifodalanganda ham ko'rishimiz mumkin: He laughed. – U kuldi.

Qisman sintaktik muvofiqlik. Qisman sintaktik muvofiqlikda so'z birikmalarida ma'nolar mosligi bo'lsa-da, strukturasi bir-biridan farqlanadi. So'z birikmalaridagi qisman sintaktik muvofiqlik quyidagicha:

1. Sintaktik jihatdan aniqlovchili so‘z birikmalari yasashida ingliz tili o‘zgarishlarga boy bo‘lmagan til hisoblanib, aniqlovchilar, asosan, so‘zlar joylashishi vositasida (Noun1+Noun2 strukturasi binoan) yasaladiva quyidagi turdagi munosabatlarni ifodalaydi:

Atributiv:

English O‘zbek tilida Glass-tube shisha naycha N1+N2 1+NN2

Bu misollarda ingliz va o‘zbek tillarida farq kuzatilmaydi. Egallik qo‘shimchalari: house-plan [N1+N2] – uy plani [N1+N2 (-i)] – plan doma [N1+N2 (-a)].

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilida o‘zgarish yo‘q, ammo o‘zbek (-i qo‘shimchasi) va rus (-a qo‘shimchasi) tillarida o‘zgarish kuzatilyapti.

Yana bir misol: workers club [N1+N2] – ishchilar klubi [N1 (-lar + -ning) +N2 (-i)]. Qisman sintaktik muvofiqlik birinchi komponenti son bilan ifodalangan so‘z birikmalarida ham kuzatiladi:

English O‘zbek tilida one book bitta kitob

two books ikkita kitob three books uchta kitob four books to‘rtta kitob ive books beshta kitob Ingliz va o‘zbek tillarida ko‘plikning ifodalanish usuli ikkinchi tarkibiy qism (komponent)da farqlanadi.

English O‘zbek tilida Num+Npl. Num+Nsing.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tiliga nisbatan ingliz tilidagi misollarda ikkinchi komponentda o‘zgarish mavjud.

Umuman sintaktik mos kelmaslik deyilganda, asliyat tili bilan tarjima tili o‘rtasidagi ma’lum sintaktik konstruktsiyalar etishmasligi yoki mos kelmasligi tushuniladi.

Ingliz tilida bu sintaktik konstruktsiyalar gapning to‘liq bo‘lmagan yoki ikkinchi darajali bo‘laklarini tashkil qiladigan fe’lning shaxssiz shakllari bilan ifodalanadi. Predikativ konstruktsiyalarning semantik vazifasi harakatlarning bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi va muayyan vaziyatda moslashishini bildiradi. Ushbu konstruktsiyalar bilan gapning bosh bo‘laklari o‘rtasida rasman grammatik bog‘liqlik bo‘lmasa-da, ular o‘rtasida doimo muvofiqlik mavjud. Predikativ konstruktsiyalarda harakat yoki holat sodda va qo‘shma gaplar tarjimasida aniqlanadi. Masalan: I heard the door open. – Eshik ochilganini eshitdim.

Grammatik transformatsiya turlari. Bir tildagi ma'lumotni boshqa bir tilda ifodalash uchun bir qancha leksik va grammatik transformatsiya turlaridan

foydalanishga to'g'ri keladi. Quyida grammatik transformatsiyaning grammatik o'rin almashtirish, grammatik transpozitsiya, grammatik tushirib qoldirish, grammatik qo'shish kabi turlarini ko'rib chiqamiz.

Grammatik o'rin almashtirish deganda, bir gap bo'lagini boshqa bir gap bo'lagi bilan yoki biror so'z shaklini boshqa so'z shakli bilan almashtirish tushuniladi.

Grammatik o'rin almashtirishda ikki holat kuzatiladi: a) gap bo'laklarini almashtirish; b) so'zning grammatik shakllarini almashtirish.

O'rin almashtirish orqali tarjima kilishning bir necha sabablari mavjud:

- tarjima kilinayotgan tilda asliyatdagi grammatik shakl yoki konstruktsiyalarning mavjud emasligi;
- shakl va konstruktsiyalarning birikishida muvofiqlikning etishmasligi, shuningdek, leksik sabablarga ko'ra turli xil moslashuvlar va so'zlarning ishlatilishi;
- xuddi shu ma'nodagi gap bo'lagining etishmasligi.

Quyidagi misol ingliz tilidagi ikkita gapning bo'laklari o'rnini almashtirish orqali fe'lning ma'nolari ochib beriladi:

He says he will come. – U kelishini aytyapti. He said he would come. – U kelishini aytdi.

O'zbek tilida shunga o'xshash so'z shakli bo'lmaganligi tufayli so'zlarning ma'nolari boshqa grammatik vositalar yordamida ifodalangan.

O'zbek tilida fe'l funktsiyasi sifatdosh qo'shimchasi -jak yoki harakat nomi - (i)sh qo'shimchalari bilan ifodalanadi.

Gap bo'laklari o'rnini almashtirishning shartli va ixtiyoriy turlari mavjud. Tarjimada shartli o'rin almashtirish asliyat tilidagi gap bo'laklarida ishlatilgan vositaning tarjima tilida mavjud emasligi yoki mos kelmasligida ko'rinadi (masalan, ingliz tilidagi artikl).

O'zbek tilida artikl bo'lmaganligi uchun uni tarjima qilishda turli leksik va grammatik vositalardan foydalaniladi. Artikl gumon, ko'rsatish olmoshlari, son va urg'u vazifalarida ham kelishi mumkin. Shuning uchun o'zbek tilida artikllarning

ma'nosini beradigan turlicha vositalardan foydalaniladi: When we were in Majorca, there was a Mrs. Leech there and she was telling us most wonderful things about you. (A. Christie) – Biz Mayorkada bo'lganimizda qandaydir missis Lich bor edi. U bizga siz to'g'ringizda juda ko'p qiziqarli narsalarni aytib bergandi. (A. Kristi)

Bu tarjimada gumon olmoshlaridan noaniq artikl o'rnida foydalanilgan.

Ixtiyoriy o'rin almashtirishda kontekstdagi ma'noga qarab o'rin almashtiriladi: The climb had been easier than he expected. – Ko'tarilish u kutgandan ko'ra osonroq kechdi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ingliz tilidagi aniq artikl bilan kelgan ot o'zbek tilida infinitiv bilan berilgan.

Grammatik almashtirishlar asliytdagi grammatik birlikning tarjima tiliga o'zgacha grammatik ma'no bilan o'giriladigan tarjima usuli hamdir. Manba

tilining istalgan sathidagi grammatik birlik almashtirilishi mumkin: so'z shakli, nutq qismi, gap bo'lagi, ma'lum turdagi gap. Tarjimada har doim MT shaklining TT shakliga almashtirilishi yuz beradi.

Sintaktik qayta qurish ko'p hollarda inversiyali gap tarjimasida, ya'ni so'zlarni teskari tartibda tarjima qilish zaruriyati bo'lgan gaplarda talab qilinadi. Inversiya stilistik yoki ma'noviy talablardan kelib chiqadi. Ingliz tilida inversiya juda ifodali emfatik vosita hisoblanadi.

Grammatik almashinuvda asliytdagi grammatik birlik tarji ma tilida boshqa grammatik belgi bilan almashtiriladi. Bu so'z kategoriyalari (rod, son), so'z turkumlari, gap bo'laklari almashinuvi orqali amalga oshiriladi. Masalan, ingliz tilida ko'plikdagi ot tarjimada birlikda ot bilan kelishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Masalan, money (bir-likda) – dengi (qo'plikda) – pul (birlikda); struggles (ko'plik-da) – borba (birlikda) – kurash (birlikda).

We are searching for talent everywhere. (Birlikda) – Mi po-vsyudu ishem talanti. (Ko'plikda) – Biz hamma joydan talantlarni qidirypmiz. (Ko'plikda).

They left the room with their heads held high – Oni vishli iz komnati s visoko podnyatoy golovoy. (Birlikda) – Ular xonaga boshlarini g'oz tutganlaricha kirishdi. (Ko'plikda).

Eng ko‘p tarqalgan grammatik transformatsiya turi so‘z tur- kumlari almashinuvida kuzatiladi. Bunda otlarning fe‘l va sifat bilan almashinuvi ko‘proq uchraydi:

He is a poor swimmer. – On ploxo plavaet. – U yomon suzadi.

She is no good as a letter-writer. – Ona ne umeet pisat pisma. – U xat yozolmaydi.

I am a very rapid packer.– Ya ochen bistro ukladivayus.– Men tezda yig‘ishtirib bo‘laman.

Tarjimada so‘z turkumlarini almashtirish gap tarkibining o‘zgarishiga olib keladi.

Masalan, quyidagi jumla tarjimasida ega o‘rin holi bilan almashtirilgan:

Asliyat: The last week saw an intensification of diplomatic activity.

Ruscha tarjima: Na proshloy nedele nablyudalas aktivizatsiya diplomaticheskoy deyatelnosti.

O‘zbekcha tarjima: O‘tgan haftada diplomatik munosabatlarning faollashuvi kuzatildi.

Noaniq artikl tarjimada «one»soni yoki gumon olmoshi bilan almashtirilishi mumkin.

She solved the problem at a blow. – U muammoni bir zumda hal etdi.

Grammatik transpozitsiya deganda, manba tili bilan tarjima tilidagi lingvistik elementlarning o‘rin almashishi tushuniladi.

Transpozitsiyaning ikki turi mavjud: 1) gap bo‘laklari o‘rnining almashishi;

2) qo‘shma gaplarda sintaktik bog‘liqlik.

So‘zlarni tushirib qoldirish grammatik transformatsiyaning bir turi bo‘lib, grammatik komponentlarning qisqartirilishida kuzatiladi: He raised his hand. – U qo‘lini ko‘tardi. Bu gapda «his» (o‘z) olmoshi tushib qolgan.

Qo‘shish grammatik transformatsiyaning shunday turiki, unda asliyat tilidagi grammatik va semantik komponentlarni tarjima tilida so‘z qo‘shish orqaligina qayta tiklash mumkin:

### Xulosa

Ta’kidlash joizki, grammatika tilning ustunidir. Ushbu ustunsiz yoki ustunning noto‘g‘ri qurilishi har qanday muqobilligi yuqori darajadagi tarjimani ham yo‘qqa chiqaradi.

Tarjima jarayonidagi morfologik va sintaktik to‘liq muqobil, qisman muqobilliklar yoki umuman mos kelmaslik holatlarini olmosh, artikl, grammatik rod, fe‘l va boshqa grammatik kategoriyalar orqali o‘rganish muammolar echimida qaysi yo‘ldan borishni aniq ko‘rsatib beradi.

Munozara uchun savollar:

1. Tarjima jarayonida paydo bo‘ladigan grammatik muammolar qaysilar?
2. Nima sababdan tarjima jarayonida grammatik muammolar paydo bo‘ladi?
3. Frantsuz va o‘zbek tillari misolida grammatik rod tarjimasiga muammosiga misol keltiring.
4. Frantsuz va o‘zbek tillari misolida olmoshlar tarjimasiga muammosiga misol keltiring.
5. Frantsuz va o‘zbek tillari misolida fe‘llar va, umuman, predloglar tarjimasiga muammosiga misol keltiring.
6. Artikllar tarjimasiga haqida so‘zlang.
7. Frantsuz va o‘zbek tillari misolida ergashgan qo‘shma gaplar, murakkab qo‘shma gaplar va izohlovchilar tarjimasiga muammosiga misol keltiring.
8. Grammatik sathdagi nomutanosiblikning tarjima matnga ko‘rsatadigan ta’siri haqida so‘zlang.
9. Asliyati tilida bo‘lgan, ammo tarjima tilida kuzatilmaydigan grammatik hodisalar qanday tarjima qilinishi mumkin?
10. Asliyatda ataylab buzib berilgan so‘zlarni qanday tarjima qilamiz?

### **Tarjimada grammatik transformatsiyalar**

Reja:

1. Tarjimada transformatsiya turlaridan foydalanish.
2. Grammatik transformatsiyaning turlari.
3. Tarjimada o‘rin almashtirish.
4. Gap bo‘lagini almashtirish.
5. Sintaktik birliklarni almashtirish.

Ta’limiy maqsad: talabalarni tarjima jarayonidagi leksik va grammatik birliklarni tarjima qilishda qo‘llaniladigan transformatsiyalar bilan tanish tirish.

Tayanch soʻz va iboralar: grammatik transformatsiya, leksik transformatsiya, transkripsiya, transliteratsiya, gap boʻlaklarining almashishi, tushirib qoldirish, qoʻshish, umumlashtirish, konkretlashtirish, modulyatsiya, sintaktik moslashuv, sinonimik maʼno, ibora va soʻz yasalishi.

Tarjima jarayonida bir tildagi leksik birliklar ikkinchi tilga transformatsiya qilingan holda oʻgiriladi. Tarjima amaliyotida quyidagi leksik transformatsiyalardan foydalaniladi:

- transkripsiya va transliteratsiya;
- konkretlashtirish (aniqlashtirish);
- generalizatsiya (umumlashtirish);
- modulyatsiya;

Grammatik transformatsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

- sintaktik moslashuv;
- gapni boʻlaklarga boʻlib tarjima qilish;
- sodda gaplarni qoʻshma gaplarga aylantirib tarjima qilish;
- soʻz shakllari, turkumlari va gap boʻlaklarini almashtirish.

Tarjima jarayonida quyidagi leksik-grammatik transformatsiyalar amalga oshiriladi:

- antonimik tarjima;
- tasviriy tarjima;
- kompensatsiya.

Transkripsiya va transliteratsiya usullari. Transkripsiyada xorijiy soʻzning talaffuz shakli, transliteratsiyada esa uning grafik shakli qayta tiklanadi.

Asliyat va tarjima tillarining fonetik tizimlaridagi tafovutlar koʻproq transkripsiya usulidan foydalanishga olib keladi. Masalan: absurdist – absurdist (absurd asar muallifi); kleptocracy – kleptokratiya (oʻgʻrilar oliy tabaqasi); skateboarding – skeytbording (rolikli taxtada uchish). Bu jarayonda ingliz tilida talaffuz qilinmaydigan ayrim tovushlarning talaffuz qilinishi, unilarning reduksiya holatlari kuzatiladi: Dorset – Dorset; Campbell – Kempbell; boss – boss; Hercules missile – raketa «Gerkules»; deescalation – deeskalatsiya; Columbia – Kolumbiya.

Ayrim tarixiy shaxslar, geografik joy nomlarini tarjima qilishda an'anaviy shakllardan foydalaniladi: Charles I – Karl I; William III – Vilgelm III; Edinborough – Edinburg.

K a l k a l a sh – asliyatdagi leksik birlikni tarjima tilidagi leksik birlik bilan almashtirishni ko'zda tutadi va tarjima tilida yangi so'z va ibora yasalishiga olib keladi: superpower – sverxderjava – hukmron davlat; mass culture – massovaya kultura – ommaviy madaniyat; green revolution – zelenaya revolyutsiya – yashil revolyutsiya; land-based missile – raketa nazemnogo bazirovaniya – erda o'rnatilgan raketa; Rapid Deployment Force – sili bistrogo razvertivaniya – tez harakatlanuvchi kuchlar; transnational – transnatsionalniy – transmilliy; petrodollar – neftedollar; miniskirt – mini yubka.

Konkretlashtirish leksik-semantik transformatsiyaning asosiy turlaridan biri bo'lib, lug'aviy ma'noni tarjima tilida konkretlashtirish, generalizatsiyalash (umumlashtirish), modulyatsiya (ma'nosini kengaytirish) hisoblanadi. Konkretlashtirish asliyatdagi keng ma'noda ishlatilgan ma'noni tor ma'noda ishlatishni ko'zda tutadi.

Konkretlashtirish usulidan, odatda, asliyatdagi leksik birlik ifodalagan keng ma'noli so'z tarjima tilida mavjud bo'lmagan hollarda foydalaniladi. Masalan, ingliz tilidagi thing oti mavhum ma'noga ega (an entity of any kind) va uni rus va o'zbek tillariga o'girishda, albatta, konkretlashtirish usulidan foydalaniladi. Inglizcha meal so'zi turli nutq usullarida keng foydalaniladi. Shu bois uning konkretlashtirilgan shakli zavtrak – nonushta, obed – tushlik, ujin – kechki ovqat kabi shakllari bilan konkretlashtiriladi:

Ge n e r a l i z a t s i y a konkretlashtirishning aksi bo'lib, asliyatdagi tor ma'noli so'zni tarjima tilidagi keng, umumlashtiruvchi so'z bilan almashtirishni ko'zda tutadi:

He visits me practically every week-end. – On ezdit ko mne pochti kajduyu nedelyu. – U menikiga qariyb har hafta keladi.

Generalizatsiya stilistik maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, a young man of 6 feet 2 inches birikmasi rus va o'zbek tillariga molodoy chelovek visokogo rosta –baland bo'yli yigit shaklida o'girilib, umumlashtirilishi mumkin.

Chunki bu o'rinda «funt, dyum» so'zlari rus va o'zbek kitobxonlari uchun unchalik tushunarli bo'lmasligi mumkin.

Ayrim hollarda tarjimon konkret ma'no ifodalovchi iborani umumlashgan ma'noda ishlatishi mumkin.

Generalizatsiya usuli bilan tarjima tilida doimiy ekvivalentlar yaratilishi mumkin: foot – noga – oyoq(lar); wrist watch – naruchnie chasi – qo'l soati.

Modulyatsiya – usuli asliyatdagi leksik birlik ma'nosini tarjimada kuchaytirib berishdir. Bunda asliyat ma'nosi tarjimada sabab-oqibatni ifodalovchi ma'nolar orqali kuchaytiriladi: I don't blame them. – Ya ix ponimayu. – Men ularni tushunaman. (Sabab munosabati oqibat munosabati bilan o'girilib kuchaytirilyapti: Ya ix ne vinyu potomu, chto ya ix ponimayu. – Men ularni tushunaman, shu sababli ayblamayman).

Modulyatsiya orqali qilingan transformatsiyada sabab-oqibat munosabatlari, odatda, keng ma'noda ifodalanadi va ular orasidagi mantiqiy bog'liqlik har doim saqlanib qoladi:

Sintaktik moslashuv usuli asliyatdagi sintaktik strukturani tarjima tilidagi shunday struktura bilan o'girishni taqozo qiladi va bu, odatda, asliyat va tarjima tillarida shunday parallel strukturalar mavjudligidan dalolat beradi. Biroq bu o'rinda strukturadagi komponentlar ayrim o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, artikllar, yordamchi so'zlar tushirib qoldiriladi, mustaqil so'zlar ayrim morfologik o'zgarishlar oladi.

I always remember his words. – Ya vseгда pomnyu ego slova. – Men uning so'zlarini doim eslab yuraman.

Gapni bir necha bo'laklarga bo'lib tarjima qilish ham transformatsiyaning bir turi bo'lib, asliyatdagi ergashgan qo'shma gaplarni alohida gaplar shaklida tarjima qilish yoki sodda gaplarni qo'shma gap singari tarjima qilishni ko'zda tutadi.

Grammatik almashinuvda asliyatdagi birlik tarjima tilida boshqa grammatik birlik bilan almashtiriladi. Bu so'z shakllari (rod, son), so'z turkumlari va gap bo'laklarini almashtirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, ingliz tilida ko'plikdagi ot tarjimada birlikda beriladi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Masalan: money (birlikda) – dengi (qo‘plik-da) – pul (birlikda); struggles (ko‘plikda) – borba (birlik-da) – kurash (birlikda) va h.k.

Eng ko‘p tarqalgan grammatik transformatsiya turi – bu so‘z turkumlari almashinuvida kuzatiladi. Bunda otlarning fe‘l va sifat bilan almashinuvi ko‘proq uchraydi.

Qiyoslang:

He is a poor swimmer. – On ploxo plavaet. – U yomon suzadi. She is no good as a letter-writer. – Ona ne umeet pisat pisma.

– U xat yozishni bilmaydi.

Antonimik tarjima leksik-grammatik transformatsiyaning bir turi bo‘lib, asliytdagi tasdiq shaklidagi fikr tarjima tilida inkor shaklda yoki aksincha berilishini ifodalaydi.

Antonimik tarjimada asliytdagi til birligi tarjima tiliga qarama- qarshi ma‘no ifodalovchi boshqa so‘z yoki iboralar bilan ham o‘girilishi mumkin.

Eksplikatsiya yoki izohli tarjimada asliytdagi lug‘aviy birlik tarjima tiliga tushuntirish, izohlash orqali o‘giriladi va, odatda, muqobilsiz leksikalar tarjimasida foydalaniladi: conservationist – storonnik oxrani okrujayushey sredi – atrof-muhitni himoya qilish tarafdori; whistle-stop speech – vistupleniya kandidata v xode predvibornoy agitatsionnoy poezdki – nomzodning saylov oldi targ‘ibot safari.

Kompensatsiya aslyat unsurlarini tarjima tilidagi vositalar hisobiga to‘ldirish uchun qo‘llanadi. Bunda aslyat tilidagi grammatik vositalar tarjima tilining leksik vositalari orqali ifodalanadi yoki, aksincha. Bu, ko‘pincha, aslyatda personajning buzuq nutqini tarjima tilida o‘ziga xos vositalar orqali o‘girishda kuzatiladi. Masalan, ingliz xalqi tilida uchraydigan ayrim unli va undosh tovushlarni tashlab gapirish tarjima tilida ham xuddi shunday vositalardan foydalanib, kompensatsiya qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Masalan, it, appen deyish o‘rniga a-singing, a-going, hit shakllaridan

foydalaniladi. Ko‘pincha, xalq tilida ega va kesim orasidagi moslashuv amalga oshirilmaydi: I was, you was. Bunda tarjimon ona tili aynan shunday holatlarda

ishlatiladigan vositalardan foydalanadi. Bu orqali personajning gapirish usuli, uning xarakteridagi o'ziga xosliklar qayta tiklanadi.

### Xulosa

Transformatsiyalarni leksik va grammatik turlarga bo'lib o'rganish jarayonida shuni anglashimiz kerakki, amaliyotda ushbu o'zgarishlar doimo kuzatiladi. Yuqorida aytib o'tilgan leksik va grammatik transformatsiyalar qo'llashdan asosiy maqsad tarjimonga yuqori sifatli muqobillikka erishish uchun yana bir imkoniyat yaratishdir.

### Munozara uchun savollar:

1. Tarjima transformatsiyalari nima?
2. Tarjimada o'rin almashtirish nima?
3. So'z shaklini almashtirish nima?
4. Gap bo'lagini almashtirish nima?
5. Sintaktik birliklarni almashtirish nima?
6. Leksik birliklarni almashtirish nima?
7. Kompensatsiya nima?
8. Antonimik tarjima nima?
9. Tushirib qoldirish nima?

### **Tarjimaning stilistik muammolari**

#### Reja:

1. Tarjima jarayonida stilistik muammolar.
2. Asliyati matn uslubi.
3. Asliyati tilida mavjud bo'lgan stilistik birliklarni tarjimada qayta yaratish.
4. So'zning stilistik bo'yoqdorligi.
5. Badiiy adabiyot tarjimasida muallif uslubini saqlash masalasi.

Ta'limiy maqsad: talabalarni tarjima jarayonidagi leksik birliklar va ularning muvofiq muqobillarini topish usullari bilan tanishtirish.

Tayanch soʻz va iboralar: qiyosiy stilistika, asliyat matn uslubi, stilistik vositalar, soʻzning stilistik boʻyoqdorligi, badiiy tarjimada muallif uslubini saqlash, uslubiy muammo, badiiy asar tili va uslubi.

Stilistika tilshunoslikning ajralmas qismi boʻlib, u badiiy nutqning ifodalanish uslublari, ularning taʼsirchanligi va, umuman, inson nutqini oʻrganadigan fandır. Qiyosiy stilistika bevosita qiyosiy tipologiya bilan bogʻlangan boʻlib, uslublarni tahlil qilish yoʻllari, atamalar va ularning tuzilishini ham oʻrganadi. Bunda ularning mavhumlik darajasi, maʼno xususiyatlari, toʻgʻri va koʻchma maʼnolarning ifodalanishi, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanish qoidalariga koʻra tahlil olib boradi. Shu yoʻnalishda frazeologik turgʻun birikma va oʻzgaruvchi soʻzlar tahlili ham beriladi.

E. G. Etkind tarjimini ikki tilning qiyosiy stilistikasi, deya taʼriflaydi. Chunki badiiy tarjimaning vazifasi – asl nusxaning uslubiy qiyofasini oʻz tilida qayta yaratishdan iborat. Demak, qiyosiy-uslubiy tadqiqot ikki til lisoniy vositalari mazmunining uslubiy jihatdan oʻzaro mos kelish-kelmasligi haqida toʻgʻri hukm chiqarish imkonini yaratadi.

Badiiy asar tili va uslubi xilma-xil badiiy-tasviriy va uslubiy vositalar silsilasining oʻziga xos ravishda rang-barang shakl va koʻrinishlarda namoyon boʻlishidir. Ular asarning badiiy qiymati va obrazli asosini tashkil etadi. Bu jarayonda ayrim lisoniy-uslubiy birliklar shu vosita va uslublar tarkibidan shartli ravishda ajratib olinib, ilmiy tahlil qilinadi. Zero, asarning badiiy obrazi asosini tashkil etadigan vosita va usullar yigʻindisi tarjimada qay darajada aks etganligi koʻp jihatdan uning tarkibidagi alohida lisoniy-uslubiy vositalar vazifalarining qayta yaratilish darajasiga bogʻliq. Ammo tarjimaning asliyat ruhini qay yoʻsinda ifoda eta olganligi haqidagi xulosa matniy uygʻunlik asosida chiqariladi. Bundan tashqari, asliyat matnda uning milliy xususiyatini belgilaydigan son-sanoqsiz lisoniy-uslubiy vositalar uchraydiki, bunday oʻziga xos buyoqli birliklarga oʻzga tarixiy-madaniy jarayon sohiblari boʻlmish xalqlar tilidan goho muqobil vositalarni tanlash imkoni boʻlmaydi.

Mazkur bo'shliq tarjimonning asliyat sohiblariga xos milliy xususiyatlarga murojaat qilishi orqali to'ldiriladi. Busiz hech bir tarjima o'z maqsadiga erisha olmaydi.

Tarjimadagi uslubiy muammolar ikki til matnlarining janrlarga ko'ra muvofiq kelishini taqozo etmaydi. Shuning uchun tarjimada asliyat vositalariga vazifaviy uyg'un til birliklari tanlash muammosini o'rganish masalasi muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Demak, qiyosiy stilistika asliyat va tarjima tillari lisoniy-uslubiy vositalarini qiyosiy tahlil qilish orqali tarjima amaliyotini umumlashtirish vazifasini qo'yib, tarjima matnning asliyatga moslik darajasini belgilash uchun xizmat qiladi.

Metafora – ikki narsaning ayrim tasodifiy belgilariga, bu belgilarning o'xshashligiga asoslangan ifoda usulidir. U lug'aviy-mantiqiy va ko'chma-matniy ma'nolarning o'zaro munosabatiga asoslanadi. Masalan, «til» o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan birikmalarni ko'rib chiqamiz: issiqdan itning tili osilgan (o'z ma'nosida); soatning tili, qo'ng'iroqning tili (ko'chma ma'nolarda).

Metafora ingliz tilidagi gazeta uslubida juda ko'p qo'llanadi. Tarjimada esa ularni hamma vaqt ham metafora shaklida berish qiyin kechadi.

Asliyatda mantiqan erkin ma'nodagi so'zlar yordamida bayon etilgan fikr tarjima tilida har xil lug'aviy ma'noga ega lisoniy vositalar – asliyatdagi vositaga moddiy jihatdan yaqin hamda undan leksik tarkibi bilan farq qiladigan til birliklari yordamida ifoda etiladi. Kontekstual sinonimik qatorni tashkil etadigan bunday variantlarning moddiy jihatdan asliyatdagi birlikka yaqini ko'proq o'zga tillar ta'sirida hosil qilingan bo'ladi. Uning nutqda, xususan, tarjimada uchrashi, so'zlarning o'zaro birikuvi, fikrning me'yor doirasida ifoda etilishi nuqtai nazardan hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi. Undan leksik tarkib jihatidan farq kiladigan birikma esa, asosan, azaldan tarjima tilining «mulki» hisoblanadi. Tarjimada aynan shu variantga murojaat qilish tarjima tilining tabiiyiligini yuzaga keltiradi. Chunki bu yo'l nafaqat fikrning to'g'ri talqin etilishini, balki ifodaning sof o'zbekona jarangdorligini ham ta'minlaydi.

Masalan, rus kishisi farzand ko‘rmagan odamga nisbatan on bil bezdeten birikmasini ishlatsa, o‘zbek jo‘ngina qilib, u befarzand edi deyishi mumkin. Ifoda hech qanday e‘tirozga sabab bo‘lmaydi. Ammo ona tili nozikliklarini biladigan o‘zbek bunday noqulay vaziyatda u tirnoqqa zor edi iborasidan foydalanishni afzal ko‘radi.

Piter Abrahamsning «Qabrdagi gulchambar» romani personajining shikoyatomuz ohangda aytgan I didn't sleep last night gapini o‘zbek tiliga moddiy jihatdan aniq Kecha mutlaqo uxlamagan edim tarzida o‘g‘irish ham tabiiy jaranglagan bo‘lar edi. Ammo san’atkorning o‘z mas’uliyatiga ijodiy yondashib, mazkur fikrning sof o‘zbekcha bayoni haqida o‘ylashi jumlaning og‘zaki nutqqa xos Kecha mijja qoqmagan edim shaklidagi ajoyib talqinini yuzaga keltirgan: It gave me chance to sleep, I didn't sleep last night. (WU, 131) – Hechqisi yo‘q, qaytanga uxlab oldim, kecha mijja qoqmagan edim. (QG, 136).

Shunday qilib, barcha unsurlari o‘z ma’nosida qo‘llanilgan so‘z birikmalari va hatto jumalarni tarjima qilishda ham moddiy aniqlik yo‘lidan borish hamma vaqt ham kutilgan ta’sirchanlikka olib kelavermaydi. Pragmatik mutanosiblikka erishishda asliyat matn birliklari tarjimasiga ijodiy yondashish, tarjima tilida mavjud sinonimik variantlarning qaysi biri ushbu holatga ko‘proq mos kelishini aniqlash zarurati tug‘iladi. Zero, muayyan fikr asliyat tilida bir ifoda yordamida bayon etilsa, tarjima tilida moddiy jihatdan o‘zgacha ifoda vositasi orqali maqbulroq aks ettiriladi. O‘z ona tilida juda ko‘p so‘z boyligiga ega mohir tarjimon, odatda, lug‘aviy muqobillikdan ko‘ra vazifaviy uyg‘unlikka ko‘proq e‘tibor berib, badiiy matnning estetik xususiyatini qayta yaratadi.

Shunday hol, ayniqsa, dialogik nutq tarjimasida misolida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Bu, xususan, madaniyat darajasi va bilim saviyasi bilan bir- biridan ajralib turadigan personajlar nutqi tarjimasida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo‘llangan obrazli yoki hissiy-ta’sirchan lisoniy vositani, balki amaliy jihatdan qiyinchilik tug‘dirmaydi deb tasavvur qilinadigan erkin ma’nodagi u yoki bu so‘z yoxud so‘z birikmasini o‘g‘irishda ham har doim o‘sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so‘z yoki so‘z birikmasi aniqroq va to‘laroq ifoda etishi mumkinligi, mavjud

variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga ko‘proq mos kelishi haqida o‘ylashi va doim o‘z oldiga nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etish mumkin degan savolni qo‘yishi zarur.

Mehmonni taomga taklif etayotgan rus kishisi: «Proshu, k stolu!» – deydi. Ammo o‘z ona tilidagi so‘z boyligi ko‘p va o‘zi mansub xalq an’anasidan yaxshi xabardor o‘zbek taomning stol ustiga tortilgan bo‘lishiga qaramasdan, mehmonga:

«Marhamat, dasturxonga!» – deya lutf qiladi.

O‘zbek tilida «hali bunisi holva» degan frazeologik birlik mavjud bo‘lib, u, asosan, biror azob-uqubatning kelajakda muqarrar tarzda sodir bo‘ladigan tashvish va uqubatlar oldida arzimas ekanligini obrazli ifoda etadi. Shu fikr ingliz va rus tillarida erkin ma’nodagi so‘zlar yordamida bayon etilgan ekan, o‘zbek tilida ham uni shu tariqa ifoda etish imkoniyati mavjud. Ammo muqobil nutqiy vaziyatlarda o‘zbek tilida, odatda, quyidagi misol tarjimasidagidek, eslatilgan frazeologizmdan foydalanish tabiiy o‘zbekona jarangdorlikni yuzaga keltiradi: Does that sting? Good, that’s nothing to how it will feel later. The pain hasn’t started yet. – Nima, kuydiryaptimi?

Bunisi holva. Hamma hunarini keyin ko‘rsatadi.

### Xulosa

Uslub – tilning bezagidir. Asliyat tilining o‘ziga xosligini, undagi go‘zal va betakror jarayonlarni tarjimada aks ettirish – har bir tarjimon oldida turgan vazifa. Badiiy matn tarjimoni bu hodisa bilan chambarchas bog‘liq.

Stilistik bo‘yoqdorlikni aks ettirish tarjimondan o‘ziga xos mahoratni talab etadi. Bunda, albatta, pragmatikaning ham roli katta.

Tarjimaning stilistik muammolari tarjimondan badiiy adabiyotning qayta yaratilishida muallif uslubini saqlash, o‘zga madaniyatga oid asar tarjimasida uslub, shakl va ma’noni berish, asar qahramonining shaxsini ochib berishda stilistik bo‘yoqdor so‘zlar tarjimasida kabi masalalarni bartaraf etishni ko‘zda tutadi.

### Munozara uchun savollar:

1. Tarjima jarayonida qanday stilistik muammolar paydo bo‘ladi?
2. Asliyat matn uslubini tarjima jarayonida qanday o‘zgarishlarga uchrashi mumkin?

3. Asliyat tilida mavjud bo'lgan stilistik birliklarni tarjimada berilishining muammolari haqida so'zlang.
4. So'zning stilistik bo'yoqdorligi nima?
5. Asar qahramonining shaxsini ochib beradigan uslubiy bo'yoqdor so'zlar tarjimasi haqida so'zlang.
6. Tarjimada birliklarning grammatik sathda almashib kelishi nimaga olib keladi?
7. Badiiy adabiyot tarjimasida muallif uslubini saqlash muhimligi haqida so'zlang.
8. Boshqa madaniyatga oid asar tarjimasida qanday uslubiy muammolar kelib chiqadi?
9. Tarjimada saqlanishi lozim bo'lgan uslub, shakl va ma'no qanday tarjima qilinishi zarur.
- 10 Asliyat matn muallifi uslubi bilan tarjimon uslubi yaqin bo'lishi kerakmi? Nima uchun?

### **Tarjimaning pragmatik masalalari**

Reja:

1. Tarjimada pragmatika tushunchasi va tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rni.
2. Tarjimaning pragmatik salohiyati.
3. Tarjima jarayonida pragmatik ma'noning tushirib qoldirilishi.
4. Pragmatik ma'noning asosiy xususiyatlari.
5. Pragmatik ma'no va tag bilimlar.

Ta'limiy maqsad: talabalarni asliyatning pragmatik xususiyatlari va uni tarjimada qayta tiklashning o'ziga xos xususiyatlari, matnning pragmatik salohiyati, uni tarjimada aks ettirish, pragmatik adaptatsiya, tarjimaning asliyat pragmatik yo'naltirilganligiga bog'liqligi bilan tanishtirish.

Tayanch so'z va iboralar: tarjima pragmatikasi, pragmatik salohiyat, tarjimada tag bilimlarning (fonoviy znaniya) ahamiyati, pragmatik ma'no, transformatsiya,

soʻzning uslubiy boʻyoqdorligi, pragmatik aloqa, semantik aloqa, milliy boʻyoqdor soʻzlar, tarjimon malakasi, muallif uslubini saqlash.

Pragmatika (yunoncha pragma – harakat) – muayyan nutq jarayonida belgilar va ularning ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatni oʻrganuvchi semiotikaning bir boʻlimidir. Pragmatikaga bugungi kunda til vakillarining muayyan soʻzlar va semantik konstruktsiyalar yordamida oʻz munosabatini bildirish va suhbatdoshning munosabatini tushunish darajasi, yaʼni mavjud vaziyatdan kelib chiqib munosabat bildirish sifatida qaraladi.

Pragmatika amaliyotining rivojlanishida uch bosqich kuzatiladi:

Birinchi bosqich. 1930 yilda «pragmatika» atamasi birinchi marta semiologiya-semiotika (belgilar haqidagi fan)ning boʻlimi sifatida qoʻllanildi. Karnapning taʼkidlashicha (1938), pragmatika tildan foydalanuvchining soʻz va munosabatlariga asoslangan boʻladi. Charlz Morris semiologiyani 3 qismga ajratadi (1940): sintaktika, semantika va pragmatika.

Greysning fikricha, implikaturalar harfiy muqobili boʻlmagan aspektlar maʼno va mantiqni ifodalashning maʼqul yoʻli hisoblanadi. Yaʼni shu yoʻl bilan til birliklarining shartli strukturasi nima nazarda tutilayotganligi emas, balki nimaga ishora qilinayotgani oʻrganiladi.

Ikkinchi bosqich. 1950–1960 yillarda faylasuflar (Austin, Serl va Paul Gris) nutq kommunikatsiyasi va implikatura nazariyasini yaratdi.

Uchinchi bosqich. 1977 yilda Yakob L.Mey Gollandiyada birinchi «Pragmatika» jurnalini nashr ettirdi. 1983 yilda chop etilgan Levinning «Pragmatics», Jeofrey Lichning «Principle of pragmatic association» nomli kitoblari bu sohada jiddiy tadqiqotlardan edi. 1988 yilda IPA (International Pragmatics Association)ning tashkil etilishi pragmatikaning fanda dolzarb yoʻnalish sifatida oʻrin egallaganligini koʻrsatadi.

Jahon tilshunosligida pragmatikaning Britaniya va Amerika maktablari shakllandi. Bu maktablar gap strukturasi va grammatikasini deytik ifodalashga yoʻnaltirilgan edi. Pragmatik maʼnoning taʼsiri bayon mazmuni va shakli uygʻunligida namoyon boʻladi. Tarjima jarayonida pragmatik maʼnoning maʼlum qismi tushib qolishi

mumkin. Noytbertning fikricha, pragmatik ma'noning tarjimaga ko'chishi quyidagicha sodir bo'ladi:

- 1) tarjimaga ko'chishning yuqori darajasi (ilmiy-texnikaviy adabiyot va h.k.);
- 2) tarjimaga cheklovlar bilan ko'chish (boshqa til vakillari uchun informatsion-analitik materiallar tayyorlashda);
- 3) asliyat pragmatikasining deyarli tarjimaga ko'chmaslik holati (matn muayyan til vakillarigagina qaratilgan bo'lsa).

Katrin Raysning ta'biricha, pragmatik ma'noni alohida etkazib berish imkoni yo'q. Tarjima buyurtmachining manfaatlariga mos kelishi kerak.

Ko'rinadiki, pragmatika – bu til jamoasining til birliklariga bo'lgan sub'ektiv munosabati. Ularning bu munosabatdagi komponentlari xususiyatlari tilning pragmatik xususiyati tushunchasini keltirib chiqaradi. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikdagi pragmatika tushunchasi faqatgina til birikmalarining pragmatikasi tushunchasini o'z ichiga olmaydi.

Bu tushuncha ancha keng bo'lib, u yoki bu tilning kommunikativ jarayon ishtirokchilari va voqea syujeti xilma-xilligi hamda ishtirokchilarning malakasiga ham bog'liqligini ifodalaydi. Aynan so'z ikki har xil guruh vakillari tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Misol uchun, «haqqa etishish» birikmasi ilohiyat ilmining hadisini olgan kishilarda bosh qacha tasavvur uyg'otasa, oddiy kishilarda yoki g'ayridinlarda umuman boshqacha tasavvur uyg'otadi. Tilning pragmatik muammolari referentsional baholovchi ma'nolarni o'rganishga nisbatan kam tadqiq qilingan.

L.S.Barxudarov tarjimada retseptorning qabul qilish darajasini o'rganishda har bir so'zning leksik-semantik ma'nosini quyidagi tiplarga bo'lib o'rganishni tavsiya qiladi:

- 1) so'zning stilistik tavsifi.
- 2) so'z ma'nolari ro'yxati.
- 3) so'zning emotsional bo'yog'i.

So'zning stilistik tavsifi va pragmatik ma'no. Hamma janrlarda qo'llanuvchi (ya'ni stilistik betaraf) so'zlar bilan bir qatorda, qo'llanish doirasi cheklangan so'z va so'z birikmalari mavjudki, ularni ma'lum janrlar va tillar uchungina qo'llash

mumkin. Bunday cheklashlar soʻzlarning stilistik tavsifini belgilab beradi. Shu maqsadda ham tarjimashunoslikda «stilistik tavsifnoma» atamasi koʻp qoʻllanadi.

Maʼlumki, nutqni ifodalashning ikki asosiy koʻrinishi hisoblangan ogʻzaki-soʻzlashuv va yozma turlari mavjud. Yozma nutqning quyidagi asosiy janrlari mavjud: 1) badiiy adabiyot; 2) rasmiy-ilmiy janr; 3) publitsistik janr va sh. k. Bu janrlarning har biri kichik guruhlariga boʻlinadi. Masalan: badiiy adabiyot – badiiy proza; dramaturgiya va sheʼriyatga, rasmiy-ilmiy janr rasmiy matnlarga, publitsistikaning oʻzi siyosiy adabiyot, gazeta va jurnal janrlari kabi turlarga boʻlinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ingliz va oʻzbek tillarida quyidagi stilistik xarakterdagi soʻzlarni uchratishimiz mumkin:

1. Neytral – lugʻat tarkibining yadrosini tashkil qiluvchi va hamma janrlarda qoʻllanadigan soʻzlar.
2. Ogʻzaki- soʻzlashuv – ogʻzaki nutqda, norasmiy va ziyatlarda ishlatiladigan soʻzlar. Ular yozma nutqda qoʻllanilmaydi, ammo badiiy asarda personaj nutqini ifodalash uchun istifoda etiladi.
3. Kitobiy– kitobiy nutqning hamma turida qoʻllaniluvchi va ogʻzaki soʻzlashuvda doimiy ishlatilmaydigan, yuzaga keladigan maʼlum bir vaziyatlardagina qoʻllaniluvchi pragmatik maʼnoli soʻzlar.
4. Poetik – faqat sheʼriyatda ishlatiladigan koʻtarinki ruhdagi pragmatik maʼnoli soʻzlar.
5. Terminologik – bu turga ilm-fanga oid pragmatik maʼnoli soʻzlar kiradi.

Har bir millatning fikrlash doirasi, maʼnaviy dunyosi bir-biridan farq qiladi. Buni, koʻpincha, millatning diniy eʼtiqodi va falsafiy mushohadalarining turlicha ekanligi bilan izohlash mumkin. Ammo bir-biridan uzoq qitʼa va oʻzaro qardosh boʻlmagan tillarda umuminsoniy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar ham bor. Masalan, Humboldt universiteti oʻqituvchisi doktor Doris Shuls bir masalaga eʼtiborni qaratadi: nemis va oʻzbek tillaridagi «mehmondoʻstlik» (gastfroendshtaft) soʻzi bir xil maʼnodagi ikki: gast (mehmon), froendshtaft (doʻstlik) soʻzlaridan tarkib topgan.

Demak, tili va dini bo'lakcha xalqlar orasida ham mushtarak tushunchalarni anglatuvchi so'zlar mavjud. Tarjimondan ana shunday sinchkovlik bilan o'z tili va tarjima leksikasini qiyoslab o'rganish, har bitta so'zning eng muqobil variantini tanlash talab qilinadi.

Ba'zi hollarda bitta jumlada ikki-uch xil pragmatik emotsional bo'yoq uchrashi mumkin:

Ba'zan neytral yoki emotsional pragmatik ma'no ifodalovchi so'zlar qahramon xarakterini yorqinroq ifodalash maqsadida makrokontekstdan kelib chiqib, salbiy emotsional so'zlar bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, E. Hemengueyning «Alvido, qurol» asaridagi “Devushki zdes uvideli, chto takoe front” jumlasini Ibrohim G'afurov Bu onasi o'pmagan o y i m t i l l a l a r urush nimaligini shu erga kelib bilishgan shaklida tarjima qiladi. Bu erda qizlarning holati tarjimon qo'llayotgan kinoya bo'yog'iga ega bo'lgan pragmatik ma'noli so'z orqali ochib beriladi. Quyida yana pragmatik emotsional ma'noli so'zlardan misollar keltiramiz: Money (neytral emotsional). Dough, Dash (salbiy emotsional). Food (neytral emotsional).

Meal, Dish (ijobiy emotsional). Grub (salbiy emotsional).

To live (neytral emotsional).

To hand out (salbiy emotsional).

Demak, og'zaki-so'zlashuv nutqidagi so'zlar maishiy (famiyalar) va erkin so'zlashuv guruhiga, kitobiy leksikadagi so'zlar rasmiy so'zlar guruhiga, she'riyatda qo'llanuvchi so'zlar esa ko'tarinki ruhiyatdagi so'zlarga mos kelishi mumkin. Pragmatik ma'noni o'g'irishda qiyosiy birikmalar, metaforalar muhim rol o'ynaydi. «Tulkidek ayyor», «eshakdek qaysar», «quyondek qo'rqq» kabi metaforalar aslyatda uchrasa, ularni tarjima qilishdan avval tarjima tilida ham shunga o'xshash tasviriy ifoda vositalari bor-yo'qligini aniqlash, yo'q bo'lsa, kontekst mazmunidan kelib chiqib, ularni tarjima tilidagi shu ma'nolarni anglatuvchi bosh birliklar bilan almashtirish yaxshi natija beradi.

Ta'sirchan va jonli nutqning vujudga kelishi pragmatik mazmundagi maqol, matal va frazeologizmlarga bog'liq. Notiqlar o'z nutqining pragmatik ta'sirchanligini oshirish uchun ana shu vositalardan keng foydalanadi. Shu

maqsadda yozuvchilar ham o'z asarlarida maqol, matal va frazeologizmlardan, jonli so'zlashuv tilining pragmatik elementlarini o'rni bilan ishlatadi. Frazeologik birikmalarning kelib chiqishi va taraqqiyoti har bir tilning rivojlanish tarixi, lingvomadaniy va mintaqaviy-geografik sharoiti, qo'llaniladigan lisoniy vositalarning pragmatik ma'nosi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, mahalla va ko'chada har kuni ariq bilan yuzlashadigan o'zbeklarda Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q maqoli ancha mashhur. Ota-bobolarimiz yonlaridan oqib o'tuvchi beminnat ariq suvi orqali bog'dorchilik qilib, ko'cha betlarini ko'kalamlashtirgan. Ammo kishilar kunlik ehtiyojga aylangan suvning qadriga etmay, ariqlarga axlat to'kib, iflos qilgan, bu holat esa kishilarga beminnat hizmat qiluvchi, ammo bu xizmati qadr topmagan odamga muqoyasa qilingan. Shuningdek, mazkur ibora orqali kishilar qadrlamay qo'ygan buyum yoki voqea-hodisa ham ifodalanadi. Masalan: Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, o'zimizning qishloq kasalxonasida ham muolaja uchun sharoit etarli bo'lsa, shaharga borish qayoqdan chiqdi. Biroq ingliz va rus tillarida bu frazeologik birlikning muqobili yo'q:

«Tarjima qilinishi mushkul til birliklari» tizimida salkam birinchi o'rinda turuvchi til birliklari pragmatik ma'noli munosabatlarni ifodalovchi frazeologizmlar hisoblanadi. Ular tarjima muammolarini o'rganuvchi amaliyotchi tarjimonni ham, nazariyotchi tarjimashunosni ham jiddiy o'ylashga majbur qiladi. Tarjimashunos olimlar Sh. Balli, V.V. Vinogradov, B.A.Larin, Q. Musaev va N.M.Shanskiy, A.V.Fedorov, Reysker, S.Vlaxov va F.Florin, A.Narziqulovning ishlarida frazeologizmlar tarjimasi muammolari chuqur tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning berilishida asosiy maqsad kommunikatsiya jarayonida pragmatik ma'noni tarjimada to'liq qayta tiklashdir. Frazeologik birliklarni tarjimada berishda so'zma-so'z tarjima, analogik tarjima va izohli tarjima usullaridan foydalaniladi.

V. N. Komissarovning ta'kidlashicha, har qanday til belgisi, odatda, uch xil munosabatni o'zida mujassam etadi. Bular semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlar bo'lib, birinchisi – til belgisining predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadigan va uchinchisi – til belgisi bilan muloqot jarayonida

undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani namoyon qiladigan munosabatlardir. Shunday qilib, til belgisi semantik, sintaktik va pragmatik ma'nolari bilan ajralib turadi.

Tarjimon tarjima jarayonining birinchi bosqichida asliyatning retseptori sifatida namoyon bo'ladi va matnda mavjud ma'lumotlarni imkoni boricha to'liqroq olishga harakat qiladi. Buning uchun u asliyat tili sohiblari ega bo'lgan tag bilimlarga ega bo'lishi, ya'ni asliyat tilida so'zlovchi xalqning tarixi, madaniyati, adabiyoti, urf-odatlarini, hayot tarzi kabilardan xabardor bo'lishi shart. Har qanday asliyat retseptori kabi tarjimonda ham berilayotgan ma'lumotga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanadi. Lekin tarjimon bunday shaxsiy munosabat tarjima aniqligiga putur etkazmasligiga intilishi zarur. Shu ma'noda tarjimon pragmatik jihatdan neytral bo'lishi kerak.

Tarjima matn retseptorining tag bilimlarga ega emasligi ko'zda tutilayotgan ma'lumotni tushuntirib berish zaruriyatini tug'diradi va tarjima matnga kerakli qo'shimcha va aniqliklar kiritishni talab etadi. Bu jarayon tarjimaning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi.

Qo'shimcha quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: AQShdagi Massachusetts, Oklahoma, Virgina; Kanadadagi Alberta, Manitoba yoki Middlesex, Surrey kabi jug'rofiy nomlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda, odatda, shtat, provintsiya, graflik kabi so'zlar qo'shiladiki, bu bilan o'zbek o'quvchisiga nomlarning nimani anglatishi haqida ma'lumot beriladi.

Shuningdek, bunday qo'shimchalar tashkilot, kompaniya va nash riyotlar nomlari kabilarga ham qo'shilishi mumkin.

The ecological movement in Spain is on the increase, «Newsweek» reports. – «Nyusvik» jurnalining yozishicha, Ispaniyada ekologik harakatlar tobora avj olmoqda. Bu jumla tarjimasida so'z oldiga jurnal so'zi qo'shilmasa, u o'zbek tarjimoniga tushunarli bo'lmay qolishi mumkin.

Bunday izohlar asliyat tilida mavjud bo'lgan, biroq o'zbek kitobxonini uchun notanish bo'lgan xalq va uning turmush sharoitiga oid voqea-hodisalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ayrim hollarda bu kabi qo'shimcha izoh matn ichida yoki havola (snoska)da ham berilishi mumkin.

Tarjimaning pragmatik muammolari tarjimaning kimga mo'ljallangani, asliyatning joriy-uslubiy janr xususiyatlari va o'quvchi saviyasiga ham bevosita bog'liq. Badiiy adabiyot tarjimonlari asliyatning pragmatik salohiyatini berishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Tarjima o'quvchi tomonidan to'g'ri tushunilishi uchun asliyat va tarjima matnlar orasidagi pragmatik farqlarga tegishli o'zgartishlar kiritilishini talab etadi.

Tarjima qilinayotgan matnni axborot qabul qiluvchiga tushunarli tilda qayta yaratish zarurati tarjimonni asliyatdagi tushunilishi qiyin bo'lgan elementlarni pragmatik ma'noda etkazish uchun qo'shimcha izohlar berishga majbur qiladi. Bunday elementlar asliyat tili kitobxonlari uchun bimalol tushunarli bo'lsa-da, tarjima tili kitobxonlari uchun hech narsani anglatmaydi.

The Prime-Minister spoke a few words from a window in No.10. Bu jumlaning o'qigan har qanday ingliz Londonning Dauning strit ko'chasidagi 10-uyda Bosh vazir qarorgohi joylashganini yaxshi tushunadi. Ammo o'zbek kitobxonini buni bilmasligi mumkin va shu sababli tarjimada bu jumladagi so'zlarni leksik transformatsiya orqali izohli o'girishga, ya'ni ayrim leksik birliklar o'rniga boshqa so'zlar ishlatishga majbur:

Bosh vazir o'z qarorgohi balkonidan qisqa nutq so'zladi. Ko'pincha, bunday transformatsiyalar umumlashma xarakterda bo'ladi, ya'ni konkret ma'noli so'zlar tarjima tilida hammaga tushunarli bo'lgan umumiy ma'noli so'zlar bilan almashtiriladi.

Ilmiy-texnikaviy adabiyotlar tarjimasida pragmatik o'zgartishlar qilish zarurati kamroq. Chunki bunday matnlar shu soha bo'yicha maxsus bilimlarga, bir xil miqdordagi tag bilimlarga ega tor doiradagi mutaxassislarga mo'ljallangan bo'ladi. Bunday axborot har ikkala til mutaxassislari uchun umumiy maxsus so'z va atamalardan iborat bo'lib, faqat firma nomlari, o'lchov birliklari va maxsus nomenklatura nomlarnigina izohlashga to'g'ri keladi.

Shu ma'noda, xorijiy iste'molchilar uchun mo'ljallangan reklamaga oid axborotlarning pragmatik aspekti haqida alohida to'xtalish zarur. Bu xil matn mualliflari, birinchi navbatda, matnni xorijiy iste'molchining bilim saviyasi, tili, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ish yuritishlari lozim. Bunday holatlarda

tarjimonning ishi ancha osonlashadi, chunki axborot mazmunini to'liq tushuntirish uchun unchalik mashaqqat chekmaydi. Shunday bo'lsa- da, ayrim hollarda matnning pragmatik imkoniyatini tarjimada qayta tiklash ancha mushkul kechadi. Chunki tarjimon har qanday holatda ham, eng avvalo, xorijiy axborotni o'z xalqiga tushunarli tilda tarjima qilishga, unga ma'lum miqdorda o'zgartishlar kiritish, umumlashtirish, qisqartirishga majbur bo'ladi.

Tarjimaning pragmatik muvofiqligini ta'minlashda tilning turli lahjalarida so'zlovchi, bir-biridan farq qiluvchi ijtimoiy-lisoniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Jumladan, asliyat matnda til me'yorlaridan chekinish, dialektlarga xos so'zlardan stilistik maqsadlarda foydalanish va sh. k. ham muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Asliyat tilidagi shevaga xos so'zlar tarjima tiliga o'zicha tarjima qilinmaydi. Ularning matn ichida ishlatilishi ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, badiiy asar boshdan-oyoq xorijning muayyan bir tilida yozilgan bo'lishi mumkin. Bunda dialekt tili tarjima qilinsa, tillararo aloqa vositasi vazifasini bajarishga kirishadi va tarjima xuddi har qanday umummilliy tildan amalga oshirilgan hisoblanadi. Tabiiyki, bunday holda tarjimon sheva tilining o'ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo'lishi lozim. Ikkinchi tomondan, shevaga xos unsurlar muallif tomonidan alohida personajlar tilining o'ziga xos xususiyatlarini, uning ma'lum bir xududda yashovchi xalqning tipik vakili ekanligini ko'rsatish uchun ham ishlatiladi. Bunday holatda asliyat tilining shevalarga xos pragmatik xususiyatlarini tarjimada qayta tiklash hech qanday natija bermaydi. Agar asliyat tilidagi personaj «kokni» deb ataladigan London dialektida gapirib, so'zlarga adabiy tilda mavjud bo'lmagan h tovushini qo'shib gapirsa yoki bu tovushni zarurat bo'lmagan holatlarda tushirib gapirsa, yoki

He 'as a good hear deyish o'rniga He has a good \_ear deb talaffuz qilsa va tarjimon bu xususiyatni saqlab qolish uchun tilda mavjud bo'lmagan an'anadan foydalanib, U yaxshi eshitish qobiliyatiga ega deyish o'rniga, U yaxshi x eshitish xobiliyatiga ega deb tarjima qilsa, bu butunlay bema'nilik bo'lardi.

Shuningdek, tarjimon o'zbek tilining shevaga xos so'zlaridan foydalanishi umkin emas. Masalan, Mark Tvenning Missui shtatida yashaydigan qora tanlini Xiva yoki

Asakada yashaydigan aholi tili bilan gapirtirish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham o'zini oqlamaydi.

Ko n t a m i n a t s i y a – o'zaro o'xshash ikki so'z yo ibora qismlarining chatishuvi natijasida yangi so'z yoki iboraning paydo bo'lishi:

Kontaminatsiyalashgan shakllardan foydalanishda, odatda, oddiy xalq tilida ishlatilgan shakllardan, so'zlashuv usulidan, murakkab grammatik, sintaktik shakllardan (ergashgan qo'shma gaplardan, sifatdoshlardan) qochish kuzatiladi.

Shuni e'tibordan soqit qilmaslik lozimki, ayrim standart kontaminatsiyalashgan nutq namunalari nafaqat xorijiy kishining o'zga tilda gapirishi, balki sodda, avom odamning nutqi sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Masalan, rus tilini uncha yaxshi bilmaydigan qishloqlik dehqon o'z fikrini rus tilida quyidagicha bayon qilishi mumkin: *Tvoya moya ponimay netu ili malo-malo.*

Tarjimada kontaminatsiyalashgan unsurlarni tanlash va ishlatish asliyat matndagi pragmatik tavsifga mos kelishi muhim. Ko'p hollarda tarjimaning pragmatik maqsadi kitobxonida ko'zda tutilgan kommunikativ ta'sir bilan belgilanadi. Tarjimada qayta tiklanadigan kommunikativ ta'sir asliyat etakchi (turg'un) funktsiyasining qayta tiklanishidir.

Badiiy asarning kitobxonga ta'sir kuchi matnning badiiy qimmati, kitobxonni o'ziga jalb qila olishi bilan belgilanadi. Bunday badiiy matn tarjimasining pragmatik vazifasi tarjima tili matnida ham asliyatdagidek kitobxonga badiiyestetik zavq uyg'ota oladigan matn yarata olishdir. O'z ona tilida Shekspir, Dikkens asarlarini o'qigan kitobxon asliyat muallifining badiiy iste'dodini his qila olishi, nima uchun ular o'z vatanlarida buyuk adiblar sifatida tan olinganligini tushunadi. Tarjimon bunday vazifani uddalay olsa, asliyatning kommunikativ effekti to'la qayta tiklangan deb hisoblash mumkin. Albatta, asliyatning ingliz kitobxonlariga kommunikativ ta'siri va shu asar tarjimasining o'zbek kitobxonlariga ta'sirini qiyoslab baholovchi me'yorlar yo'q. Bu o'rinda asliyat va uning tarjimasi ingliz va o'zbek kitobxonlarida uyg'otgan kommunikativ ta'sirni taxminan belgilash mumkin. Masalan, tarjimani o'qigan kitobxonning reaksiyasi sliyatni o'qigan kitobxonnikiga nisbatan kamroq yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Asliyatning pragmatik xususiyatlarini qayta yaratishda tarjimonning ularni zamonaviylashtirishga urinishi ham asliyat matnning o'zgarib ketishiga olib keladi. Bunda asliyatda tasvirlangan voqea-hodisalar ro'y bergan vaqt va joy bilan tarjimadagi voqea-hodisalarning zamoni va makoni bir-biridan butunlay farq qilib qoladi. Tarjimonga, ko'pincha, boshqa tarixiy davrda yaratilgan asarlar tarjimasi bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi. Bunday matnning tili, voqea-hodisalarining rivoji hozirgi kitobxonlar uchun unchalik tushunarli bo'lmay qoladi. Bu til taraqqiyoti muayyan zamonda yashagan kishilarning, yozuvchilarning dunyoqarashlari bilan ham bog'liq. Shunday ekan, muayyan tarixiy davrda yaratilgan badiiy asar tarjimasi ham qator muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchidan, asliyat tilining ma'lum bir tarixiy davrga taalluqli ekani tarjimada o'z aksini topishi lozim.

Bunday holatda ona tilida mavjud bo'lgan, kam ishlatiladigan, biroq kitobxonlarga tushunarli bo'lgan ayrim tarixiy, arxaik so'zlardan foydalanish zarurati vujudga keladi. Ammo bu arxaizmlar, ayni paytda, tarjima tiliga xos milliy xususiyatlardan xoli bo'lishi, ya'ni usluban neytral bo'lish talab qilinadi. Tarjimada eskirgan so'zlardan foydalanishdan tashqari, asliyat matn ning arxaikligini ta'minlash maqsadida tarjimon til va madaniyatning hozirgi bosqichiga xos, ammo asliyatda tasvirlangan davrga mansub bo'lmagan so'zlardan foydalanishda ham ehtiyotkor bo'lish talab qilinadi. Masalan, asliyatda XVIII asr voqealari aks etgan bo'lsa, personajlar xizmat safariga borishlari, ishlab chiqarishdan tashqari biror narsa bilan shug'ullanishlari, ish vaqtida boshqa ish bilan mashg'ul bo'lmasliklari, muammolarni echishlari, tor doiradagi mutaxassislikka ega bo'lishlari, kadrlar tanlash muammolari bilan shug'ullanishlari, oshirilgan majburiyat olishlari, musobaqa g'olibi bo'lishlariga oid zamonaviy fikr larni kiritmasliklari lozim.

#### Xulosa

Tarjima pragmatikasi muammosi alohida yondashuvni talab qiladigan soha hisoblanadi. Shuning uchun tarjima jarayonida matnning pragmatik xususiyatlarini inobatga olish muhim. Shu bilan birga, matnning mazmuniy- uslubiy bo'yoqdorligini, syujetning ifoda darajasini hisobga olgan holda, leksikaning

stilistik jihatdan o'ziga xosligini, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Munozara uchun savollar:

1. Pragmatika nima?
2. «Tarjima pragmatikasi» atamasiga kimlar izoh bergan?
3. Tarjima pragmatikasi nimani tadqiq qiladi?
4. Tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rnini haqida so'zlab bering.
5. Ingliz tilida yozilgan asardan tarjima tiliga pragmatik ma'no to'g'ri o'girilgan holatlarga misollar toping.
6. Tarjima jarayonida pragmatik ma'no tushirib qoldirilishiga oid misollar keltiring.
7. Pragmatik ma'noning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Tarjima jarayonida pragmatik ma'no va tarjimonning dunyoqarashi haqida so'zlang.
9. Pragmatik ma'noga qanday omillar ta'sir etadi?
10. Pragmatik ma'no va tag bilimlar xususida ma'lumot bering.

### **Milliy realiyalar tarjimasi**

Reja:

1. Tarjimada realiyalarning berilish usullari 2. Realiya nomlarini tarjima qilish muammolari.

Frantsuz va o'zbek tillari topologik va genetik jihatdan turli xil tillardir. Frantsuz tili hind-evropa tillar oilasi roman va slavyan tillar guruhiga kiradi, o'zbek tili esa oltoy tillar guruhiga kiradi. Tarjimada uchraydigan realiyalar nomlari tarjima qilish imkoniyatlari to'rt asosiy hodisa bilan bog'liqdir:

1. Transliteratsiya yoki transkripsiya (toto'liq yoki qisman). Bu vosita realiyalarni aks ettiruvchi qo'llanayotgan so'zni o'z tilida harflab yozish yoki tarjima qilinayotgan tilda fleksiya bilan so'z birikmasida berilishi tushuniladi.
2. Yangi so'z yoki so'z birikmasini yaratish tarjima tilining elementlari asosida mos keluvchi predmetni aks ettirish uchun qo'llaniladi. Bunday tarjima tasviriy, qiyosiy tarzda amalga oshiriladi. Boshqa tildagi realiyalarni, ya'ni realiyalar

tushunchasiga yaqin ma'noni anglatuvchi so'zlarni qo'llash. Bu tarjima kontekst bilan bog'liqlikni anglatadi, ba'zida esa taxminiy ma'noga ega bo'ladi.

3. So'zni qo'llash, ya'ni tarjima qilinayotgan tildagi realiyaga vazifa jihatidan yaqinroq ma'noga ega bo'lgan so'zni qo'llash usulidir. Bunda ba'zida so'zning taxminiy ma'nosini kontekstga moslab qo'llaniladi.

4. Giponimik usul, umumlashtirilgan taxminiy tarjima, tarjima amalga oshirilayotgan tildagi realiyalar tarjima tilida beriladi va tur bildiruvchi tushunchani emas, balki rod bildiruvchi tushunchani aks ettiradi.

1. Transliteratsiya va transkripsiya. Xorij tilidagi realiyalarni etkazib berishning bir necha usuli mavjud. Birinchidan, Yu.S. Maslov "moddiy o'zlashtirish" yoki xususiy ma'nodagi o'zlashtirishni ajratib ko'rsatadi. Bunday hollarda xorij birliklarining nafaqat so'z ma'nosi (yoki so'z ma'nolaridan biri), balki u yoki bu darajadagi yaqin ma'nosi—uning moddiy eksponenti o'zlashtiriladi. "Moddiy o'zlashtirish"ga birinchi navbatda, transliteratsiya va transkripsiya kiradi:

Trasliteratsiya so'zlarni grafik darajada etkazishdir. Masalan: volost, Lada, ukaz, ZIL; transkripsiya esa fonemalar darajasida etkazishdir. Masalan: soumalak, krechtchenie, koulak, sovkhoze.

Transkripsiya va transliteratsiyadan ko'p hollarda atoqli otlar, davlat korxonalari nomlari, o'quv yurtlari va sh.o'. haqida gap borayotganda qo'llaniladi. Ushbu usulning kamchiligi shundan iboratki, bunda usuldan foydalanish tarjimada o'rganilmagan va tushunarsiz so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Matnda transliteratsiyaning qo'llanilishi albatta qavs ichida beriladigan tushuntirish, izoh yoki snoskada tushuntirish orqali amalga oshirilishini taqozo etadi.

Xuddi shuningdek, u yoki bu mamlakatga xos bo'lgan murojaat formalari, mansab, korxonalar hamda turmushda qo'llaniladigan narsalar nomlari ham transliteratsiya qilinadi. Masalan: madam, shef, mister, bos va hokazo.

Keyingi yillarda tarjimada transliteratsiyaning roli benihoya oshib bormoqda.

2) Realiya nomlarini tarjima qilish usulidan tarjimada transkripsiya yoki transliteratsiya jarayonlarini qo'llash mumkin bo'lmaganda foydalaniladi. Ammo bu usul rus va o'zbek tillarida juda kam uchraydi.

Tarjimon realiyalarni soʻzma-soʻz tarjima qilish yoki yarim kalkalash yoʻli bilan neologizmlarni olib kirishi mumkin. Masalan rus tilidagi «neboskrebi» soʻzi, shuningdek, nemis tilidagi "Wolkenkratzer" va frantsuz tilidagi "gratte- ciel" soʻzlari ingliz tilidagi "skyscraper" soʻzidan kalkalangan. Rus tilidagi "dekabrist" soʻzi ingliz tilida "Decembrist", nemis tilida "Dekabrist", frantsuz tilida "Decembriste yoki Dekabrisme", oʻzbek tilida "dekabrist" deb qisman kalka orqali tarjima qilingan.

Kalkalanayotganda "xorijiy soʻzlarning moddiy eksponenti emas, balki uning tarkibi (uning tashkil boʻlish tamoyili) qabul qilinadi: xorijiy soʻzning oʻzlashtirilmagan materialini, xuddi oʻzini kalkalash sodir boʻladi. Masalan, soʻllik – gauchisme, besh yillik – quinquennal, sotsialistik majburiyat – engagement socialistique, mehnat qahramoni – héros du travail, partiyasiz – sans- parti va h.k.

Kalkalash koʻp hollarda frazeologik lakuna (etishmaslik, kamlik) oʻrnini toʻldirishning eng qulay usuli hisoblanadi. Frazeologik lakunarlik - tillararo toifa boʻlib, frazeologik lakunarlikni maʼnosini mos ravishda etkazib berish uchun bir yoki bir necha til taqqoslanayotganda tarjima tilidagi frazeologik elementning mavjud emasligini aniqlab berishda oʻzini namoyon etadi.

N.M. Shanskiy kontekstual va frazeologik kalkalashni ajratib koʻrsatadi.

Frazeologik kalkalash - bu xorij frazeologizmini soʻzma-soʻz tarjima qilish natijasida tilda yuzaga keladigan barqaror soʻz birikmalaridir.

Kontekstual kalkalash - aniq tarjimon tomonidan aniq matnda yaratiladi va kalkalangan birikma maʼnosi manba-tildagi frazeologik birikmaning yorqin va jonli ichki shaklidan kelib chiqqan holda tushunarli boʻlib qoladi. Koʻp hollarda tarjimon tomonidan muvafaqqiyatli amalga oshirilgan kalkalash uning izlanish natijasi hisoblanadi, chunki komponentli va qiyosiy kalkalar - okkazonalizmlar tarjimonning original-til frazeologik anʼanalariga yaqinlashishga bevosita harakat qilganligini aks ettiradi.

Tavsifiy tarjimadan u yoki bu sabablarga koʻra kalkalashning imkoni yoʻqligida foydalaniladi. Mazkur usuldan foydalanilganda komponent tarkibining kengayishi, shuningdek, gapning tarkibiy-grammatik tuzilishini etarli darajada oʻzgarishiga olib keladi. Bunday usul obrazlilik va ekspressivlik hisobiga axborotlarning

yo‘qolishiga olib keladi, matnni milliy kolorit va o‘ziga xoslikdan mahrum etadi. Biroq, u tushunmovchilikni (bu esa ko‘p hollarda yangi so‘zning yangi tushuncha bilan o‘zlashtirilishiga olib keladi) bartaraf etish afzalligiga ega.

O‘xshash ma‘noni anglatuvchi so‘zni qo‘llash taxminiy tarjima deb ataladi va u o‘z ichiga quyidagi tamoyillarni oladi. Jins va tur bildiruvchi almashtirish (ma‘noni umumlashtirish), funktsional analogini qidirish, tasvirlash, realiyaning nomini izohlash yoki tushuntirish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Funktsional analogning qulayligi shundaki, o‘lchovni bildiruvchi realiyalarni tarjima qilishda ular kitobxonda qandaydir sifat tasavvurlarini hosil qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Masalan: rus tilidagi “sto pudov” – yuz pud tushunchasi o‘zbek tiliga “juda og‘ir” degan ma‘noni anglatadi. Uning o‘zbek tilidagi analoglari bo‘lib “zil-zambil”, “bir botmon” kabi iboralarni ishlatish mumkin.

Frantsuz tilidagi “n’avoir ni feu ni lieu” – “ne imet ni kola, ni dvora” frazeologik iborasini o‘zbek tilida – “chipchirg‘asi yo‘q, bitidan boshqa hech narsasi yo‘q, qoqqanda qoziq, osganda xurmacha, ship-shiydam” kabi iboralar bilan tasviriy tarzda ifodalash mumkin.

Realiyalar ma‘nosining tarjimasini uchun usul tanlash muammosi eng avvalo realiya shu tilda to‘liq o‘rganilmagan bo‘lsagina sodir bo‘lishi mumkin. Tarixiy faktlarning, geografik nomlarning yoki mashhur gazeta, jurnallarning nomlarini aks ettiruvchi realiyalarni tarjima qilishda ma‘lumot bera oluvchi manbalarga murojaat qilish lozim.

Shuningdek, ekvivalentsiz leksikaga geografik nomlar, gazeta va jurnallarning, teatrlarning nomlari hamda atoqli otlar va laqablar kiradi. Xuddi ijtimoiy-siyosiy va etnografik realiyalarni tarjima qilishda bo‘lganidek, bu holda ham yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan usullar, ya‘ni transliteratsiya (transkripsiya) yoki transformatsion tarjimaning usullaridan bo‘lgan qo‘shish, tushirib qoldirish, tushunchalarni matnlarda yoki snoskalarda izohlash, taxminiy mos keladigan holatlarni qo‘llash kabi usullaridan foydalaniladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Borisova I.F., Imyaminova Sh.S. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. T., 2005

2. Barxudarov L.S. Yazik i perevod. Voprosi obshey i chastnoy teorii perevoda. M., 1975.
3. Gak V.G., Grigorev. Teoriya i praktika perevoda. Frantsuzskiy yazik. M., «Interdialekt», 2003
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. T., "O'qituvchi", 1983.

### **Og'zaki tarjima. Avtomatlashtirilgan tarjima**

Reja:

1. Og'zaki tarjimaning xarakterli xususiyatlari.
2. Og'zaki tarjimada tarjimonlarga quyiladigan talablar.
3. Avtomatlashtirilgan tarjima.

Yuqoridagi mulohazalarimizda, umuman «tarjima» nima? Uni qanday tushunamiz? Tarjimashunoslik fanining vujudga kelishi, uning adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan bog'liq bo'lishi o'rganildi. Tarjimaning nazariy aspektida o'rganilishi uni turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Endi ko'riladigan masala tarjima turlari to'g'risidadir.

Ma'lumki, har qanday til og'zaki va yozma nutqda ifodalanadi.

1. Og'zaki tarjima.(Og'zaki matnni og'zaki tarjima qilish).

Bunda ikkita til og'zaki nutq formasida ishlatiladi. Mazkur tarjimaning ikki xil ko'rinishi mavjud. 1.Sinxron tarjima (bir vaqtda qilinadigan tarjima). 2.Ketma-ket qilinadigan izchil tarjima.

Og'zaki tarjimada tarjimon aytilayotgan nutq mazmunini tez o'qib olishi, oldindan tayorlanib tez tahlil qilish ko'nikmasini va to'xtamay tarjima qilish usullarini ishlab chiqqan bo'lishi kerak. Og'zaki tarjima jarayonida tarjimon tarjima qilayotgan matnni tuzatish yoki qaytadan taqqoslash imkoniyatiga ega emas. Og'zaki tarjimaning xarakterli xususiyati shundaki, tarjimon matnni avvalo akustik formada, ya'ni eshitib va og'zaki formada eshitganlarini tarjima qiladi.

Og'zaki tarjimaning ikkinchi asosiy xarakterli xususiyati uning o'ziga xos nutqqa ega bo'lishidir. Ayrim hollarda shunday vaziyatlar bo'lib qoladiki, tarjimon notiqdan gapda qachon ega va kesimni aytishini kutib, keyin tarjima qilishga kirishadi.

Masalan, frantsuz va ingliz tillarida quyidagicha sxemada bo'lishi shart:

O'zbek tilida esa:

SPO Sub'ekt – predikat – ob'ekt. SOP Sub'ekt – ob'ekt – predikat.

Shu bois, o'zbek tilidan ingliz tiliga yoki frantsuz tiliga tarjima qilishda, o'zbek tilida predikatning aytilishini kutish lozim bo'ladi.

Misol: Minglab kishilar neytron bombasiga qarshi uyushtirilgan mitingda qatnashdilar.

Thousands of people participated in the meeting of against N-bombs.

Sinxron tarjima – bu tarjimaning shunday turidirki, bunda tarjimon so'zlovchining nutqini eshitib, shu zahotiyok ikki-uch daqiqada tarjima qilishi kerak. Qoidaga muvofiq sinxron tarjima texnik vositalarni qo'llash yo'li bilan amalga oshadi. Bunda so'zlovchining nutqi maxsus kabinada o'tirgan tarjimonga «eshitgichlar» orqali etkaziladi va tarjimonning mikrofoniga bergan tarjimasi tinglovchilarga yetkaziladi.

Sinxron tarjima jarayonida tarjimon juda katta ruhiy va jismoniy mashaqqatni boshdan kechiradi. Sinxron tarjima jarayoni – o'ta murakkab jarayon hisoblanadi. Tarjimon so'zlovchi nutqi tezlik darajasidan orqada qolmasdan tarjima qilishi zarur. Shuning uchun, sinxron tarjimonlar 20-30 daqiqa mobaynida ishlaydilar, sinxron tarjima borayotgan paytda tarjimonlar o'rin almashadilar.

Sinxron tarjimaning yana bir turi borki, bunda tarjimon Retseptor yonida turib yoki o'tirib past ovozda (shivirlab) notiqning nutqini tarjima qiladi. Bunda Retseptor tarjimani bevosita yoki eshitgich orqali qabul qiladi.

Sinxron tarjima mazmuni qator komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri ta'limning aniq maqsadini amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Sinxron tarjima mazmunining birinchi komponenti – talabaning pertseptiv qobiliyati: diqqati, xotirasi va fikrlashini tizimli ravishda rivojlantirish, uni intensiv aqliy faoliyatga chiniqtirishni ko'zda tutadi. Bu, o'z navbatida, eshitib tushunish madaniyatini yuksaltirish, so'z, so'z birligi hamda stilistik konstruksiyalarni bilish (tushunish) tezligini oshirish, tarjimada so'z tanlash ishlarini to'g'ri yo'naltirishni talab qiladi. Sinxroni eshitilayotgan nutqni turli tezlik va ohangda, tembrda, talaffuzda farqlay olishga, tushunishga o'rganishi lozim.

Ketma-ket qilinadigan izchil tarjimada tarjimon soʻzlovchi nutqini tugatgandan soʻng yoki nutqning qandaydir bir qismini tugatgandan keyin tarjimasini boshlaydi. Tarjimaning bu turida tarjimon soʻzlovchi nutqidagi asosiy boʻgʻinlarni ilgʻab olishi, agar nutq uzunroq boʻlsa, bunda tarjimon uning eng muhim joylarini yoza borishi kerak, bu esa tarjimonga eshitgan matnini esga keltirishni taʼminlaydi. Ketma-ket qilinadigan izchil tarjima tarjimonning fikrlash qobiliyatiga va esda saqlash qobiliyatiga bogʻliq. Frantsuz tarjima

nazariyasining asoschisi Edmon Kari oʻzining «La traduction dans le monde» kitobida frantsuz diplomati Andre Fransua Ponsening «Millatlar Ittifoqida» 2,5 soat davom etgan nutqining ketma-ket qilingan izchil tarjimasi xususida gapiradi. Ketma-ket qilinadigan izchil tarjima Jan Erber, Robber Konfino, aka-uka Kaminker, Jorj Matʼe nomlar bilan bevosita bogʻliq. Antuan Vellemana Jeneva universiteti qoshida tarjimonlar maktabiga asos solganlardan biri hisoblanadi. Gʻarbda bu maktab oʻz mavqeiga ega edi. Ogʻzaki tarjimaning yana bir oʻziga xos xususiyati shundaki, yozma matnni ogʻzaki tarjima qilishda matn mazmunini tez oʻqib olish, oldindan tayorlanib tez tahlil qilish koʻnikmasiga ega boʻlib, toʻxtalmay tarjima qilish usullarining ishlab chiqilishi nazarda tutiladi. 1800 bosma belgidan iborat matnni 10 daqiqa ichida tarjima qilish kerak boʻladi. Bu turdagi tarjima «at sight» tarjima deyiladi.

Yozma tarjima. Tarjimaning bu koʻrinishida tarjimon qoʻlida asliy matni boʻlib, tarjima jarayonida unga bir necha marotaba murojaat etishi mumkin. Tarjimasini qayta koʻrib chiqib, asliy matn bilan solishtirish imkoniyatiga ega boʻladi. Tarjima jarayonida mutaxassislardan maslahat olishi mumkin. Bu esa tarjimaning har tomonlama mukammal chiqishiga yordam beradi. Ammo ogʻzaki tarjimada – bu imkoniyatlar boʻlmaydi. Yozma tarjimani ogʻzaki tarjimalardan farqlaydigan faktorlardan biri bu –vaqtdir.

Ogʻzaki tarjimada tarjimon nutqining bir qator xarakterli xususiyatlari bor. Sinxron tarjimada tarjimon nutqi baland va tez tempda olib boriladi. Mazkur tarjimada soʻzlarning soni tarjima qilinayotgan nutq hajmiga bogʻliq. Ketma-ket qilinadigan izchil tarjimada nutq tempi pasayadi, chunki tarjimon qoʻlyozmasiga eʼtibor berishi va asliy matnda aytilgan fikrni tushunib tinglovchiga etkazishi lozim

Og‘zaki tarjima nazariyasida tarjimonlarga quyidagi talablar qo‘yilgan, ularga tarjimonlar albatta amal qilishlari shart.

1. Aniq talaffuz qilish.
2. Nutqning bir xil ritmliligiga e‘tibor berish.
3. Jumlada ma’no jihatdan o‘zaro bog‘lanishga e‘tibor berish.

Og‘zaki tarjimaning asosiy xarakterli xususiyati – unga yozma tarjimaga qarama-qarshi o‘laroq maxsus tarjima deb qarash kerak. Og‘zaki tarjima nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar tarjimaning bu ko‘rinishida ham son, ham sifat jihatdan xarakterli xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadilar.

Yozma va og‘zaki tarjimalar bir-biridan aloqada bo‘luvchilarning ishtiroki bilan ham xarakterlanadi. Masalan: Yozma tarjimada tarjima jarayoni

«kommunikant» siz, ya’ni so‘zlovchi bilan o‘zaro aloqasiz tarzda o‘tadi. Tarjimonning diqqat markazida tarjima qiladigan matn turadi. Tarjimonga faqat tarjima tugatilgandan so‘ng baho beriladi.

Og‘zaki tarjimada tarjimon kommunikant bilan kontaktda bo‘ladi.

Tarjimon so‘zlovchining nutqi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, uni tarjima qilishi kerak. Shuning uchun tarjimon bilan so‘zlovchining o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunish yotadi. Tarjimashunos olim A.F.Fedorov yozma tarjimaning quyidagi ko‘rinishlarini ko‘rsatib o‘tadi

1. Gazeta xabarlari, rasmiy hujjat va maxsus ilmiy matnlarning tarjimasi.
2. Ommaviy – siyosiy adabiyot, publitsistika (ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid adabiyot va notiqlik nutqini tarjima qilish).
3. Badiiy asar tarjimasi.

Og‘zaki tarjimaning yana quyidagi ko‘rinishlari mavjud. Bular quyidagilar:

A) Yozma matnni og‘zaki tarjima qilish. Bunda chet tili yozma ravishda ishlatilgan bo‘lib, tarjima tili og‘zaki formada ishlatiladi. Tarjimon aslyat matnini avval ichida o‘qib yoki abzats bilan o‘qib, keyin tarjima qiladi.

B) Og‘zaki matnni – yozma ravishda tarjima qilish.

Chet tili og‘zaki nutqda ishlatilishi va uni yozma ravishda tarjima qilishi kerak.

Tarjimaning bu turi amaliyotda juda kam ishlatiladi. Og‘zaki aytilgan so‘zlarni stenografiya yordamida yozib olinib (ya’ni shartli belgilar asosida yozish) keyin

stenografik matn tarjima qilinadi. Bunda og‘zaki – yozma tarjimaning alohida ko‘rinishi hisoblanadi: Masalan:

er yuzi, dunyo; zemniy shar, mir. insoniyat; chelovechestvo. qomus, zakon, konstitutsiya. boyluk, kapital; kapital, bogatstvo. buyruq, qaror; prikaz, postanovlenie.(R.K.Min‘yar Beloruchev Posobie po ustnomu perevodu. M., 1969. str.184-189.)

Chet tili fanlarini o‘rganishda darslarda qo‘llaniladigan diktant tarjimalar ham bor, bu quyidagicha amalga oshadi.

Chet tili o‘qituvchisi sekinlik bilan aytgan diktantni o‘quvchilar ona tiliga tarjima qilishlari kerak.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarjima turlarining quyidagi sxemada tasvirini beramiz:

Chet tili -----1 ona tili

Yozma -----2 yozma

Og‘zaki-----3 og‘zaki

Matnning janr xususiyatlariga ko‘ra tarjimasi:

Gazeta – axborot, hujjatlar, siyosiy ijtimoiy adabiyotlarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Siyosiy–ijtimoiy sohaga oid materiallarni tarjima qilishda ishlatiladigan leksik birliklarni 2 ta asosiy guruhga ajratishimiz mumkin.

1– guruhga kiruvchi mavzu mazmuniga doir bo‘ladi.

2– guruhni tashkil etuvchi so‘zlar umumiy ishlatiladigan so‘zlar bo‘lib, ular turli xil mavzularda ishlatiladi.

- A delegation of American businessmen arrived in Tashkent yesterday for talks with Uzbek trade organizations.

Hier, la délégation des businessmen américains est arrivée àTashkent pour des pourparlers commerciaux avec des organizations ouz beks.

Vchera v Tashkent dlya peregovorov s uzbekskimi trgovimi organizatsiyami pribila delegatsiya predstaviteley amerikanskix delovix krugov.

- O‘zbekistondagi savdo tashkilotlari bilan muzokaralar olib borish uchun Amerika ishbiarmonlari doirasidan iborat bo‘lgan delegatsiya kecha Toshkentga tashrif buyurdi.

Siyosiy-ijtimoiy hujjatlarni tarjima qilishda so‘zning ahamiyati juda kattadir. Bunda tarjima ekvivalentlari muhim rol o‘ynaydi.

Doimiy ekvivalentli so‘zlar:

Jahon Kasaba Soyuzlari Federatsiyasi. Vsemirnaya Federatsiya Profsoyuzov.

La Fédération Syndicale Mondiale. Organization of Trade Union Federation.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (B.M.T.) Organization des Nations Unies (O.N.U.)

United Nations Organizations. (U.N.O.)

Doimiy ekvivalentli so‘zlarga – realiyalar (xos so‘zlar), gazeta tiliga oid turli xil frazeologik birliklar kiradi.

2) Ikkinchi holatda tarjimon oldida eng qiyin masala turadi. Bu ham bo‘lsa, juda ko‘p ekvivalentlardan tekstga monand muqobil variant topish lozim.

3) Uchinchi holatda tarjimonning o‘zi ekvivalent topishi lozim.

Bunday holatda u neologizmlarga, realiyalarga (lug‘atlarda ko‘p qayd etilmagan so‘zlarga) murojaat etadi.

Masalan: «clanique» - so‘zining o‘zagi «clan» «qabila» ma’nosini beradi.

«Ique» suffiksi nisbiysifat yasashda qo‘llaniladi. «clanique» o‘zini «qabilaga oid» deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Gazeta – axborot, siyosiy-ijtimoiy hujjatlarni tarjima qilishda so‘zlarning ko‘p ma’noliligi katta ahamiyatga ega. Eng avval so‘zning kontekstdagi ma’nosini to‘g‘ri tarjima qilish kerak.

Masalan «engager» fe’li asosiy ma’nosi «jalb qilmoq»dan tashqari

«tortmoq, giriftor qilmoq» kabi ko‘chma ma’nolarda ham ishlatiladi.

1. Il engage son ami dans une mauvaise affaire.

2. Il m’a fallu plus d’un effort pour engager mon ami dans cette entreprise.

1. U do‘stini yomon ishga tortdi.

2. Do‘stimni bu idoraga jalb qilmoq uchun menga katta kuch kerak bo‘ldi.

Ingliz tilida ham «engage» so‘zi bir necha ma’noda ishlatiladi, uning qanday ma’noda ishlatilganini matn belgilaydi. Masalan:

He is engaged in research work. U tadqiqot ishlari bilan band.

She is engaged. U unashtirilgan.

She engaged my attention. U mening diqqatimni o'ziga jalb etdi.

#### Munozara uchun savollar:

1. Sinxron tarjima nima?
2. Sinxron tarjima qachon paydo bo'lgan?
3. Sinxron tarjimaning boshqa tarjima turlaridan asosiy farqi nimada?
4. Sinxron tarjimaning lingvistika, psixolingvistika fanlari bilan bog'liq jihatlari bayon qiling.
5. Sinxron tarjimaning asosiy tavsifini bayon qiling. Og'zaki tarjimaning ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.
6. Sinxron tarjimoni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan buyumlarni sanab o'ting.
7. Dunyoda hozir necha tilda sinxron tarjima qilinadi?
8. Sinxron tarjimon qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
9. Sinxron tarjimaning kelajagini qanday tasavvur qilasiz?

#### Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar

1. Gak V.G., Grigorev B.B. Teoriya i praktika perevoda. Frantsuzskiy yazik. M.: Interdialekt, 2000. – 455 s.
2. Komissarov V.N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekti). - M.: Visshaya shkola, 1990. – 253 s.
3. Fedorov A.V. Osnovi obshey teorii perevoda. M.:Visshaya shkola, 1983. – 303 s.

#### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Vlaxov S., Florin S. Neperevodimoe v perevode. M.:IMO, 1980. –344 s.
2. Minyar-Beloruhev R.K. Kurs ustnogo perevoda. Frantsuzskiy yazik. M.: Moskovskiy litsey, 2000. – 144 s.
3. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 bet.
4. Skvortsov G.P. Uchebnik po ustnomu posledovatelnomu perevodu. Frantsuzskiy yazik. Sankt-Peterburg. 2000. – 160 s.

5. Henry Van Hoof, Histoire de la traduction en Occident, – Paris: Duculot, 1991.
6. Marianne Lederer. La traduction aujourd`hui. – Paris: Hachette-Livre, 1994.

Internet saytlari

1. [www.lingua.ru](http://www.lingua.ru)
2. [www.edufrance.fr](http://www.edufrance.fr)
3. [www.granddictionnaire.com](http://www.granddictionnaire.com)
4. [www.lexicool.com](http://www.lexicool.com)
5. [www.traduction-litteraire.com](http://www.traduction-litteraire.com)
6. [www.larousse.fr](http://www.larousse.fr)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
TILLAR VA IJTIMOIV GUMANITAR FANLAR  
KAFEDRASI**

**«TASDIQLAYMAN»**  
Namangan davlat chet tillari instituti  
o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  
PhD. P. Entfullayev  
«30» 2022 yil



70230101–Lingvistika(nemis tili) mutaxassisligi uchun

**BADIIY MATNLAR TARJIMASI**

fani bo‘yicha

I-kurs magistratura talabalari uchun

**O‘QUV DASTURI**

2022/2023 o‘quv yili

Bilim sohasi:	200000
Ta‘lim sohasi:	230000 - Tillar
Ta‘lim darajasi:	70230101–Lingvistika(nemis tili)

**NAMANGAN – 2022**

Fan/modul kodi: BaMaT 2.06		O'quv yili: 2022-2023	Semestr: 1	EKTS – Kreditlar: 4	
Fan/modul turi: Tanlov		Ta'lim tili: Ozbek		Haftadagi dars soatlari: <u>2-semestr</u> <u>4 soat</u>	
1	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Badiiy matn tarjimasi		60	60	120

### I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu fan 70230101–Lingvistika(nemis tili) magistratura yo'nalishi 1-bosqich talabalariga badiiy tarjimaning ilmiy, o'quv-uslubiy, stilistik, pragmatik, kognitiv tushunchalar kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur fan badiiy adabiyotlar tarjimasi, badiiy matn tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari, badiiy tarjima jarayonida muqobillar qo'llashda magistrant talabalarning nazariy-amaliy bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Badiiy matn tarjimasi” fani tanlov fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, magistrantlarning 1-bosqichda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Ushbu fanni o'zlashtirish uchun asosiy: tarjima nazariyasi, sinxron tarjima, qiyosiy ti'ologiya, leksikologiya, stilistika kabi fanlarning o'zlashtirishini e'tiborga olgan holda olib boriladi.

### II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga o'qitilgan va egallangan bilimlaridan farqli o'laroq mukammal bilim berish; har ikkala til ona tilidan chet tiliga, chet tilidan ona tiliga badiiy matnlarni adekvat tarjima qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – uni o'rganuvchilarga:

□ badiiy tarjimaning o'ziga xos jihatlarini fan sifatida shakllanishi va tarjimaning nozik masalalarini o'rgatish;

- magistrantlarga badiiy tarjimaning nazariy masalalari, asliyat va tarjima tillarining leksik, grammatik va stilistik sathlaridagi o'xshash va tafovutli jihatlari hamda tarjima turlarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish;
- magistrantlarda badiiy matnni leksik, semantik va kognitiv-kontseptual tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- badiiy matn tarjimasining leksik-frazeologik muammolari, shuningdek, obrazlilik va janr xususiyatlarini tarjimada qayta yaratish usullari bilan yaqindan tanishtirish;

Fan bo'yicha magistrantning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Magistrant:**

- badiiy tarjimaga oid terminlar, adabiyotlararo muloqot, fan va madaniyatga qo'shgan hissalarini to'g'risidagi ma'lumotlar;
- badiiy tarjimaning leksik, grammatik va stilistik, tipologik jihatlari o'g'risidagi muammolar;
- badiiy tarjima qilish usullari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**
- badiiy tarjima jarayoni va tarjima matnini lingvistik tahlil qilish usullari;
- tarjimada qo'llaniladigan asosiy omillarni o'rganish;
- ilmiy tadqiqot ishlarida ulardan foydalanish, mavzuga oid turli manbalardan olingan dalillarni tahlil qila olish va o'z fikriga ega bo'lish;
- ma'ruzalar davomida olingan nazariy bilimlarni o'zining magistrlik dissertatsiyasida foydalanish;
- ma'ruza davomida badiiy matnni farqlay olishi, turli janrdagi badiiy matnlarni chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim;**

### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

#### **“Badiiy matn tarjimasi” fanining mazmuni, predmeti va metodi**

Badiiy matn tarjimasi predmeti. Tarjima turlari: yozma va og'zaki tarjima. Ularning o'ziga xosliklari. Tarjimaning lingvistik, adabiyotshunoslik va nolingvistik aspektlari. Tarjima jarayonining pragmatik xarakteri. Tarjima qilinish muammosi.

Til tizimining turli darajalarida tarjima. Tarjimaning asosiy lingvistik mushkulliklari. Yaxlit matn tarjima objekti sifatida.

### **Nemischadan o'zbekchaga va o'zbekchadan nemischaga tarjima**

Tarjima kursining mazmuni tarjimaning nazariy asoslarini atroflicha o'rganish, yozma va og'zaki tarjima malakalarini rivojlantirishdan iboratdir.

### **Tarjima adekvatligi tushunchasi**

So'zma-so'z, adekvat va erkin tarjima. Tarjima transformatsiyalari. Tarjimada kontekstning roli. Tilning tor va keng kontekstlari va tildan tashqari xolatlari. Leksik-frazeologik, grammatik va uslubiy muammolari. Tarjimada leksik-frazeologik mutanosibliklarning turlari. Muqobil va variant mutanosibliklar. So'zning ko'p ma'noliligi va tarjima. So'zning ko'p ma'noliligini idrok etishda kontekstning roli. Tarjima jarayonida sinonimik qatordan so'z tanlash. Tarjimada so'z birikmalarini hisobga olish.

### **Tarjimada leksik transformatsiyalar**

Ma'nolarni differentsiatsiya (farqlash) va generalizatsiya qilish. Antonimik tarjima uslubi. Yaxlit idrok etish uslubi. Tasviriy tarjima. Kompensatsiya (o'rnini to'ldirish) uslubi. Tarjimada Grammatik transformatsiyalar.

### **Frazeologizmlar tarjimasi**

Nofrazeologik xarakterdagi frazeologik birliklar, turg'un birikmalarni tarjima qilishning turli yo'llari. "Yangilangan" frazeologik birliklar tarjimasi. Turli funktsional uslub va janrlarga qarashli so'z va iboralar tarjimasi. Emotsional bo'yoqli leksika tarjimasi. Sinonimik juftliklar tarjimasi.

### **Tarjima va grammatika**

Tarjimada ekspressiv sintaksis deb ataluvchi stilistik vositalarni tarjima qilish; takror, parallelizm, emfatik inversiya, ellips va b.q. tarjimasi.

### **Tarjima va stilistika**

Ritorik figuralar (metafora, metonimiya, ko'chma epitet, mubolag'a va b.q.) tarjimasi. Tarjimada allyuziyalarni ochish. Tarjima jarayonida turli tildagi lug'atlardan foydalanish. Tarjimada grammatik transformatsiyalar; gap bo'laklari va so'z turkumlarining almashinuvi. Tarjimada gaplarni bo'laklarga bo'lish va birlashtirish. Gapning aktual bo'linishi va uni tarjimada ifodalash. Sifatdosh va

infinitiv konstruktsiyalarni tarjima qilish. Ot, sifat, artikl va kishilik olmoshlari grammatik mahmolarni tarjimada ifodalashning o'ziga xosliklari. Fehllarni tarjima qilishning o'ziga xosliklari. Nemis

tilidagi fehllarning tus-zamon mahmolarini tarjimada ifodalash.

Tarjimada modallikni ifodalash (modal fehllar va modal so'zlar).

### **Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy ro'yxati**

- Tarjimaning stilistik muammolari;
- Tarjimaning pragmatik masalalari;
- Badiiy tarjima masalalari;
- Tarjima turlari;
- Tarjimaning leksik muammolari;
- Tarjimaning grammatik muammolari;
- Milliy realiyalarni ifodalovchi birliklar tarjimasi;

### **III. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni va ular bo'yicha ajratilgan soatlarning taqsimoti.**

<b>N</b>	<b>Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari</b>	<b>Soat</b>
<b>1 Semestr</b>		
1	“Badiiy matn tarjimasi” fanining mazmuni, predmeti va Metodi	2
2	Tarjima qilinish muammosi.	2
3	Tarjimaning lingvistik, adabiyotshunoslik va nolingvistik aspektlari.	2
4	Nemischadan o'zbekchaga va o'zbekchadan nemischaga tarjima	2
5	Tarjima adekvatligi tushunchasi. Mavzuga oid badiiy matnlar ustida ishlash	2
6	Tarjimada kontekstning roli. Amaliy mashqlar	2
7	Ko'p ma'noli so'zlarning tarjima qilish. Autentik matnlar ustida ishlash	2
8	Milliy xos so'zlar (realiyalar)ni tarjima qilish. Badiiy matnlar ustida ishlash	2
9	Badiiy matnda frazeologizmlar tarjimasi	2
10	Turli funktsional uslub va janrlarga qarashli so'z va iboralar tarjimasi.	2
11	Tarjima va grammatika	2
12	Tarjima va stilistika	2
13	Tarjima jarayonida turli tildagi lug'atlardan foydalanish.	2
14	Obrazlilik va janr xususiyatlarini tarjimada qayta yaratish usullari.	2
15	Tarjimada modallikni ifodalash (modal fehllar va modal so'zlar)	2
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

N	Amaliy mashg'ulotlari mavzulari	Soat
<b>1 Semestr</b>		
1	Tarjima qilinish muammosi	2
2	Tarjima turlari.	2
3	Tarjimaning boshqa fanlar bilan bog'liq jihatlari.	2
4	Tarjimaning metodik aspektlari.	2
5	Tarjima birliklari.	2
6	Tarjimaning leksik-semantik muammolari	2
7	Terminlar tarjimasi.	2
8	Tarjimada qisqartma otlar.	2
9	Grammatik ma'no turlarini tarjimada ifodalash.	2
10	Tarjimada grammatik transformatsiyalar.	2
11	Tarjimaning stilistik muammolari	2
12	Tarjimaning stilistik muammolari	2
13	Milliy realiyalar tarjimasi	2
14	Og'zaki tarjima.	2
15	Avtomatlashtirilgan tarjima.	2
	<b>Jami</b>	<b>30</b>

**Badiiy matn tarjimasi fanidan texnologik xarita  
(Ma'ruza mashg'ulotlari)**

N	Mavzular	Hafta	Soat	Ko'rgazm li qurollar	Mustaqil ta'lim	Ped. texnologiya	Nazorat shakli	Izoh
1.	“Badiiy matn tarjimasi” fanining mazmuni, predmeti va metodi	1.W	2	Ma'ruzalar matni, darslik	O'qib o'rganish.	Savol-javob	Og'zaki	
2.	Tarjima qilinish muammosi.	2.W	2	Ma'ruzalar matni, darslik	O'qib o'rganish.	Savol-javob	Og'zaki	2
3.	Tarjimaning lingvistik, adabiyotshunoslik va nolingvistik aspektlari.	3.W	2	Ma'ruzalar matni, darslik	O'qib o'rganish.	Savol-javob	Og'zaki	2

4.	Nemischadan o'zbekchaga va o'zbekchadan nemischaga tarjima	3.W	2	Ma' ruzala r matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
5.	Tarjima adekvatligi tushunchasi.Mavzuga oid badiiy matnlar ustida ishlash	4.W	2	Ma' ruzal ar matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
6.	Tarjimada kontekstning roli. Amaliy mashqlar	4.W	2	Ma' ruzala r matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
7.	Ko'p ma'noli so'zlarning tarjima qilish. Autentik matnlar ustida ishlash	5.W	2	Ma' ruzala r matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
8.	Milliy xos so'zlar (realiyalar)ni tarjima qilish. Badiiy matnlar ustida ishlash	5.W	2	Ma' ruzala r matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
9.	Badiiy matnda frazeologizmlar tarjimasi	6.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
10	Turli funktsional uslub va janrlarga qarashli so'z va iboralar tarjimasi.	7.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
11	Tarjima va grammatika	9.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
12	Tarjima va stilistika		2	Ma' ruzal ar matni, darslik	O' qib o' rganish	Savol-javob	Og' zaki	2

13	Tarjima jarayonida turli tildagi lug'atlardan foydalanish.		2	Ma' ruzala r matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
14	Obrazlilik va janr xususiyatlarini tarjimada qayta yaratish usullari.	9.W	2	Ma' ruzala r matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2
15	Tarjimada modallikni ifodalash (modal fehllar va modal so'zlar)	10.W	2	Ma' ruzala r matni, darslik	O' qib o' rganish.	Savol-javob	Og' zaki	2

**Badiiy matn tarjimasi fanidan texnologik xarita  
(Amaliy mashg'ulotlari)**

N	Mavzular	Hafta	Soat	Ko' rgazm ali qurollar	Mustaqil ta' lim	Ped. texnologiya	Nazorat shakli	Izoh
1.	Tarjima qilinish muammosi.	1.W	2	Badiiy asarlari,	Amaliy mashqlar	Savol-javob	Og' zaki- yozma	
2.	Matnlar ustida ishlash	2.W	2	Badiiy asarlari, darslik	Badiiy tnlar- dan archalar tar ima	Savol-javob	Og' zaki	
3.	Nemis chadan o'zbekchaga tarjima. Ayntentik matnlar ustida ishlash	3.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	

4.	O'zbekchadan nemischaga tarjima. Autentik matnlar ustida ishlash	3.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	
5.	Tarjima adekvatligi tushunchasi. Badiiy matnlar ustida ishlash	4.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	
6.	Tarjimada kontekstning roli. Badiiy tarjima matnlari tahlili	4.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	
7.	So'zning ko'p ma' noliligi va tarjima. Amaliy mashqlar	5.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	
8.	Tarjimada leksik transformatsiyalarga doir amaliy mashqlar	5.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	
9.	Frazeologik birikmalarni tarjima qilish	6.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	
10.	Tarjimada janr xususiyatlarini ifoda etish	7.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	
11.	Ekspressiv -silistik vositalarni tarjima qilish	9.W	2	Ma' ruzalar matni, darslik	O' qib o' rganish, savollarga javob	Savol-javob	Og' zaki	

12	Metafora, metonimiya, epitet va boshqalar tarjimasi		2	Ma'ruzalar matni, darslik	O'qib o'rganish, savollarga	Savol-javob	Og' zaki	
13	Tarjimada lug'atlardan foydalanish.		2	Ma'ruzalar matni, darslik	O'qib o'rganish, savollarga	Savol-javob	Og' zaki	
14	Tarjimada obrazlilikni qayta yaratish usullari.	9.W	2	Ma'ruzalar matni, darslik	O'qib o'rganish, savollarga	Savol-javob	Og' zaki	
15	Modal fehllar va modal so'zlar tarjimasi	10.W	2	Ma'ruzalar matni, darslik	O'qib o'rganish, savollarga	Savol-javob	Og' zaki	

#### IV. Mustaqil ta'limni tashkil etish

##### Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Magistrant mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Magistrant mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- prezentatsiya va namunalar yaratish;
- ilmiy maqola, anjumanga mahruza tayyorlash va x.k.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra 'rofessor-o'qituvchilari

tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari**

1. Tarjimaning umumiy lingvistik muammolari (semantik muammolari, grammatik kategoriyalar)
2. Implitsit va frazeologik muammolar
3. Tarjimaning sintaktik muammolari
4. Tarjimaning pragmatik aspektlari
5. Tarjimaning stilistik masalalari
6. Uslub va til. So'z stilistikasi
7. Tarjimaning ekstralingvistik muammolari
8. Matn turlari va tarjima muammolari
9. Funktsional va instruksional matnlar
10. Badiiy matn tarjimasi. Nemis matbuotini tarjima qilish yo'riqlari
11. Ilmiy-texnikaviy matnni tarjima qilishning o'ziga xosliklari
12. Tarjima jarayoni va matn taxlili
13. Badiiy tarjima va milliy kolorit
14. Realialarni tarjima qilishning o'ziga xosligi
15. Maqol, matal va idiomalar tarjimasi

<b>N</b>	<b>Mustaqil ish mavzulari</b>	<b>Soat hajmi</b>	<b>Talaba faoliyati</b>
<b>Birinchi semester</b>			
1	Tarjimaning umumiy lingvistik muammolari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
2	Grammatik kategoriyalar)	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
3	Implitsit va frazeologik muammolar	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
4	Tarjimaning sintaktik muammolari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
5	Tarjimaning pragmatik aspektlari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
6	Tarjimaning stilistik masalalari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
7	Uslub va til. So'z stilistikasi	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
8	Tarjimaning ekstralingvistik muammolari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
9	Matn turlari va tarjima muammolari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
10	Funksional va instruksional matnlar	4	Mavzuni mustaqil o'rganish

11	Badiiy matn tarjimasi. Nemis matbuotini tarjima qilish yo'riqlari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
12	Ilmiy-texnikaviy matnni tarjima qilishning o'ziga xosliklari	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
13	Tarjima jarayoni va matn taxlili	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
14	Badiiy tarjima va milliy kolorit	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
15	Realiyalarni tarjima qilishning o'ziga xosligi	4	Mavzuni mustaqil o'rganish
	<b>Jami:</b>	<b>60 Soat</b>	

#### **V. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**

- interfaol keys-stadilar;
- mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

Fanni o'zlashtirish uchun o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi: guruhli muzokaralar, jamoa loyihalari, juftliklar bo'lib topshiriqlarni bajarish, yakka holda ma'lum mavzu bo'yicha prezentatsiyalar qilish, davra suhbatlari o'tkazish, diskussiya, klaster, bahs – munozara, reflektiv usullar (tahlil, qiyoslash, sintez, baholash). Axborot texnologiyalari, jumladan, multimedia vositalari yordamida mashg'ulotlar tashkil etiladi, Power Point, Prezi dasturlari yordamida prezentatsiyalar yaratiladi. MOODLE platformasiga fan bo'yicha dasrlik va o'quv qo'llanmalar, media resurslar va testlar joylashtiriladi.

#### **VI. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:**

Yevropa Kengashining “Chet tilini egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash” to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR)ga ko'ra B1+-B2 darajaga mos keladigan nemis tilidagi til materiallarni o'qib, ular mazmunini og'zaki bayon etish, matnni tahlil qilish, mavzularga oid turli matn turlarini tinglab mazmunini tushunishlari va o'z fikrlarini og'zaki ravishda ravon ifoda eta olishlari hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan variantli topshiriqlarni va

mustaqil ta'lim vazifalarini bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni muvaffaqiyatli topshirish. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Fanga oid nazariy bilimlarni o'rganish va shu asosida fanning o'ziga xos tomonlarini to'la o'zlashtirish, fanning har bir mavzusi bo'yicha berilgan nazariy bilimlar asosida tilshunoslik fanining kelib chiqishi, uning boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning o'rganish obyekti, tillarning tasniflanishi va yangi tadqiqot metodlarini to'g'ri ifodalay olish, fanga taalluqli bo'lgan har qanday mavzuga erkin munosabat bildirgan holda tahlil eta olish, o'rganilayotgan fanning tahlili bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan variantli test topshiriqlarini bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yakuniy test topshiriqlarini topshirish.

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimini baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – “a'lo”, 4 – “yaxshi”, 3 – “qoniqarli”, 2 – “qoniqarsiz” baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat o'quv semestrda bir marta yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabalar semestr davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg'ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

SHuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan qayta o'rtachalanadi.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho oraliq nazorat natijasi sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Salomov F.S. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, 1978.
2. Salomov G'.S. Tarjima nazariyasi asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, "O'qituvchi", 1983
3. Salomov G'.S. Adabiy anhana va badiiy tarjima. Toshkent, "Fan", 1980
4. Salomov G'.S., Kamilov N., Salimova Z., Djuraev K., Atadjanov N. Tarjimon maxorati. Toshkent, "Fan", 1979
5. G'afurov Ibroxim. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish. Toshkent, Mexridaryo, 2008
6. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. М., 1999.
7. Imyaminova SH.S. Badiiy matnlar tarjimasini to'plami. Metodik qo'llanma.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini tahminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
5. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari ga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
6. Швейцер А. Д. Перевод и лингвистика. М., 1973.
7. Казакова Т.А. Практические основы перевода.- СПб.: «Издательство Союз», 2000.
8. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990.
9. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода.— М.: Московский лицей, 1996
10. Комиссаров В.Н. Общая теория перевода: Проблемы переводоведения в освещении зарубежных ученых: Учебное пособие.- М.: ЧеРо, 2000.
11. Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. - М.: Воениздат, 1980.
12. Kade O. Die S'rachmittlung als gesellschaftliche Erscheinung und Gegenstand wissenschaftlicher Untersuchung. Lei'zig, 1980.

## **Internet saytlar:**

1. [www.alta-vista.de](http://www.alta-vista.de)
2. [www.suchmaschine.de](http://www.suchmaschine.de)
3. Meyers Lexikon – nemischa izoxli lug’at [www.iicm.edu/meyers](http://www.iicm.edu/meyers)
4. Multilex 2.0. (Media Lingva) En-Ru-En [www.multilex.ru/online.htm](http://www.multilex.ru/online.htm)
5. [www.medialingua.ru](http://www.medialingua.ru)
6. Langenscheidt. Leipzig. 2008

Fanning o`quv dasturi Nemis vafransuz tillari kafedrasining 2023 -yil 1-avgustdagi yig`ilishida muhokamadan o`tgan va fakultet kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Fanning o`quv dasturi Jahon tillari fakultetining 2023-yil 28-avgustdagi 1-sonli Kengashida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fanning o`quv dasturi Namangan davlat chet tillar institutining 2023-yil 30 avgustdagi 1-sonli Kengashida ko`rib chiqilgan va tasdiqlangan.

### **Fan/modul uchun mas’ullar:**

A.Tursunov - Namangan davlat universiteti , Nemis va fransuz tillari kafedrasini mudiri

Abdullajanov Akmalhon Axmadjonovich– Aniq va tabiiy yo’nalishlar bo’yicha chet tillar kafedrasini dotsenti

### **Taqrizchilar:**

Nishonova Tursinoy - Namangan davlat universiteti, aniq va tabiiy yo’nalishlar bo’yicha chet tillar kafedrasini dotsenti

J. Najmiddinov - Aniq va tabiiy yo’nalishlar bo’yicha chet tillar kafedrasini mudiri

